1)ko’rsatkichlarning aniqlanuvchanligi — xo’jalik operatsiyalari haqidagi ma’lumotlar moliyaviy hisobotning oltinchi Nizomda keltirilgan biror elementi ta’rifiga mos kelishi lozim. Ya’ni aktivlarga yoki passivlarga, xarajatlarga va daromadlarga, foyda yoki zararlarga taalluqli bo’lishi lozim;

2)ma’lumotlarning o’lchanuvchanligi - xo’jalik operatsiyalari ishonchli ravishda o’lchanishi mumkin bo’lgan tavsifga ega bo’lishi lozim;

3)foydalanuvchi uchun qadr - qimmatga ega bo’lishi;

4)ishonchlilik (rostlik).

Ma’lumotlarning foydalanuvchi uchun qadr —qimmati ularning o’z vaqtida etkazib berilishiga bog’liq. Biroq, xo’jalik operatsiyasi to’g’risida to’la va ishonchli axborot olish uchun ba’zan anchagina kutishga to’g’ri keladi.

Beshinchi Nizom pul birliklarida ifodalangan barcha baholashlar u yoki bu aktyvni qo’lga kiritish bo’yicha xarajatlar asosida qilinishi kerakligini uqtiradi. Ya’ni aktivlarni ularning balans qiymati bo’yicha, inflyatsiya yoki deflyatsiya bilan bog’lik tuzatishlarsiz baholash lozim.

Beshinchi Nizom hisob ob’ektiga nisbatan muayyan farazlarni nazarda tutadi:

1)hisob yuritish ob’ekti — mustaqil xo’jalik birligidir (huqukiy shaxs). Bu faraz doirasida hisob yuritish ob’ekti huqukiy va xo’jalik jihatlaridan uning kapitali egalariga yoki boshqa xo’jalik birliklariga qaram bo’lmagan iqtisodiy birikma deb qaraladi. Kompaniyani uning egasidan mustaqilligi buxgalteriya xisobi yuritilishi maqsadlarida farq qilinadi. Kompaniya bilan uning egasi o’rtasidagi munosabatlar kompaniyaning huquqiy maqomiga muvofiq holda qonunchilikda belgilab qo’yilgan bo’ladi;

2)hisob yuritish ob’ektining faoliyati uzluksiz deb tan olinadi. Bunda korxona o’zining mavjud majburiyatlarini bajarish uchun etarli bo’lgan davrda o’z faoliyatini davom ettiradi deb qabul qilinadi. Mazkur farazga tayangan holda kompaniyaning aktivlari va passivlari joriy va uzoq muddatli qismlarga bo’linadi;

3)o’lchov birligi mavjudligi. Buxgalteriya hisobi pul birliklarida amalga oshiriladi deb faraz qilinadi. Pul birliklarida o’lchov turli tuman natural ko’rsatkichlarni jamlash imkonini beradi. AQShdagi hisob yuritish amaliyotida valyutaning xarid qobiliyati o’zgarishi inkor qilinadi (e’tiborga olinmaydi);

4)hisob yuritishning muayyan vaqt oralig’iga nisbatan amalga oshirilishi. Hisob yuritishning halqaro standartlariga ko’ra bir yillik davr hisob yuritish uchun asos sifatida qabul qilingan. Kompaniya hisob yuritishda bundan qisqaroq yoki uzoqroq davrni qo’llasa, buni asoslab berishi lozim. Kompaniyaning moliyaviy hisobotlari muayyan sanaga (balans) yoki muayyan davr uchun (foyda va zararlar haqida hisobot) tuziladi.

Moliyaviy hisobning yuritilish tamoyillari kompaniya hisobotida daromadlar va xarajatlar qanday aks ettirilishini aniqlab beradi. Xarajatlarni aniqlash tamoyiliga binoan aktivlarni qo’lga kiritishda va bu operatsiyani birlamchi aks etgirishda mazkur aktivlarni ularni qo’lga kiritish bihosi bo’yicha baholash lozim. Lekin bu aktivlarni qayta baholash tiklanish qiymati yoki tugatish qiymati bo’yicha amalga oshirilishi mumkin. Aktivlardan foydalanish jarayonida ularning dastlabki qiymati eskirishiga yoki amortizatsiya ajratmalariga muvofiq holda kamaytirib boriladi. Aktivlarni qo’lga kiritishda ular uchun pul ko’rinishida haq to’lanmasa ham (qarzga olish yoki barter) bu operatsiya jurnalda baribir pul ifodasida qayd etiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Разъяснения Международных стандартов финансовой отчетности. Алматы, 2001.
2. Палий В.Ф. Международные стандарты финансовой отчетности. – М.: ИНФРА-М., 2003 г.
3. З.Эргашева Ш.Т. Международные стандарты финансовой отчетности. Учебник. –Т.: ТГЭУ, 2021 г. - 305 стр.
4. Сирожиддинов И. Қ. Молиявий ҳисоботлар халқаро стандартларининг хўжалик амалиётида қўлланиши масалалари. –Наманган, Усмон Носир нашриёти. 2022.
5. Xolmirzaev, U. A. (2020). Financial assets and improvements of their analysis. *Экономика и социум*, (1), 102-105.
6. Juraev, E. S., & Xolmirzayev, U. A. (2020). Supporting small business subjects by tax reforms. *Экономика и социум*, (1), 48-52.
7. Juraev, E. S., & Xolmirzayev, U. A. (2019). Profits of housekeeping and its development. *TRANS Asian Research Journals*, *8*(4).
8. Холмирзаев, У. А. (2021, October). ҚИСҚА МУДДАТЛИ ҚИММАТЛИ ҚОҒОЗЛАРНИ АНАЛИТИК ҲИСОБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. In *" ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM* (pp. 396-399).
9. Juraev, E., Xolmirzaev, U. A., & Rustamova, M. (2021). INCREASING THE EFFICIENCY OF REAL INVESTMENT IN THE CONDITIONS OF ECONOMIC LIBERATION. *Интернаука*, (21-5), 9-11.
10. Хакимов, Б., Талабоев, Х., & Холмирзаев, У. (2021). ВОПРОСЫ УЛУЧШЕНИЯ АНАЛИЗА ОБРАЩЕНИЯ ДОЛГОВОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ НАПРАВЛЕНИЯ. *Экономика и социум*, (6-2), 441-446.
11. Xolmirzaev, U., Juraev, E., & Axmadjonova, M. (2021). THE ROLE OF ACCOUNTING IN SMALL BUSINESS MANAGEMENT. *Интернаука*, (21-5), 20-22.
12. Камолов, А. А., & Холмирзаев, У. А. (2016). Малый бизнес и частное предпринимательство в Узбекистане. *Вопросы экономики и управления*, (5), 182-184.
13. Xolmirzaev, U. A., & Juraev, E. S. (2020). Problems of improvement of debitor debt debt analysis. *Мировая наука*, (1), 100-105.
14. Abdurahmon, K., & Abdulazizovich, K. U. (2021, December). SOME ISSUES OF IMPROVING SECURITIES ACCOUNTING. In *Conference Zone* (pp. 129-132).
15. Gulshirin, J., & Abdulazizovich, X. U. B. (2022, March). INCREASING THE EFFICIENCY OF INVESTMENT IN THE DEVELOPMENT OF EXPORT

DIVERSIFICATION IN THE REGION. In *Conference Zone* (pp. 277-281).

16. Sirojiddinov, I., Xolmirzaev, U., & Axmadjonova, M. (2021). THE NEED AND FACTORS TO ACCELERATE THE DEVELOPMENT OF PRIVATE ENTREPRENEURSHIP. *Интернаука*, (21-5), 14-16.

17. Xolmirzaev, U. A., Juraev, E., & Jamgirova, G. I. (2021). APPROACH TO ACCOUNTING FOR FINANCIAL ASSETS IN THE ENTERPRISE IN ACCORDANCE WITH INTERNATIONAL STANDARDS. *Интернаука*, (21-5), 17-19.

18. Khakimov, B., & Kholmirzayev, U. (2020). IMPROVING CASH ACCOUNTING AND ANALYSIS ON THE BASIS OF INTERNATIONAL EXPERIENCES. *International Finance and Accounting*, *2020*(1), 18.

19. Hakimov, B., Yunusov, M., & Holmirzayev, U. (2018). Elaboration of The Balance Sheet Liquidity Analysis-Requirements of The Period. *International Finance and Accounting*, *100*.

20. Kamolov, A. A., & Xolmirzayev, U. A. (2018). Economic Laws And Categories. *Экономика и социум*, (2), 34-36.

21. Убайдуллаев, Т., & Холмирзаев, У. (2019). ФАКТОРЫ И ТЕНДЕНЦИИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА. *Мировая наука*, (1), 299-302.

22. Abdulazizovich, K. U. (2022). IMPROVING METHODOLOGICAL APPROACHES TO FINANCIAL ASSET ACCOUNTING. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, *16*(4), 56-62.

23. Abdulazizov, K. U., Sherzod, I., & Abdulkhodinevna, S. M. (2022). IMPROVING THE METHODOLOGICAL BASIS OF ACCOUNTING FOR FINANCIAL ASSETS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, *11*, 34-39.

24. Abdulazizovich, X. U. B., Qutbiddinovich, S. I., & Sobirjon o’g’li, J. E. (2021). POSITIVE ASPECTS OF THE CASH METHOD IN SMALL BUSINESSES IN A PANDEMIC ENVIRONMENT. *American Journal of Economics and Business Management*, *4*(3), 1-8.

25. Abdulazizovich, K. U. IMPROVING THE REFLECTION OF MONEY AND CASH EQUIVALENT IN THE ACCOUNTING BALANCE. *Dear Academicians & Research Scholars*, 55.

26. Ogli, I. S. H., & Oglu, O. I. A. Peculiarities of the Development of Industrial Production in Namangan Region. *Volume*, *9*, 544-547.

27. Abdullayevich, A. O., & Abdullajanovich, U. T. (2021, December). DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IN UZBEKISTAN. In *Conference Zone* (pp. 123-128).

28. Abdullajanovich, U. T. (2022, March). THE ROLE OF INDUSTRIAL ENTERPRISES IN THE DEVELOPMENT OF THE NATIONAL ECONOMY. In *Conference Zone* (pp. 271-276).

29. Abdullajanovich, U. T. (2021). THE MAIN DIRECTIONS OF DIVERSIFICATION OF EXPORTS OF INDUSTRIAL PRODUCTS ON THE BASIS OF LOCALIZATION. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *9*(12), 70-75.

30. Abdullayevich, A. O., & Abdullajanovich, U. T. Ibrogimov Sherzodbek Halimjon ogli.(2021). In *Development of small business and private entrepreneurship in Uzbekistan. Conference Zone* (pp. 123-128).

31. Abdullayevich, A. O., & Abdullajanovich, U. T. (2021, December). DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IN UZBEKISTAN. In *Conference Zone* (pp. 123-128).

32. Xolmirzayev, A. X. (2021). RISK FACTORS AND UNCERTAINTIES IN THE ECONOMY. *Мировая наука*, (2), 24-27.

33. Юлдашев, К. М., & Холмирзаев, А. Х. (2019). Осуществление реализации механизма частного партнерства в Узбекистане. *Молодой ученый*, (51), 435-437.

34. Roxatalievich, S. B., Xakimovich, A. R., Mamadjanovic, Y. K., Xapizovich, H. A., & Bulturbayevich, M. B. (2020). The Results Of The Assessment Of The Investment Potential Of The Regions Of The Republic Of Uzbekistan. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, *7*(3), 4428-4437.

35. Ишимбаев, Р. Н., & Холмирзаев, А. Х. (2021). ЦИФРОВИЗАЦИЯ МАЛОГО И СРЕДНЕГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ. *Экономика и социум*, (7), 304-307.

36. Холмирзаев, А. Х., & Ишимбаев, Р. Н. (2021). СУЩНОСТЬ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МАЛОГО БИЗНЕСА И ВАЖНОСТЬ РАЗВИТИЯ. *Экономика и социум*, (7), 520-526.

37. Kholmirzaev, A. K. (2021). Criteria and directions of development of small business activities. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, *11*(6), 730-735.

38. Yuldashev, Q. M., Tursunov, N. N., & Kholmirzaev, A. X. (2020). Analysis of small business and private entrepreneurship in the development of the economy of the republic of Uzbekistan. *South Asian Journal of Marketing & Management Research*, *10*(8), 60-67.

39. Abdullayevich, A. O. (2022). OPPORTUNITIES FOR SUSTAINABILITY OF SMALL BUSINESS ENTERPRISES ON THE BASIS OF IMPROVING THE BUSINESS ENVIRONMENT IN UZBEKISTAN.

INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, *11*, 83-87.

40. Abdullayevich, A. O. (2022). THE DEVELOPMENT OF MANAGEMENT SCIENCE IN THE ANCIENT WORLD. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, *16*(4), 33-39.

41. Арипов, О. А. (2012). Ўзбекистонда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни давлат томонидан тартибга солиш. *Т.: Фан*, *272*.

42. Арипов, О. А. (2015). Современное развитие малого бизнеса и частного предпринимательства в Узбекистане. *Молодой ученый*, (22), 332-334.

43. Sirojiddinov, I. Q., & Abdumalik o’g’li, M. M. (2022, June). SIGNS AND APPEARANCE OF ECONOMIC HELPLESSNESS. In *Conference Zone* (pp. 8-14).

44. Tursunpulatovna, N. N. (2022). THEORETICAL ANALYSIS OF THE CONTENT AND CHARACTERISTICS OF MARKET COMPETITION. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, *16*(4), 79-85.

45. Tursunpolatovna, N. N. (2022). NEED AND DUTIES OF ACCOUNTING IN BUSINESS ENTITIES. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, *16*(11), 8-12.

EKSKURSIYA XIZMATLARINI SHAKLLANTIRISHDA EKSKURSOVODNING O‘RNI

Jabbarova Latofat Tulkinjonovna
K.Behzod nomidagi MRDI Muzeyshunoslik kafedrasi o‘qituvchisi
Irgasheva Sojida G‘olib qizi
K.Behzod nomidagi MRDI San’atshunoslik va muzeyshunoslik fakulteti 2-kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7604538

Annotatsiya: Mazkur maqolada ekskursovodlik kasbining shakllanish tarixi, ekskursiya xizmatlarini shakllantirishda ekskursovodlarning o‘rni kabi masalalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ekskursovod, ekspozitsiya, ekskursiya, turizm, obyekt, yodgorlik, eksponat, galereya

Аннотация: В данной статье освещены такие вопросы, как история профессии экскурсовода, роль экскурсоводов в становлении экскурсионной службы.

Ключевые слова: тур, экспозиция, экскурсия, туризм, объект, памятник, экспонат, галерея

Annotation: This article highlights such issues as the history of the profession of a guide, the role of guides in the formation of a tour service.

Key words: tour, exposition, excursion, tourism, object, monument, exhibit, gallery.

Muzeylashtirilgan turizm obyekti sifatida ekspozitsiyaga qo‘yilgan tarixiy yodgorliklarning estetik va badiiy mazmunini tez ilg‘ab olish qiyin. Shuning uchun ushbu maskanlarda san’at va tarixni xalq o‘rtasida tushuntirib beruvchi tarjimon vazifasini bajaruvchi shaxslar ya’ni ekskursovodlarning o‘rni muhimdir. Ekskursovodlarning paydo bo‘lish tarixi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Dastlab antik ibodatxonalarda maxsus xizmatchilar tomoshabinlarga u yoki bu diniy ashyolar haqida hikoya qilib berishgan. Uyg‘onish davriga kelib esa yuqori tabaqali kishilar va aslzoda qiziquvchilarga galereya yoki kabinet to‘plamlari bilan egalarining o‘zlari tanishtirganlar. Ushbu tomoshabinlar bilan ishlash an’anasi yopiq to‘plamlardan to ommaviy muzeylarga aylangan maorif davrigacha yetib keldi hamda ekskursiya va ekskursovod atamalari vujudga keldi.

Turizm bevosita turli ekskursiya xizmatlari bilan bog‘liq. Chunki, sayohatchi sayohat qiladigan joyi haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lishni istaydi. Ekskursiya xizmatida asosiy rolni ekskursovod o‘ynaydi. Ya’ni, ekskursovod ekskursant,

turistlarga sayohat qildiradigan joyi to‘g‘risida aniq, yetarlicha ma’lumot bera olishi kerak. Ekskursiya - lotincha “sayohat” so‘zidan olingan bo‘lib, sayohatchini qamrab olgan muhit haqida ma’lum bir mavzuga yo‘naltirilgan ma’lumotni olishga qaratilgan bo‘lib, turistlarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda o‘rganilayotgan hududning yuksak ma’naviyat, madaniyati xususida ma’lumot beradi. Ekskursiyalar turiga ko‘ra keng qamrovli va birgina mavzuga yo‘nalgan bo‘ladi.

1963-yili Rimda Halqaro turizm va sayohat masalalariga bag‘ishlangan konferensiyada rasmiy turistik tashkilotlarning xalqaro kengashi sayohat qilish maqsadida tashrif buyurgan shaxslarni “turist” va “ekskursant” atamasi bilan yuritish taklifini kiritdi. Bu taklif 1967-yili BMTning halqaro sayohat byurosining bir guruh ekspertlari tomonidan ma’qullanib, 1968-yildan muomalaga kiritildi [3:9]. Muzey va tarixiy shaharlarda tashkil etilgan ekskursiyalar tomoshabin eksponatni badiiy his qilishida asosiy vosita sanalib, yorqin, hayotiy va lo‘nda bayon etilgan ekskursovod ma’ruzasi faqatgina eksponatlar bilan tanishtiruv emas, balki g‘oyaviy-tarbiyaviy ahamiyatga ega hisoblanadi. Zero, tarixiy yodgorliklar namunalaridan ekspozitsiya yaratilganda tomoshabin estetik his qilish orqali faqatgina shakliy go‘zallikni emas, balki ayni paytda shakl bilan birga falsafiy mohiyatini ham idrok etadilar. “Ekspozitsiya” lotincha “expositio” so‘zidan olingan bo‘lib, “expono” tomosha uchun ko‘rsatmoq, terib qo‘yish, “sitio” ro‘yxatga olish, bayon etish ma’nolarini anglatadi. Ekspozitsiya deb tomosha qilish uchun badiiy-estetik sifatlar umumlashtirib joylashtirilgan barcha predmetlarga aytish mumkin. Lekin, muzeylashtirilgan tarixiy-madaniy meros obyektlarining ekspozitsiyasi o‘ziga xos xususiyatga ega. Uning asosini turli xil predmetlar emas, balki aniq badiiy-estetik belgilar va xususiyatlarga ega bo‘lgan muzey predmetlari tashkil etadi.

Zamonaviy tasavvurlarga qo‘shilgan holda yodgorliklarning muzeylashtirilgan ekspozitsiyasi — bu maqsadga yo‘naltirilgan va ilmiy asoslangan ko‘chmas muzey eksponatlarining namoyishi bo‘lib, ular kompozitsion tashkillashtirilib, sharhlar bilan ta’minlangan, texnik va badiiy jihozlanib, umumiy obyektning o‘ziga xos xususiyatini yaratuvchi ijtimoiy ko‘rinishini tashkil etadi.

Turistlar uchun tarixiy shaharlarda olib borilgan ekskursiyalar mazmun mohiyati bilan mavjud materiallarni umumlashtirgan holda estetik anglash asosiy faoliyat turlaridan biri sanaladi. Ekskursiyalarda yodgorliklarni estetik anglash estetik jarayonni tashkil etishi barobarida estetik munosabatni yuzaga keltiradi va ongning ana shu faoliyati nafosatni shakllantiradi [1:94]. Obyektlarni idrok etishda va yangi estetik qadriyatlarni yaratishda ekskursiya quyidagi turlarga bo‘lingan holda olib boriladi:

1.Keng qamrovli ekskursiyalar juda ko‘p ma’lumotni o‘ziga olib, bir qancha ekskursiya obyektlarini (tarix va madaniyat yodgorliklari, sanoat va qishloq xo‘jaligi

tashkilotlari) qamrab oladi. Keng qamrovli ekskursiyalar ma’lum hudud yoki mamlakat to‘g‘risida atroflicha ma’lumot beradi.

2.Tematik ekskursiyalar aniq belgilangan mavzuni ochib berishga xizmat qiladi. Ular quyidagicha:

- tarixiy (tarixiy-o‘lkashunoslik, arxeologik, etnografik);

- harbiy-tarixiy (xalq qahramonlari bilan bog‘liq, jang voqealari bo‘lib o‘tgan joylar, memorial muzeylar);

-tabiatshunoslik (geografik, geologik, gidrogeologik, landshaft, botanik, noyob tabiat yodgorliklari to‘g‘risidagi ekskursiyalar);

-san’atshunoslik (teatr, tarixiy - musiqaviy, mahobatli haykaltaroshlik asarlarini ko‘rsatib beruvchi tarixiy muzeylar, muzeylar, rassom va haykaltaroshlarning ustaxonalari, ko‘rgazma zallari, artist va rassomlarning hayoti bilan bog‘liq joylar), shuningdek, adabiy va me’moriy-shaharsozlik to‘g‘risidagi mavzuli ekskursiyalar shular jumlasidandir.

Ekskursantlarning tuzilishiga qarab ekskursiyalar katta yoshdagi auditoriya, maktab yoshidagi bolalar, mahalliy aholi, turistlar, maxsus guruhlar, yakka tartibdagi tomoshabinlar va horijliklar uchun tashkil etiladi [2:52].

Ushbu ekskursiyalar klassifikatsiyasi yordamida aniq tanlangan ekskursiyalarni tashkil etish va o‘tkazilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ekskursiyani tashkil etishda ekskursantlar yoshiga qarab ilmiylik, haqiqat, nazariya bilan amaliyotning bog‘liqligi kabi masalalar nazarda tutiladi va ekskursiyani tashkil etishda quyidagi bosqichlardan o‘tiladi: mavzuni aniq tanlash, ekskursiyaning maqsad va vazifalarini belgilash, ekskursiya obyektlarini o‘rganish, ekskursiya matnini, texnologik kartasini tuzish hamda olib boriladigan ekskursiyani tasdiqlatish. Buning uchun ekskursiyaning mavzu, maqsad va vazifalarini belgilash – maxsus ekskursiya xizmatiga talabgorning qiziqishidan amalga oshiriladi ya’ni ekskursiyaning asosiy barcha maqsadlari to‘la qonli jamlangan tarzda tanlanadi. Ekskursiya obyekti – bunda biror bir davrning turli qirralarini, jamiyat rivojlanishini, ilm, madaniyat, texnika, tabiat sohalarini yorituvchi asos hisoblanadi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, ekskursiya obyektlarini estetik anglash estetik faoliyat jarayonida o‘zining doimiy ulushiga ega bo‘lib, madaniy turizm holatlarida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. А.Шер, Б.Ҳусанов, Э.Умаров. Эстетика. Услубий қўлланма. Тошкент 2008. 94 б.

2. М.Орлов. Крупные туристические центры. Москва. Стройиздат. 1983. с 52.

3. Н.Тухлиев, А.Таксанов. Экономика большого туризма. Национальная энциклопедия Узбекистана. Т.: 2001. 319 б.

DRAMATIK ASARNING LINGVISTIK EKSPERTIZASI
LINGUISTIC EXAMINATION OF A DRAMATIC WORK

Suvonov Zavqiddin
Termiz davlat universiteti dotsenti v.b. PhD
https://doi.org/10.5281/zenodo.7617476

Annotatsiya: Maqola badiiy matndagi bahsli matnlarni sud-lingvistik ekspertizasini amalga oshirish va tadqiq qilish san’at darajasida – ba’zi tajribali va malakali mutaxassislarning mahorati va lingvistik tekshiruv ishlari, ko‘pincha, ekspert muassasalari devoridan tashqarida amalga oshirilishi xususida.

Abstract: The article is about the implementation and research of forensic-linguistic examination of controversial texts in artistic texts at the level of art - the skills of some experienced and qualified specialists, and the linguistic examination is often carried out outside the walls of expert institutions.

Tayanch so‘z va iboralar: badiiy matn, lingvistik ekspertiza, dramatik asar, bahsli matn.

Basic words and phrases: artistic text, linguistic expertise, dramatic work, argumentative text.

Ishda badiiy matnni lingvistik ekspertizadan o‘tkazishning asosiy tushunchalari va dramatik asar haqiqatining badiiy evolyusiyasi masala sifatida o‘rganiladi. Jarayonda turkiy xalqlarda necha asrlardan buyon orzu qilingan ozodlik tuyg‘usi qalblarni charog‘on etgan bo‘lsa-da, lekin insoniy muammolardan hanuzgacha xoli bo‘lolganimiz yo‘q. Xo‘sh, bugungi erkin inson o‘z hurligini dunyoga ruju qo‘yib yashash deb biladimi yo xalqining kamoloti yo‘lida sarf qilishda deb biladimi, degan azaliy muammolar adabiyot va san’at jabhasida ham qator vazifalarni qalashtirayotgani aniq. Bunda irqiy yoki milliy adovatni qo‘zg‘atish, ustunlik yoki pastlikni targ‘ib qilish bilan bog‘liq irqiy, milliy adovatni qo‘zg‘atishni oqlaganlik, inson sha’ni, qadr-qimmatini kamsitish, ishchanlik obro‘sini tushirish va haqorat qilish hamda tahdidlar bilan bog‘liq muammolar bo‘yicha matnlarning lingvistik algoritmini tekshirishni ham e’tibordan chetda qoldirmaslik lozim.

Zamonaviy va tarixiy voqelikda tuhmat orqali qo‘zg‘atilgan jinoiy ishlarni tergov qilish amaliyoti, terrorchilik faoliyatiga ommaviy chaqiriqlar yoki terrorizmni ochiq oqlash masalasi ham ob’ekt ichiga kiradi. Ekstremistik faoliyat bilan bog‘liq ommaviy chaqiriqlar nafrat yoki adovatni qo‘zg‘atish, inson qadr-qimmatini kamsitish holatlarida natsizmni (milliy) reabilitatsiya qilish holatlari va hokimiyat vakilini haqorat qilish hamda ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ish yuritish lingvistik ekspertiza muammolari markazida turibdi. Xalq va mulozimlarning sha’ni,

qadr-qimmati va ishchanlik obro‘sini himoya qilish bo‘yicha da’volar soni ortayotgani ham bunga turtki bo‘layapti. Bunga o‘xshash muammolarning ko‘pligi ob’ektiv ravishda ularni hal qilish uchun maxsus lingvistik bilimlar va kategoriyalarni jalb qilishni talab qildi. Qoidaga ko‘ra, bunda sud-lingvistik ekspertiza davlat yoki nodavlat ekspertiza muassasasiga yoki shaxsiy ekspertga, ya’ni ushbu soha bilimiga ega bo‘lgan shaxsga tayinlanadi.

Ma’lumki, milliy adabiyotimiz sathida haq gapni aytish badiiy ijodning oddiy talabiga aylanib qoldi. Bugun adabiyot zarur gapni, dolzarb muammoni odamning taqdiriga bog‘lab, ta’sirli yo‘sinda ifodalash kerakligiga odatlanib bormoqda. Milliy dramaturgiyada esa hanuzgacha zarur gapni yalang‘och yo‘sinda, keskin tarzda aytish fazilat sanab kelinmoqda. Har bir alohida odamda bo‘lgani kabi har bir millatning va har bir davrning ham o‘z mo‘ljallari, egallanishi orzu qilinadigan marralari bo‘ladi. Bunda badiiy matnning lingvistik ekspertizasiga ehtiyoj bor. Bu qaysidir ma’noda, oxirgi yillarda sud nutqi ekspertizasi sinfiga kiruvchi sud-lingvistik ekspertizasining mustaqil turi sifatida shakllandi. U maxsus lingvistik bilimlarni jalb qilmasdan og‘zaki yoki yozma nutq orqali sodir etilgan huquqbuzarlik holatini aniqlash mumkin bo‘lmagan yoki qiyin bo‘lgan holatlar toifalari uchun majburiy bo‘lgan imtihonlar guruhiga o‘tdi. Bunga badiiy adabiyotdagi protatip muammosi bilan bog‘liq masalalar ham ko‘p topiladi.

Taassufki, badiiy matndagi bahsli matnlarni sud-lingvistik ekspertizasini amalga oshirish va tadqiq qilish san’at darajasida – ba’zi tajribali va malakali mutaxassislarning mahorati zarur. Lingvistik tekshiruv ishlari, ko‘pincha, ekspert muassasalari devoridan tashqarida amalga oshirildi hamda oshirib kelinmoqda. Shu bilan birga, ko‘plab nufuzli filolog olimlar har doim ham o‘zlarining faoliyat doirasini aniq tushunishmagan. Misol tariqasida, bular filologiya fakultetlari, pedagogika oliy o‘quv yurtlari o‘qituvchilari, ekspert muassasalari aloqasi bo‘lmagan shaxslar, muayyan ish bo‘yicha *sud-tibbiyot* eksperti lavozimiga tayinlangan va yo‘l-yo‘lakay bajarilgan. Shu sabab jarayonda o‘zbek amaliy tilshunosligida badiiy matnning lingvistik ekspertizasi ko‘p muammolarga echim sifatida maydonga chiqdi. Ko‘pincha ular nazariy kashfiyotchi sifatida ilmiy tadqiqotlar va amaliy ekspert faoliyatining vazifalarini sud-tibbiy dalillar uchun ahamiyatga ega bo‘lgan faktlarni aniqlash uchun aralashtirib kelishmoqda. Professional mutaxassis bo‘lmagan filologlarning xulosalarida, ko‘pincha, tasdiqlanmagan versiyalar, taxminlar, farazlar ilmiy muhokama uchun maqbul bo‘lishi mumkin bo‘lgan. Ammo ekspert xulosasi sifatida mos kelmaydigan sub’ektiv fikrlar mavjud. Ishonchliligi ilmiy tasdiqlashni talab qiladigan tekshirilmagan lingvistik usullardan ham foydalanib kelingan. Natijada bunday xulosalar sud qarorlarida ijobiy baholanmadi yoki sudlar tomonidan umuman dalil sifatida qabul qilinmadi ham.

Badiiy matnni lingvistik tekshirish keyingi davr o‘zbek adabiyoti misolida, xususan turkiy xalqli millatlar uchun inson ma’naviyati qirralarini tekshirish, odam ruhiyatidagi ko‘z ilg‘amas puchmoqlarni tadqiq etishga erishish va provakatsion nutqlardan etnik kamsitishlarni ilg‘ash bilan bog‘liq muammolar ham kun tartibiga chiqmoqda.

Sohada yangi yo‘nalish bo‘lgan badiiy matnning lingvistik ekspertizasi amaldagi protsessual qonun hujjatlari talablariga muvofiq sud-lingvistik ekspertizasini ishlab chiqishning ijtimoiy tartibi yuqoridagi toifalardagi ishlarni qonun doirasida ko‘rib chiqish uchun professional ekspert va lingvistik mutaxassis yordamiga ehtiyoj sezyapti. Bunda nafaqat badiiy adabiyot, balki uning iste’molchisi xalq, yuridik shaxslar, balki ommaviy axborot vositalari va internet-nashrlarni qamrab olgan bunday ma’lumot va hujjatlar hamda nizolari sonining butun O‘zbekiston bo‘ylab eksponent ravishda o‘sib borishi sababli, ekspertizadan o‘tkazish ob’ektiv ravishda zarur. Bunda san’atni yagona, ilmiy asoslangan usullar va betakror lingvistik texnologiyalar bo‘yicha amalga oshiriladigan yaxshi tashkil etilgan texnologik jarayon darajasiga ko‘tarish ham muhim. Shu nuqtai nazardan, badiiy matnning lingvistik ekspertizasiga ehtiyoj bor. Bu masala ilgari “tekstologik”, “filologik”, “stilistik”, “semasiologik” ekspertizalar va boshqa nomlar bilan qo‘llanilgan. Ammo nutq faoliyati mahsulotlari bilan bog‘liq turli ekspert vazifalarini hal qilishda sud amaliyotda borgan sari bu ehtiyoj o‘rganilishiga talab ortib boryapti. Shuning uchun ekspert amaliyotida “lingvistik ekspertiza” atamasi mustahkamlangan.

Dramaturglarning faoliyati tanqidchilarning ham e’tiborini tortgan va tortib kelyapti ham. Tadqiqotchi Baxtiyor Yaqubovning “Umuminsoniy g‘oyalar talqini Usmon Azim dramaturgiyasiga nazar”[3] maqolasi mustaqillik davri, xususan, Usmon Azim dramalarining poetik xususiyatlarini ochib berishga qaratilgan. Ushbu maqolada shoirning “Kunduzsiz kechalar” (Cho‘lponning hayotiy faoliyati haqida gap boradi), “Tong otgan taraflarda” pesalari xususida so‘z boradi. Tadqiqotchi badiiy matnni tekshirib, quyidagicha mulohaza yuritadi. Birinchi pesada Cho‘lpon hayotining so‘nggi kunlari tasvirlanishi, ikkinchisida esa, xalq dostonlariga xos an’anaviylik aks etganligini aytadi. Tadqiqotchi “Kunduzsiz kechalar” pesasi tahliliga kirishar ekan, maqolaning kirish qismiga keng urg‘u beradi. Hatto pesasi tahliliga kelguncha 500 dan ziyodroq so‘zni ishlatadi va so‘ng asar tahliliga kirishadi. “Tong otgan taraflarda” pesasi tahliliga esa bir abzasgina joy ajratadi. Tadqiqotchi ushbu asarlar tahlili jarayonida muallifning biriga tarixiy, ikkinchisiga folklorshunoslik nuqtai nazaridan yondashganligini va zo‘rma-zo‘rakilik bilan ikki asar tahlilini bir maqolaga jo qilishga uringan hamda asarni nazariy asoslamaydi. Nazariy asossiz hamda e’tirozlarsiz tadqiqot muallifga madhiya tarzida taassurot qoldiradi kishida.

[3] Шарқ юлдузи. 2017 йил, 1 сон

Yana Baxtiyor Yaqubovning “Dramaturgiyada milliy qadriyatlar talqini” [4] maqolasida jarayondagi teatrlarda o‘ynalayotgan dramalar, xususan, Xoliq Xursandovning “O‘lding – aziz bo‘lding” komediyasi haqida fikr yuritiladi. Asar qahramoni Mavlon cholning xotini Oydona va do‘sti Avazlarni chaqirib bir xiyla bilan farzandlari umrining so‘nggi bir kunida nima qilishini kuzatishga qaror qiladi va o‘z tenggi “bir to‘da yollanma go‘yandalar” ekanligini biladi. Ota farzandlarini eldan kam qilmay o‘stiradi. Aslida ota bu “ehtirom”ga loyiq emasdi. Bu komediya Respublikamizning turli teatrlarida turli nom va turli talqinlarda qo‘yiladi va Baxtiyor Yoqubov bularni analogik tahlil etadi. Asarni mohir sinchi ko‘zi bilan ko‘rgan tadqiqotchi bu safar muvaffaqiyatli sharhlaydi va tahlil qiladi.

Miraziz A’zamning “Qadr” kinodramasi “Sharq yulduzi” jurnalining 2016 yil 4-sonida bosilib chiqdi. Ishtirok etgan qahramonlar Ahadulla, Azimbek, Omonlar otasi Botir akaning vafoti bilan taziyadagi holat aks ettirilgan. Tohira Azimbekning xotini ham asar motivida o‘ziga xoslik kasb etadi. yozuvchi Jumaniyoz Jabborovning “Uyqusiz kecha” 2 pardali drama bo‘lib, asar qahramonlari: Akbar ota va uning qizlari Mohira, Tohira, Shoira; kuyovlari Adham, Bahrom, Botir kabilar ishtirok etadi. Dramadagi muammo maishiy turmushdagi meros bilan bog‘liq[5]. Bu asarni ham lingvistik ekspertiza qilish, davr adabiy jarayonini o‘rganishga, tekshirishga manda vazifasini o‘taydi.

Taniqli shoir Iqbol Mirzoning “Samarqand sayqali” dramasi bir parda sakkiz ko‘rinishli drama[6] bo‘lib, asarda Alisher Navoiy, Abu Lays Samarqandiy, Ahmad Hojibek, Sohib Siddiq, Davlatshoh Samarqandiy, Mir Qarshiy, Mavlano Riyoziy, YUsuf Safoiy, Xiromiy Qalandar, Sayyid Qutb Samarqandiy, Mirzobek, Sharpa, qiz, Feruza kabi qahramonlar qatnashadi. Samarqand hazrati Iqbol Mirzo talqinida o‘ziga xos sayqal topgan. Usmon Qo‘chqorning “Imom Buxoriy” dramasi tarixiy she’riy drama. Ishtirokchilar: Buxoriy, Xartangiy, Termiziy, G‘olib Jabroyil, Ibnus Subkiy, qalandarlar, Muhtasib, Varqo kabi tarixiy shaxsiy va to‘qima shaxslar orqali voqealar rivoji keskin tus oladi va baribir, dramada ezgu ish va amallar zafar qozonadi[7].

Muhammad Alining “Hindiston malikasi” dramasi “Ramayana” eposi motivlari asosida, prolog va epilogli tarixiy drama bo‘lib, 4 parda, 11 ko‘rinishlidir[8]. Ushbu drama qadimiy hind eposi “Ramayana” ohanglari ta’sirining mevasi. “Ramayana” jahon adabiyotida o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra alohida o‘rin tutadigan asar. “Ramayana” eposida inson kuchli mavjudot hatto ilohlar, najotkori sifatida qaralgan. “Hindiston malikasi” dramasi insonga madhiya, burch, sadoqat va lafz sha’niga aytilgan qasidadek taassurot qoldiradi kishida.

[4] Шарқ юлдузи. 2017 йил, 5 сон.
[5] Шарқ юлдузи, 2010 йил, 1 сон
[6] Шарқ юлдузи, 2016. 3-сон
[7] Шарқ юлдузи, 2015 йил, 2-сон.
[8] Шарқ юлдузи, 2017 йил 7-8-9-сон

Usmon Qo‘chqor “Imom Buxoriy” tarixiy-she’riy dramasi qahramonlari tarixiy shaxslar bo‘lib, Buxoriy, Xartangiy, Termiziy, G‘olib Jabroyil, Ibnus Subkiy, qalandarlar, Muhtasib, Varqo kabi obrazlar tasvirning haqiqatga yaqinligini ko‘rsatadi[9]. Ibn Xallikan o‘zining “Vafayotul a’yon” kitobida ta’kidlashicha, Imom Buxoriy ozg‘in, uzun ham va qisqa ham bo‘lmaganlar, ya’ni o‘rta bo‘yli bo‘lganlar, deydi. Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy yoshlik vaqtlarida ko‘zlari ojiz bo‘lib qolishi haqidagi tasvirlar ham bor. Bir kuni onalari tushlarida Ibrohim alayhissalomni ko‘rishi, uning Ibrohim alayhissalom onalariga: “Sening ko‘p duo qilganing va yig‘ilaringdan keyin Alloh taolo bolangning ko‘zini qaytarib berdi”, – deydilar. Tong otgandan keyin, qarasalar Alloh bolalarining ko‘z nurini qaytarib bergan ekan. Hadis ilmini o‘rganishlari va yodlash qobiliyati va zehni beriladi. Imom Buxoriy maktabda o‘n yoshlik vaqtlarida hadis yodlashga qunt bilan kirishdilar. Asarda buyuk muhaddisning hayoti va ezgu ishlari beqiyos tasvirlangan. Bu asar ham badiiy matnni tekshirish uchun manda bo‘la oladi.

Nurillo Abbosxonning “Go‘zal dunyo zulmati”, “Bog‘”, “Salom yoki xayr”, “Aziz”, “Kulgusini yo‘qotgan boylar”, “Quriyotgan daraxt”, “O‘zbekcha raqs”, “Burch”, “Tanho yulduzim”, “Ezgulik yo‘li” (SH.Rizaev bilan hammualliflikda), “Jaydari kelin”, “istiqlol poezdi”, “onamlarga salom ayting”, “Baxtli bo‘linglar”, “Super musofir” singari dramatik asarlari jamiyatning turli muammolariga bag‘ishlangan bo‘lib, maishiy turmushdagi ba’zi vaziyatlarga ham echim vazifasini o‘tagan. Dramaturgning “O‘zgalar dardi” nomli to‘qqiz ko‘rinishli dramasi[10] ham o‘zining ijtimoiy dardni ifoda etishi bilan ahamiyatli. Dramada ko‘tarilgan muammo maishiy turmush haqidadek taassurot qoldiradi kishida. Zahro, Ruzvon, Zafar, Shokir, Charos, Umid kabi obrazlar orqali muallif maqsadiga erishgandek. Asarda turmushimizda ko‘pda duch keladigan qaynona-kelin, er-xotin, yaqin dugonalarning va ona-o‘g‘ilning bar-biriga munosabatiga keng urg‘u beriladi. Har qanday vaziyatda xiyla-nayrangning ish bermasligi, adovat va xasislikning illat ekani ko‘rsatiladi. Insonning jamiyatdagi o‘rni bilan oiladigi o‘zini tutishi bir-biriga mosligi haqida gap boradi. Asar tahlili jarayoni lingvistik jihatdan ekspertiza qilinishga muhtoj. Chunki bunda o‘ziga xos tilshunos nuqtai nazari muhim.

Xullas, dramatik asar bo‘y cho‘zgan haqiqatining poetik evolyusiyasi, lingvistik ekspertizaning vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu tekshirishlar orqali mustaqillik davri adabiyoti sog‘lom tamoyillar asosida rivojlanayotganiga guvoh bo‘lasiz. Hozir yozilayotgan turli janrlardagi asarlarda zamondoshlar ruhiyatini tasvirlashning eng ta’sirchan usullarini kashf etishga jiddiy e’tibor qaratilyapti.

Badiiy matn tahlilining barcha bosqichlarida ekspertiza jarayonining ishtirokchilari uchun yagona tadqiqot usullariga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda.

[9] Шарқ юлдузи. 2015 йил. 2-сон.
[10] Ўзбек драматургияси уфқлари. Пьесалар, - Тошкент: “Adabiyot” нашриёти, 2020. - Б. 158

Badiiy matn ekspertizasida umumiy talablarning yo‘qligi da’vogarlar va javobgarlarning ekspert baholaridan norozi bo‘lishiga olib keladi. Buning natijasida ko‘plab tekshiruv jarayonlari kechiktiriladi va keyinga qoldiriladi. Shu sababli, konfliktli nutqiy vaziyatlarga ham lingvistik, ham huquqiy baho berishni tozartiradigan badiiy matnning lingvistik ekspertizasi tragik asar haqiqatining badiiy evolyusiyasi muhim. Shundan kelib chiqib bu muammo doirasida umumiy tamoyillar va o‘ziga xos metodologiyani ishlab chiqishga jamoatchilik ehtiyoji mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ярощук И.А. Лингвистическая экспертиза: учебное пособие / И.А. Ярощук, Н.А. Жукова, Н.И. Долженко. – Белгород: ИД «БелГУ» НИУ «БелГУ», 2020. – С. 10. (96 с).

2. Кубрякова Е. С. Об одном фрагменте концептуального анализа слова ПАМЯТЬ // Логический анализ языка. Культурные концепты. М., 1991. С. 85.

3. Болдырев Н. Н. Когнитивная семантика: Курс лекций по английской филологии. Изд. 3-е, стереотипное. Тамбов: Изд-во Тамбов. ун-та, 2002. С. 60.

4. Шарқ юлдузи, 1991 йил 9-10-11-сонлар.

5. Шарқ юлдузи, 1991 йил 10-сон.

6. Шарқ юлдузи. 2017 йил, 1 сон.

8. https://mover.uz/watch/Kj8QryDm/

GIPRID ENERGIYA OLISH TEXNALOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH HAMDA SAMARALI ISHLASH USULLARINI TAKLIF ETISH

Xurmatillo Izzatillayev, Nurmirza Abduhalilov, Sodiqjon G’ofurov
Namangan muhandislik-texnalogiya inistituti
https://doi.org/10.5281/zenodo.7627472

Annotatsiya: Ushbu maqola quyosh issiqlik energiyasini elektr energiyasiga aylantrishning yuqori samaradorlikka erishishning dolzarb muommolarini yechishda gibrid energetik qurilmalari imkoniyatlarini muhokama qilishga bag’ishlangan.
Kaliy so’zlar: simulyatsiya, fototermal, fotokonvertor, konsentratsiya, selektiv.

IMPROVING HYBRID ENERGY TECHNOLOGIES AND PROVIDING EFFICIENT OPERATING METHODS

Khurmatillo Izzatillaev, Nurmirza Abduhalilov, Gofurov Sodiqjon
Namangan Institute of Engineering and Technology

Annotation: This article is devoted to the discussion of the possibilities of hybrid energy devices in solving the current problems of high efficiency of converting solar thermal energy into electricity.
Keywords: simulation, photothermal, photoconverter, concentration, selective.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ГИБРИДНЫХ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ И ОБЕСПЕЧЕНИЕ ЭФФЕКТИВНЫХ МЕТОДОВ ЭКСПЛУАТАЦИИ

Хурматилло Иззатиллаев, Нурмирза Абдухалилов, Содикжон Гофуров
Наманганский инженерно-технологический институт

Аннотация: Данная статья посвящена обсуждению возможностей гибридных энергетических устройств в решении актуальных задач высокой эффективности преобразования солнечной тепловой энергии в электрическую.
Ключевые слова: моделирование, фототермический, фотопреобразователь, концентрация, селективность.

Hozirgi kunda insoniyat hayotida energiyaga bo’lgan talab kun sari oshib bormoqda. Shu o’rinda quyosh energiyasini elektr va issiqlik energiyasiga

o’tkazishda dunyoni nufuzli olimlari bir qator ishlar olib borishmoqda. Bizda ham shu energiyadan samarali foydalanish usullarini o’rganish maqsadida, gbrid energetik qurulmalarini samaradorligini oshirish maqsadida, Elektr va issiqlik energiyasini ishlab chiqarish uchun elementlarni birlashtirgan kogeneratsion quyosh qurilmalari asosidagi usul alohida qiziqish uyg'otadi.

Issiqlik energiyasini eng samarali ishlab chiqarish uchun issiqlik yo'qotishlarini kamaytirish kerak, bu qabul qiluvchi maydonni qisqartirish va kontsentratorlar yordamida quyosh nurlanishining intensivligini oshirish orqali ko’rish mumkin. Shuning uchun, ko'plab kombinatsiyalangan quyosh qurilmalari mavjud va uning CSE tarkibi.


Statsionar quyosh kontsentratorlari bo'lgan fotovoltaik modullar uchun ikki tomonlama quyosh batareyalari quyosh energiyasini bir vaqtning o'zida elektr va issiqlik energiyasiga aylantirish imkoniyatini beradi.

Fotovoltaik kogeneratsiya tizimi uchun spektral diagrammalar olib taxlil qilish hamda kremniy fotoelementida elektron-teshik juftlarini shakllantirishda ishtirok etmaydigan va issiqlikka aylanadigan quyosh nurlanishining ma’lum bir kafisenti muhim qiymat ekanligini aniqlash lozim bo’ladi.

Fotoelementlarni sovutish va foydali issiqlik energiyasini elektr energiyasi bilan birgalikda olishning texnologik jihatdan ilg'or va oddiy usuli Fototermal modulni birlashtirishda ko’rib chiqilgan. Fotokonvertor panelidan issiqlikni olib tashlash uchun yuqori asınma qarshilik, ishonchlilik, mexanik va ekspluatatsion xususiyatlarga ega, shuningdek, arzon narxlardagi uyali polikarbonat plitalari ishlatiladi.

Fototermal modulni birlashtirish foydalanish qulayligi va soddaligiga e'tibor qaratadi, ammo yo'q texnologiyani quyosh energiyasi kontsentratsiyasi bo'lgan qurilmalarda qo'llash ko'rib chiqiladi.

Fototermal modulni birlashtirishga qo'shimcha ravishda, o'rnatishning energiya samaradorligini oshirish uchun fotokonvertorlar va quyosh kollektorlarini birlashtirish bir necha bor taklif qilingan. Bu ishda ko’plab adabiyotlarda keltirilgan maslan namuna sifatida rasmga etibor qarataylik. **rasmda ko'rsatilgan ilgari simulyatsiya qilingan dizayn sxemasiga mos keladi.** [1-rasm]



1-rasm. Konsentratsiyalash moduli Fresnel linzalari 1, fotoelektrik konvertor 2 va sovutish trubkasi 3 dan iborat.

Yorug'lik nuqtasining kichik o'lchami va quyosh radiatsiyasining haddan tashqari yuqori oqimi zichligi tufayli fotoselning linzalarning fokusidagi joylashuvi amaliy emas. Fotoelementdan linzaning fokus tekisligigacha bo'lgan masofaning ta'sirini aniqlash uchun matematik model bo'yicha raqamli hisoblar o'tkazildi. Nurlanishning nominal intensivligi yorug'lik nuqtasining diametri tanlangan fotoselning yon tomoniga teng bo'lgan holatga to'g'ri keldi. Ko'rib chiqilayotgan holatda, tomoni 10 mm bo'lgan fotoelement simulyatsiya qilingan. Quyosh batareyalarini sovutish muammosini hal qilish va qo'shimcha ravishda issiqlik energiyasini olish imkonini beradi.

Tizim sanoat tomonidan ishlab chiqarilgan mavjud elementlarga qurilgan. Quyosh energiyasining konsentratsiyasi va quyoshga yo'naltirish tizimidan foydalanmaydi. Shuni xisobga olib biz o’z ishimizda kuqosh kallektorlarini turubalarini shaklan uzgartirish hmada bularga kelib tushayotgan quyosh nurlarini sindirish effektlaridan samarali foydalanish usullarini ko’rib chiqish dolzarb deb qaradik.

Universal quyosh elektr stantsiyasi konsentrlangan quyosh energiyasini issiqlik va elektr energiyasiga birgalikda aylantirish uchun qurilmani fotoelementlar yordamida boyitib ularni takomillashtirish maqsadga muvofiq deb qarsh mumkin. Ta'riflangan qurilma konsentrator, fotodetektordan iborat va spektrning infraqizil qismini issiqlik energiyasiga aylantirish va uni suyuq issiqlik tashuvchisiga o'tkazish uchun mo'ljallangan spektral selektiv sovutish materiali mexanizimiga qushimcha elektr energiyasiga aylanishi mutanosib bo’ladi deb qaralmoqda.

Selektiv material konsentrlangan yorug'lik oqimining yo'lida joylashgan. Shunday qilib, spektrning infraqizil qismi quyosh nuri fotokonvertorga tushishidan oldin ham issiqlik energiyasiga aylanadi. Bu fotoselning harorat rejimini yaxshilaydi.

Kontsentratsiyaning silindrsimon sxemasini o’rniga burchak simon sixema taklif qilindi, bu konsentrlangan quyosh nurlanishining intensivligining kichik qiymatlariga erishish imkonini beradi.

Silindrsimon kontsentratordan foydalanish tufayli fotoelementning yoritilishi bir xil emas va fotoelement oldidagi termal konvertorning joylashishi nafaqat infraqizil nurning foydali yutilishiga olib keladi.

Konsentrlangan quyosh energiyasi oqimi quyosh batareyasining haroratini sezilarli darajada oshiradi. Quyosh batareyasining harorat rejimini o'rganish, uni konsentrlangan quyosh nurlari oqimi bilan isitishning notekisligini hisobga olgan holda konsentratordan issiqlik oqimini simulyatsiya qilish amalga oshirildi va bir xil va bir xil bo'lmagan yoritish uchun fotoelementlar haroratining koordinatalarga

bog'liqligi ko'rsatiladi. Haroratning ko'ndalang koordinataga sezilarli bog'liqligi borligi ta'kidlandi, bu esa samaradorlikni sezilarli darajada yo'qotishiga olib kelishi mumkin.

Konsentratsion elektr stansiyalarida sovutish muammosidan tashqari, quyoshga yo'naltirish muammosini hal qilishning oddiy va samarali echimini ishlab chiqish kerak ekanligini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1]. П.А.Бородовский, А.Ф.Булдыгин, А.С.Токарев Определение времени жизни неосновных носителей заряда в слитках кремния по релаксации фотопроводимости, измеренной на сверхвысоких частотах. // Физика и техника полупроводниках. - 2004, - т. 38, - № 9. С. 1043-1049.

[2]. С.Зайнобидинов, А.О.Курбанов Кластеры атомов примеси никеля и их влияние на рекомбинационные свойства кремния. // Вестник МГТУ им. Н.Э.Баумана. Сер. Естественные науки. Россия, - 2019. - № 2. С.81-93. DOI: 10.18698/1812-3368-2019-2-81-93.

[3]. Т.Пагава Исследование рекомбинационных центров в облученных кристаллах p-Si. // Физика и техника полупроводниках. - 2004, - т. 38, - № 6. С.665-669.

[4]. Ussama A.I. Elani The effective carrier lifetime measurement in silicon: the conductive modulation method. // Journal of King Saud university. - 2010, - V.22. pp. 9-13.

[5]. Kuchkarov, B., Mamatkarimov, O., Abdulkhayev, A. (2020). ICECAE IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science 614 012027 “Influence of the ultrasonic irradiation on characteristic of the structures metal-glass-semiconductor”, Paper ID 116.

[6]. Qo’chqarov, B. X., Nishonov, A., Qochqarov, X. O., (2020). Scientific bulletin of Namangan State University, “The effect of tunneling gurrent on the spedd surface generation of charge garries”, 1(7), 3-6.

[7]. Vlasov, S. I., Nazirov, D. N., Kuchkarov, B. K., Bobokhujayev, K. U., (2014). Influence of all-round compression on formation of the mobile charg in Iead-borosilicate qlass structure. “Uzbekiston Fizika Zhurnali”, 3(16), 231-233.

[8]. Kuchkarov, B. Kh., Mamatkarimov, O. O., (2019). Influence of ultrasonic action on the rate of charge formation of the inversion layer in metal-glass-semiconductor structures. “Vestnik KRAUNC. Fiziko-Matematicheskie Nauki”, 4(29), 125-134.

[9]. Vlasov, S. I., Ovsyannikov, A. V., Ismailov, B. K., Kuchkarov, B. H. (2012). Effect of pressure on the properties of Al-SiO_2-n-Si<Ni> structures. “Semiconductor Physics Quantum Electronics & Optoelectronics”, 2(15), 166-169.

УЛУЧШЕНИЕ КАЧЕСТВА ЭЛЕКТРОЭНЕРГИИ В ВОПРОСАХ ЭНЕРГОСБЕРЕЖЕНИЯ. МОДЕЛИРОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ ИСКАЖАЮЩИХ ВОЗДЕЙСТВИЙ

Бахромов Боходиржон Мирзаабдулла ўғли
Ассистент кафедры электроэнергетики Наманганский инженерно-технологический институт
E-mail: bahromov9686@mail.ru
Шамшитдинов Мақсудбек Элмурод ўғли
Ассистент кафедры электроэнергетики Наманганский инженерно-технологический институт
E-mail: maqsud8868@gmail.com
Ғофуров Содиқжон Тўхтасин ўғли
Студент Наманганского инженерно-технологического института
E-mail: gofurovsodiqjon439@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.7627474

ELECTRIC POWER QUALITY IMPROVEMENT IN THE MATTER OF POWER SAVING. MODELING OF DISTORTING EFFECTS INGLUENCE

Bahromov Bohodirjon Mirzaabdulla o’g’li
Assistant of the Department of Electricity Engineering Namangan Institute of Engineering and Technology
Shamshitdinov Maqsudbek Elmurod o’g’li
Assistant of the Department of Electricity Engineering Namangan Institute of Engineering and Technology
G’ofurovSodiqjon To’xtasin o’g’li
Student of Namangan Institute of Engineering and Technology

Аннотация: Дан пример моделирования влияния на питающую сеть тиристорного выпрямителя в системе схематического моделирования Design-PSpice. Произведен выбор параметров фильтрокомпенсирующих устройств, улучшивших качество электроэнергии за счет снижения коэффициента искажения формы кривой.

ABSTRACT: An example of an influence’s modeling on a supply main of thyristor rectifier in the system of schema modeling Design-PSpice is given in the article. There is made a parameter selection of filter compensating devices that improved an electric power quality by decrease of a waveform distortion factor.

Ключевые слова: качество электроэнергии; несинусоидальность напряжения; гармонические составляющие; моделирование.

Keywords: electric power quality; voltage nonsinusoidality; sinusoidal components; modeling.

Дополнительные нагрузочные потери мощности и электроэнергии в распределительной сети 10—0,4 кВ и оборудовании возникают в результате плохого качества электроэнергии. С 1 января 2013 года введен в действие стандарт ГОСТ Р 54149-2010, который устанавливает показатели и нормы качества электрической энергии в точках передачи электрической энергии пользователям сетей низкого, среднего и высокого напряжений систем электроснабжения общего назначения переменного тока частотой 50 Гц.

Работа посвящена вопросам улучшения качества электроэнергии в части высших гармонических составляющих, вызывающих искажение синусоидальной формы кривой напряжения [6, с. 7].

Гармонические составляющие напряжения обусловлены, как правило, нелинейными нагрузками пользователей электрических сетей, подключаемыми к электрическим сетям различного напряжения [2, с. 7].

Несинусоидальность напряжения, характеризуется коэффициентом искажения синусоидальности кривой напряжения k_u и коэффициентом n-ой гармонической составляющей напряжения $k_{u(n)}$.

Известно, что наибольшее влияние на форму напряжения оказывают нечетные гармоники: 5, 7, 11, а также нечетные гармоники кратные трем. Наибольший ущерб от несинусоидальности напряжения определяется дополнительными активными потерями в электроаппаратах и старением их изоляции в результате повышенного нагрева.

Наиболее массовым источником помех, влияющих на качество электроэнергии, являются силовые полупроводниковые преобразователи газоразрядные лампы и магнитные усилители.

Чтобы анализировать вопросы электромагнитной совместимости преобразователей с питающей сетью на этапе проектирования, или иметь возможность улучшать качество электроэнергии в процессе эксплуатации, следует предусматривать средства, обеспечивающие соответствие качества электроэнергии стандартным требованиям. Для решения этой задачи целесообразно применять компьютерные методы расчета электрических схем.

Для анализа схем силовых полупроводниковых преобразователей были использованы [1, с. 17] три программы из комплекта системы Design: Schematics — графический редактор, предназначенный для ввода исходных данных в виде принципиальной схемы электронного устройства и управления

двумя другими программами; PSpice модуль моделирования, предназначенный для анализа схемы электронного устройства и вывода результатов анализа в текстовой форме; Probe — графический постпроцессор, предназначенный для вывода и обработки результатов анализа в графической форме. К пакету системы Design прилагаются библиотеки графических символов и математических моделей компонентов, которые также используются при моделировании преобразователей.

Рассмотрим пример моделирования влияния на питающую сеть тиристорного выпрямителя, выполненного в системе схематического моделирования Design-PSpice [8, с. 116] по трехфазной мостовой схеме с целью выбора параметров фильтрокомпенсирующих устройств (ФКУ).

Функциональная схема модели, созданная в среде программы Schematics, показана на рисунке 1.




Рисунок 1. Функциональная схема модели для анализа влияния на питающую сет ь тирист орного выпрямителя, выполненного по трехфазной мост овой схеме

Условные обозначения: ALFHA — угол управления, градусы; T_puls — длительность импульса управления; FREQ — частота, Гц; Ls — индуктивность сети, мГн; Lk — индуктивность рассеяния трансформатора, мГн; TENS — действующее значение фазного напряжения источника питания, В; K — коэффициент трансформации.

Параметры схемы выбраны таким образом, чтобы обеспечить существенное искажение формы кривой питающего напряжения сети (коэффициент искажения синусоидальности кривой напряжения U (La:2) — 22,7 %), если не применять ФКУ (рисунок 2).




Рисунок 2. Эпюры кривых тока и напряжения сети без ФКУ

ФКУ на рисунке 1 исполнено в виде иерархического символа — блока ФКУ, функциональная схема блока ФКУ показана на рисунке 3.




Рисунок 3. Функциональная схема блока ФКУ

В данном случае модель ФКУ представляет собой шесть графических символов трехфазной схемы ФКУ, соединенных параллельно [3, с. 86], [5, с. 123], настроенных на пятую, седьмую, одиннадцатую, тринадцатую гармоники (F1—F4 — соответственно). Форма кривых тока и напряжения сети для схемы, показанной на рисунке 1, при подключенном ФКУ приведена на рисунке 4.




Рисунок 4. Эпюры кривых т ока и напряжения сет и при подключенном ФКУ

В результате применения ФКУ выполняются требования [1] по несинусоидальности напряжения сети (коэффициент искажения синусоидальности кривой напряжения U (La:2) — 4,87 %) и обеспечивается значение коэффициента сдвига основной гармоники тока относительно основной гармоники напряжения на входе преобразователя равное единице.

Вывод: При наличии отклонения показателей качества электроэнергии по коэффициентам k_u и $k_{u(n)}$, использование данной модели позволяет подобрать требуемые параметры фильтрокомпенсирующих установок, использование которых способствует снижению потерь электроэнергии на предприятии.

Список литературы:

1. Валиуллина З., Зинин Ю. Схемотехническое моделирование силовых дросселей для тиристорных преобразователей повышенной частоты //Силовая электроника. 2007. — № 1.

2. ГОСТ Р 54149-2010 «Электрическая энергия. Совместимость технических средств электромагнитная. Нормы качества электрической энергии в системах электроснабжения общего назначения».

3. Разевиг В.Д. Система схемотехнического моделирования MICRO-CAP V M.: Солон. 1997.

4. Самарский А.А., Михайлов А.П. Математическое моделирование: Идеи. Методы. Примеры. М.: Физматлит, 2001. — 320 с.

5. Kuchkarov, B., Mamatkarimov, O., Abdulkhayev, A. (2020). ICECAE IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science 614 012027 “Influence of the ultrasonic irradiation on characteristic of the structures metal-glass-semiconductor”, Paper ID 116.

6. Qo’chqarov, B. X., Nishonov, A., Qochqarov, X. O., (2020). Scientific

bulletin of Namangan State University, “The effect of tunneling gurrent on the spedd surface generation of charge garries”, 1(7), 3-6.

7. Vlasov, S. I., Nazirov, D. N., Kuchkarov, B. K., Bobokhujayev, K. U., (2014). Influence of all-round compression on formation of the mobile charg in Iead-borosilicate qlass structure. “Uzbekiston Fizika Zhurnali”, 3(16), 231-233.

8. Kuchkarov, B. Kh., O. O., Mamatkarimov, (2019). Influence of ultrasonic action on the rate of charge formation of the inversion layer in metal-glass-semiconductor structures. “Vestnik KRAUNC. Fiziko-Matematicheskie Nauki”, 4(29), 125-134.

9. Vlasov, S. I., Ovsyannikov, A. V., Ismailov, B. K., Kuchkarov, B. H. (2012). Effect of pressure on the properties of Al-SiO_2-n-Si<Ni> structures. “Semiconductor Physics Quantum Electronics & Optoelectronics”, 2(15), 166-169.

QUYOSH ISSIQLIK NASOS STANSIYALARIDAN FOYDALANISH

Behzod Kuchkarov Xoshimjanovich
Namangan muhandislik-texnologiya instituti
Energetika kafedra mudiri, **(***PhD)* dotsent
Fazliddinov Saloxiddin Baxriddinovich
Namangan muhandislik-texnologiya instituti assistenti
Ergashev Murodjon A’zamjon o‘g‘li
Namangan muhandislik-texnologiya institute talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7630010

Annotatsiya. Energiya sarfi uchun eng maqbul yechim qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish hisoblanadi. Quyosh resursi so‘ngi o‘n yillikdan beri bir nechta tadqiqotlarda eng keng tarqalgan resurs sifatida hisobga olinadi.
Kalit so’zlar: Kollektr, Quyosh issiqlik elektr stansiyalar, bug’qozon, issiqlik tashuvchi tizimlar, katta quyosh pechi, quyosh elektr stansiya, bug’ turbinasi, yonuvchi slanets.

USE OF SOLAR HEAT PUMP STATIONS

Abstract. The most optimal solution for energy consumption is the use of renewable energy sources. Solar resource has been considered as the most common resource in several studies since last decade.
Keywords: Collector, Solar thermal power plants, steam boiler, heat transfer systems, large solar furnace, solar power plant, steam turbine, burning shale

Hozirgi vaqtda haroratnig global isib borishi va parnik effekti Yer yuzi kelajagi uchun eng katta xavf hisoblanadi. Energiya sarfi uchun eng maqbul yechim qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish hisoblanadi. Quyosh resursi so‘ngi o‘n yillikdan beri bir nechta tadqiqotlarda eng keng tarqalgan resurs sifatida hisobga olingan. Parabola-sillindirik kollektor texnalogiyasi yuqori haroratlarda (300-400º C) yuqori samaradorlikda qo‘llaniladi. Xususan, Quyosh issiqlik elektr stansiyalarni (QIES) qurishda loyihalarning ko‘pchiligi ushbu turdagi kollektorlarga qaratilgan. Hozirda parabola - sillindirik QESlarni yana ko‘plab qurish rejalashtirilgan. AQSH, Ispaniya va Yaqin Sharq mamlakatlarida bu boradagi ishlar ancha jadal amalga oshirilib kelinmoqda. Shu sababdan biz ham loyihamizga shunday kollektorlarni tanlab oldik. Ular quyosh maydoni, quyosh nuri qabul qilguvchlar (kollektor), issiqlik tarmog’i, bug’qozoni, bug’ turbinasi va nasos qurilmalarini o‘z ichiga oladi.

Quyoshdan yer yuziga yiliga $62 \cdot 10^{16}$ kVt soatga teng energiya keladi. Bu energiyaning 60 % yer atmosferasi, 25,5 % okean va dengiz, 14,5 % quruqlikni isitishga sarf bo‘ladi. Bundan 2,5 % shamolning mexanik energiyasiga, 0,14 % daryolar harakatining mexanik energiyasiga, 0,12 % turli xil yoqilg‘i: o‘tin, torf, toshko‘mir, neft va yonuvchi slanetsning kimyoviy energiyasiga aylanadi. Yerning ko‘ndalang qismi yuzasi $127,6 \cdot 10^6$ km^2 ekanligini e’tiborga olsak, yerga tushadigan quyosh nurining energiyasi $176,6 \cdot 10^{12}$ kVtga to‘g’ri keladi. Quyosh energiyasidan foydalanishni 2 xil usuli mavjud bo‘lib ular:

1. Quyosh fotoelektrik energiyasidan foydalanish.
2. Quyosh issiqlik energiyasidan foydalanish.

Ilk parabola-sillindrik kollektorlar ishlab chiqaruvchi zavodlarda issiqlik saqlash tizimi qo‘llanilmagan bo‘lsada, bugungi kunda issiqlik saqlash tizimi muhim hisoblanadi. O‘tkinchi ta’sirlarni kamaytirish uchun qazib olinadigan yoqilg‘ining gibridlanishiga ruxsat beriladi Shubhasiz, keyingi parabolo-sillindrik qurilmalar issiqlik saqlash tizimlarini o‘z ichiga oladi[4].

Moy haroratini minimal diapazondan yuqoriroq saqlash uchun qazib olinadigan yoqilg‘ining gibridlanishi odatda yog‘ isitgichi tomonidan amalga oshiriladi.

Tungi va uzoq vaqt davomida quyoshsiz vaqtlarda ishlaydigan yana bir tizim-bu qozonxonada yoqiladigan organik yoqilg‘i turbina qismlari uchun bug’ hosil qiladi. Quyosh issqlik energiyasidan foydalanayotganda odatdagi issiqlik tashuvchi tizimlar (ITT) energiya aylanishi va quyosh maydoni o‘rtasidagi energiya tashuvchi sifatida odatda moy ishlatiladi. Qayd etiladigi, Markaziy Osiyo quyosh radiatsiyasi nuqtai nazaridan potensiali yuqori joy hisoblanadi. Ushbu o‘ziga xos hududda O‘zbekiston quyosh issiqlik energiyasini olishga judda qullay joy hisoblanadi.

Qayd etish joizki, dunyoda faqat ikki mamlakatda mavjud bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Materiallshunoslik institutiga qarashli KATTA QUYOSH PECHI (KQP) Toshkent viloyati Parkent tumanida joylashgan maxsus ilmiy inshoot hisoblanadi. Cheksiz energiya manbayi hisoblangan quyosh energiyasidan foydananish texnologiyasi va shu turdagi texnologik inshootlarni qurish tarixidagi katta yangiliklardan biri hisoblanadigan ushbu Katta quyosh pechi Materiallshunoslik instituti tadqiqotlarida va ilmiy jarayonlarida qo‘llanadi. Qurilmaning umumiy quvvati 1000 kVt ega, qattiq jismlarni sintezlash jarajonlari va quyosh nuri orqali qizdirish va ishlov berish ishlari olib boriladi.

Ushbu loyihada amalga oshiriladigan model: issiqlik nasoslarini nominal quvvatda ishlashi faqat quyosh energiyasidan foydalanishi nazarda tutilgan. Energiyani saqlash tizimi ushbu tadqiqotga kiritilganligi sababli, dizayn nuqtai nazaridan o‘rtacha quyosh nurlanishiga ega bo‘lgan kunlar orasida tanlanishi kerak. Quyoshli davrlarda saqlash uchun qo‘shimcha olingan issiqlik energiyasini keltirib chiqaradi.

Keyinchalik, kollektorlar soni va uzunligi optimalashtiriladi va har yili maydoning issiqlik ko‘rsatkichlari tahlil qilandi. Massa oqimi, olingan quyosh energiyasi va kollektorlar samaradorligi bir nechta quyoshli oylarda hisoblab chiqiladigan quyosh maydonining uchta asosiy xususiyatidir. Oxir-oqibat, nasos stansiyasining ish vaqtini yaxshilash uchun issiqlik saqlash tizimi(ikkita eritilgan tuz) hisobga olinadi.

“Quyosh issiqlik nasos stansiyalari” atamasi quyosh nurlarini birinchi navbatda issiqlikka aylantiradigan stansiyalarini o‘z ichiga oladi. Olingan issiqlik energiyasi keyinchalik nasos porshenlariga yuborilib suv chiqaziladi. Termodinamik sabablarga ko‘ra maksimal samaraga erishish uchun yuqori harorat talab qilinadi. Bunday yuqori haroratga kollektorga tushayotgan quyosh radiatsiyasining energiya oqimining zichligini oshirish orqali erishiladi. Shu sabab konsentratsiyalangan nurlanish yoki konsentratsion kollektrolarni ishlatamiz. Shu bilan bir qatorda, umimiy tizimni texnik-iqtisodiy optimalashtirish kerak.

Quyosh issiqlik nasos stansiyalarini ishlab chiqarish jarayoni asosan quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:


-Parabola-sillindrik kollektorlar yordamida quyosh nurlarini to‘plash.

-Radiatsiya oqimi intensivligini oshirish.

-Qabul qiluvchida issiqlik energiyasini hosil qilish.

-Issiqlik energiyasini nasos poreshenlariga yuborish orqali mexanik energiyaga aylantirish,

-Mexanik energiya orqali suvni yer qa’ridan olib iste’molchiga jo‘natish.



Quyosh issiqlik nasos stansiyasining sxemasi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Renewable energy: technology,economics and environment (Autumn Semester, 2010) http://www.cs.kumamoto u.ac.jp/epslab/APSF/

2.BMT Iqlim o‘zgarishlari bo‘yicha doiraviy Konvensiyasi https://xs.uz/uz/post/iqlim-ozgarishining-oldini-olish-uchun-nimalar-qilish-kerak

3.PQ-2954-сон 04.05.2017. https://lex.uz/docs/-3193347

4.Design of a 25MWe Solar Thermal Power Plant in Iran with Using Parabolic Trough Collectors and a Two-Tank Molten Salt Storage System. Received 4 May 2017; Revised 4 August 2017; Accepted 22 August 2017; Published 22 November 2017.

5.A Review On Parabolic Solar Concentrator Trough And Parabolic Solar Concentrator Dish Hussein N. Jabbar Imam Ja’afer Al-Sadiq University, Baghdad, Iraq.

6.People’s Republic of China: Concentrating Solar Thermal Power Development (Financed by the Climate Change Fund). Capacity Development Technical Assistance (CDTA) January 2012

7.A direct steam generation solar power plant with integrated thermal storage Jürgen Birnbaum1, Markus Eck2, Markus Fichtner1, Tobias Hirsch2, Dorothea Lehmann2, Gerhard Zimmermann

8. Combined solar thermal and ground source heat pump system Farzin M. Rad, Alan S. Fung, Wey H. Leong Dept. of Mechanical and Industrial Engineering, Ryerson University 350 Victoria Street, Toronto, Ontario, Canada, M5B 2K3.

9.Manual making of a parabolic solar collector Gang Xiao Laboratoire J.A. Dieudonné Université de Nice Nice, France.

10.Mathematical models of air-cooled condensers for thermoelectric units S. Bracco1, O. Caligaris2 & A. Trucco1 1 Department of Machinery, Energy Systems and Transportation, Genoa University, Italy 2 Department of Production Engineering, Thermoenergetics and Mathematical Models, Genoa University, Italy.

OLIY TA`LIM TIZIMINI BOSHQARISHDA SAMARALI QAROR QABUL QILISH SAN’ATI
THE ART OF EFFECTIVE DECISION MAKING IN THE MANAGEMENT OF THE HIGHER EDUCATION SYSTEM

Samiyeva Shaxnoz Xikmatovna
Buxoro muhandislik–texnologiya instituti
pedagogika fanlari nomzodi dotsent
Narzulloyeva Feruza Fatulloyevna
Buxoro muhandislik–texnologiya instituti mustaqil tadqoqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta’lim muassasalaridagi boshqaruv ularni tashkiliy iqtisodiy mexanizmlari haqidagi tushunchalar, qarorlar qabul qilishdagi kamchiliklar ularni bartaraf etish haqida ma’lumotlar keltirib o’tilgan. Pedagogik tizim doirasida qaror qabul qilish bu faoliyatning markaziy nuqtasi ekanligi, unda tanlangan maqsad o’z aksini topgan bo’ladishi zarur ekanligi bayon etilgan.

Annotation. This article presents information about the concepts of organizational economic mechanisms of Management in educational institutions, their shortcomings in decision-making about their elimination. Within the framework of the pedagogical system, it is stated that decision-making is the central point of this activity, in which it is necessary that the chosen goal is reflected.

Kalit so’zlar. Boshqaruv, qarorlar, pedagogik tizim,boshqaruv qarori, qonuniylik, optimallilik.

Keywords. Management, decisions,pedagogical system, management decision, legality, optimism.

Boshqaruv qarorlari muayyan ishlab chiqarish holatini tahlil qilishdan kelib chiqishi, iqtisodiy, texnikaviy va boshqa ijtimoiy qonunlarning amal qilishini hisobga olishi, hozirgi zamon fan-texnika yutuqlari negizida qabul qilinishi lo’nda va aniq bo’lishi, Ilmiy asoslangan bo’lishi lozim. Bir-biri bilan aloqador va muayyan vazifani hal etishda ko’pincha asosiy masalalardan kelib chiqadigan qo’shimcha vazifalarni yakdil hal echishga to’g’ri keladi. Bu vazifalar qaror qabul qilinayotgan bosh vazifaga bo’ysundirilishi lozim. Barcha qaror, ko’rsatma, qoidalar bir-biri bilan bog’lanadi. Shuningdek, ular oldindan qabul qilingan va amaldagi qarorlar bilan muvofiqlashtiriladi. Ba’zi tadqiqotchilar muammolarni hal qilish va qaror qabul qilish jarayonlari o’xshashliklarga ega; shuning uchun bu g’oyalar birgalikda ishlatilishi kerak degan fikrni bildiradilar.

Ayni paytda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim

tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da: “oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatining uzviy bog‘liqligini nazarda tutuvchi “Universitet 3.0” konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish” shu bilan birga “xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish, pullik xizmatlar ko‘lamini kengaytirish va boshqa budjetdan tashqari mablag‘lar hisobiga oliy ta’lim muassasalarida texnopark, forsayt, texnologiyalar transferi, startap, akselerator markazlarini tashkil etish hamda ularni tegishli tarmoq, soha va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tadqiq qiluvchi va prognozlashtiruvchi ilmiy-amaliy muassasalar darajasiga olib chiqish” kabi ustuvor vazifalarning qo‘yilishi OTM boshqaruv tizimini shakllantirish va to‘xtovsiz takomillashtirishning nazariy asoslarini tadqiq etish dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda.


Respublikamizda oliy ta’lim muassasalarida boshqaruv va boshqaruv tizimining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi tushunchalariga aniqlik kiritish faqat nazariy ahamiyat kasb etmasdan, mazkur faoliyat yo‘nalishlarining amaliy asoslarini rivojlantirishda ham muayyan darajada xizmat qiladi.

Biz har kuni qaror qabul qilishga majbur bo’lamiz. Ammo oddiy yechimlar ham ko’pincha biz xohlaganchalik oson bo’lmaydi. Bizning qat’iyatsizligimiz "noto’g’ri" qarorni qabul qilishimiz mumkin degan xavotirdan kelib chiqqan qo’rquvdan kelib chiqadi. Biz xavotirga tushayapmiz, chunki bizga aniqlik, yaxshiroq natijalar va ishimiz isboti kerak, to’g’ri qarorlarni qabul qilishni o’rganish uchun siz ko’pincha "to’g’ri" qarorlar mavjud emasligini tushunishingiz kerak bo`lib, faqat eng to’g’ri qaror har doim bizni to’g’ri yo’nalishda olg’a suradigan qarordir.

Boshqaruv qarori − boshqariladigan tizimni funktsionallashtirishning ob'ektiv qonunlarini bilish va uning holati to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qilish asosida yuzaga kelgan muammoni samarali hal qilish uchun jamoa faoliyati dasturini belgilaydigan boshqaruv sub'ektining ijodiy harakati, ya'ni, u bu rahbar egallab turgan lavozimi tufayli majburiyatlarni bajarish uchun tanlashi kerak bo'lgan tanlovdir.

Boshqa mashhurlar fikriga ko’ra, qaror qabul qilish va muammolarni hal qilish butunlay boshqacha muammoni echishga yo’naltirilgan va amaliy harakatlarga yo’naltirilgan tadqiqotchilar bu tushunchalarni va ularning o’zaro bog’liqligini boshqacha qabul qiladilar (1-rasm).





1-rasm. Qaror qabul qilish.

DECIDE (Qarorlar) uchta konsepsiya bosqichidan iborat:

- muammoni aniqlash,
- atrof-muhitni o’rganish,
- maqsad bayonotini yaratish.

Ko’pgina mualliflar bizning ongimizda ishlaydigan ikkita alohida tizim mavjudligini taklif qilishadi:

- biri mantiqiy;
- ikkinchisi esa tajribaga asoslangan fikrlar.

Favqulodda vaziyatlarda, **PS** (problem solution) bosqichlarini tartibli o’tish orqali barcha muammolarni hal qilish uchun ko’pincha vaqt yo’q. Shunday qilib, **PS** jarayonini tanlash to’g’ri harakat yo’nalishi bo’lishi mumkin. Muammodan chiqishning yana bir yaxshi yo’li Iskandar Zulqarnayn tomonidan misol qilib keltirildi. Gordian galstugini hech qanday muammoni hal qiluvchi, hech qanday algoritm orqali birlashtira olmadi. Iskandar hatto tugunni yechishga urinmay, balki kesib tashlashni tanladi.

Qaror qabul qilish - to’qnashuvi shaxsning ma’lum bir harakat yo’nalishini qabul qilish va rad etishga qaratilgan qarama-qarshi tendensiyalarini anglatadi. Agar ziddiyat bo’lmasa, alternativalar orasida hech qanday qaror yoki tanlov qilish kerak emas - odam odatdagidek qiladigan ishni davom ettiradi. Eng asosiy darajada, har qanday qaror odatdagidek qilish o’rtasidagi tanlovdir.Agar odamning odatdagi ishlarida muammo bo’lmasa, unda hech qanday ziddiyat yo’q va hech qanday qaror qabul qilish kerak emas.

Suboptimal qaror qabul qilish - Odamlar har doim ham maqbul qarorlar qabul qilavermaydi. Odamlar har doim ham dunyoviy yangiliklarga hushyorlik bilan yoki optimal tarzda yondashishmaydi. Odamlar o’zlarining har bir qarorini optimallashtirishga qodir emasligini taxmin qilish mumkin. Qarorning natijasi unga sarflangan aqliy resurslarga arziydi. Shunday qilib, aksariyat hollarda natijani optimallashtirmaslik maqbuldir.

Har qanday qaror aniq va to’g’ri yo’nalishga ega bo’lishi kerak va bajaruvchiga tushunarli bo’lishi lozim. Qarordan bir necha ma’no kelib chiqishiga va uni turlicha talqin qilish yoki tushunishga yo’l qo’ymaslik kerak. Bundan tashqari qarorlar vaqt bo’yicha qisqa bo’lishi kerak. Axborotlar bilan ishlash vaqti tejash maqsadida qisqa muddatli qarorlar bo’lishi lozim.

Har qanday qarorning bajarilish muddati aniq ko’rsatilishi kerak. Aks holda uning bajarilishini ob’ektiv nazorat qilish imkoniyatiga ega bo’linmaydi.

Tezkor bo’lishi kerak va har qanday qaror o’z vaqtida, ya’ni ishlab chiqarishdagi vaziyat talab qilgan vaqtning o’zida qabul qilinishi zarur. Kechikib yoki shoshqaloqlik bilan qabul qilingan qarorning har ikkisi ham zararlidir.

Samarali bo’lishi lozim bo’lgan qabul qilingan qarorning samaraliligi deganda - qo’yilgan maqsadga eng kam harajat bilan erishish tushuniladi. Ma’lumki, qaror qabul qilish zaruriyati mavjud, amaldagi holatning muammoni hal etish uchun talab etiladigan holatga mos tushmasligi natijasida yuzaga keladi. Ana shu erning o’zida muammo kelib chiqadi. Boshqaruv qarorlari bir qancha unsurlardan tashkil topadi: Boshqaruv qarorlarining tasnifi, Guruhlash belgilari va turlaridan iborat. **Boshqaruv qarorlari turlari quyidagilar:**

1. Amal qilish davriga ko’ra - strategik qarorlar - taktik qarorlar.

2. Mazmuni va amal qilish xususiyatiga ko’ra- ijtimoiy-iqtisodiy qarorlar - texnikaviy qarorlar - stereotip qarorlar - tashabbusli qarorlar

3. Takrorlanish yoki yangilik darajasiga ko’ra an’anaviy qarorlar - tavsiyali qarorlar

4. Axborot bilan ta’minlanganlik darajasiga ko’ra - aniq qarorlar - noaniq qarorlar

5. Amal qilish xususiyatiga ko’ra - vaqtinchalik qarorlar - operativ (tezkor) qarorlar- muntazam qarorlar.- vaqti-vaqti bilan qabul qilinadigan qarorlar

6. Qarorni qabul qilish shakliga ko’ra - yakkaboshlik printsipi asosida qabul qilingan qarorlar - kollegiallik asosida qabul qilingan qarorlar- konsensus printsipi asosida qabul qilingan qarorlar - "Ringi" usuli asosida qabul qilingan qarorlar

Pedagogik jarayonni boshqarishda tezkor qaror qabul qilish talab etiladi. Negaki vaziyat omili o’z ta’sir darajasiga egadir. Shu sababli, qarorga ayrim talablar qo’yiladi. Bular:

• Qaror ilmiy asoslangan bo’lishi lozim. Tezislar bir-biri bilan aloqador va yakdil bo’lishi kerak.

• Huquq va javobgarlik doirasida bo’lishi lozim.

• Aniq yo’nalishga ega bo’lishi kerak.

• Vaqt bo’yicha qisqa va aniq bo’lishi kerak.

• Tezkor bo’lishi kerak.

• Pedagogik faoliyat manfaatlarini himoyalashga qaratilgan bo’lishi kerak.

• Mavjud resurslarni inobatga olgan bo’lishi kerak. O’quv, o’quv - uslubiy, ma’naviy - ma’rifiy va tashkiliy vazifalarni qamrab olgan bo’lishi kerak.

Pedagogik tizim doirasida qaror qabul qilish – bu faoliyatning markaziy nuqtasi hisoblanadi. Unda tanlangan maqsad o’z aksini topgan bo’ladi. Shu sababli, qaror qabul qilish jarayoni fikrlash jarayoni bo’lib, u oldindan maqsadni va harakatlarni amalga oshirish uslubini anglashni, makon va vaqt, vaziyat va mas’uliyatni his etishni taqozo etadi. Nazariy jihatdan, jarayon tarzida qaror qabul qilishga nisbatan uchta yondashuvni ajratish mumkin:

1.Intuitiv yondashuv (bunda qaror his –tuyg’ular asosida qabul qilinadi, “tarafdorlar” va “qarshilar” tahlil qilinmaydi. Ma’lumki, odamning intuitsiyasi tajribani egallash bilan birgalikda rivojlanadi.

Turli kishilarda bu sezgi turlicha darajada ifodalanadi. Ma’lumotlar dalolat berishicha, to’g’ri qaror qabul qilishda bu yondashuvning imkoniyatlari katta emas. Qaror qabul qilishda odam o’z intuitsiyasini boshqa yondashuvlar bilan birgalikda mustahkamlab borishi kerak);

2. Dalillarga asoslangan tarzda yondashish (bu bilimlarga va to’plangan tajribaga asoslangan qaror tanlovidir. Bunday qarorlar mantiqan olganda sust, lekin bu yondashuvning afzalligi uning tezligi va alternativalarni tanlashning kam sarfliligidadir. Bilim va tajribadan foydalanib, sog’lom fikrga asoslanib, odam oldin o’xshash vaziyatlarda ko’proq muvaffaqiyat keltirgan variantni tanlaydi. Agar odamning oldingi tajribasida o’xshash vaziyat bo’lmagan bo’lsa, bu yondashuv odatda natija bermaydi);

3. Ratsional yondashish (u oldingi tajribaga bog’liq emas va tahliliy asoslangan qaror. Ma’lum bir muammoning ratsional echimini topish quyidagi bosqichlarni bosib o’tadi:

- muammoning diagnostikasi; qaror qabul qilish uchun cheklanganliklarni va mezonlarni ifodalash;

- alternativalarni topish; ternativalarni baholash; oxirgi (yakuniy) tanlov).

Shu bois, qaror qabul qilishda vaziyatni (holatni) diagnostikasini, prognozini amalga oshirish talab etiladi. Buning uchun aniq o’lchov birligiga ega bo’lgan usullardan vosita sifatida foydalanish talab etiladi. Masalan: jamoaviy munosabatlarga taaluqli bo’lgan muammoni o’rganishda Sotsiometriya, guruhiy jipslikni dagnostikasi, faoliyatdan qoniqqanlik holatini baholash testlarini qo’llash mumkin. Qaror qabul qilish. Qaror qabul qilishning bosqichlari.Boshqaruv subyektida vujudga keladigan muammoning mazmuni kelib chiqish sabablarini aniqlash. Boshqarish subyektida mavjud bo’lgan muammoni hal qilish rejasini tuzish va boshqaruv qarorlari qabul qilinadi.

Qarorda uni bajarish lozim bo’lgan xodimlarning vazifalari aniq belgilanadi hamda qarorni bajaruvchilarga topshiriqlar beriladi. Qarorda qat’iylik va egiluvchanlikka amal qilinadi.

Agar, qaror qabul qilindimi, u bajarilishi kerak, degan qoida bor. Shuning uchun ham qabul qilingan qarorni bajarilishida (ish faoliyatidami, oiladami, qattiqlik namoyon qilishi kerak. Gohida ma’lumki ba’zi hollarda qabul qilingan qarorning xatoligini payqab qolamiz. Bunday hollarda “zahiradagi variantlar” ishga tushushi orqali xatoni to’g’ilash mumkin bo’ladi.

Qarorda “cheklovchi omil “prinsipini inobatga olganligi. Bunda bir nechta al’ternativlar ichidan muhimi tanlab olinayotganda odam cheklovchi yoki hal qiluvchi omillarga e’tibor berib ularni aniq anglash kerak. Qaror qabul qilish jarayoni ko’p qirrali jarayon hisoblanib, majmuaviy yondashishni taqozo etadi. Nazariy jihatdan qaror qabul qilish jarayoni bir nechta bosqichlarda amalga oshiriladi.

Qaror qabul qilishning **birinchi bosqichi** ya’ni muammoni o’rganish-bir nechta etaplardan tashkil topadi.:

1. Muammoni yoki maqsadni aniqlashtirish.

Muammolarni hal qilish modellari ish joyida yuzaga keladigan ko'plab muammolarni hal qilish uchun ishlatiladi. Ko'p odamlar muntazam ravishda muammolarni hal qilishsa-da, echim topish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan bir qator turli xil yondashuvlar mavjud.

Jamoalar, ishchi guruhlar va direktorlar kengashlari va boshqalar uchun qiyin vazifalar muammolarni hal qilishda umumiy, hamkorlikdagi va tizimli yondashuv yordamida tezroq hal qilinadi.

2. Dastlabki muammo (maqsad)ni qo’yish.

Agar muammo (maqsad) noto’g’ri qo’yilgan bo’lsa, keyingi barcha harakatlar va xarajatlar samarasiz bo’ladi. Muammoning noto’g’ri tanlanishi.

Malakaning (ayniqsa rahbarlik malakasining)pastligi bilan, keskin kasbiy ustanovkalar bilan shuningdek, muammoning o’z vaqtida echilmasligi yoki yuqoridan majbur qilishlari bilan bog’liq bo’lishi mumkin. Bu bosqichda konkret qiyinchiliklarni, muammo tabiatini u nima uchun paydo bo’lganini anglash, muammoni yechish maqsadlarini o’ylab chiqish erishilgan maqsadlar muvaffaqiyatli mezonlarini ajratib olish, erishilishi lozim bo’lgan pirovard natijasini aniqlashtirish zarur.

3. Vakolatlarni taqsimlash

Qaror qabul qilayotgan shaxs muammolarning yechimini o’zi topa olmaydi. Shuning uchun ayrim vakolatlarni boshgqa ishtirokchilarga uzatishi ma’qul..Ular qaror qabul qilish uchun axborotni to’plashlari, muammoni qarab chiqishlari mumkin.Vakolatlarni taqsimlamaslik oqibatida barcha ishni qilishga ulgurmasdan,

stereotip va xato qarorlarlarni qabul qilishi mumkin. Vakolatni to’la taqsimlamaslik ham yaxshi samara bermaydi.

4. Zaruriy axborotni jamlash va uni tahlil qilish.

Nafaqat o’zining axborotini, balki begona axborotni xam inobatga olishi shart.

5. Muammoli vaziyatning konsepsual modelini tuzish.

Bu muammoni tushunish bo’yicha tasavvurlarni umuman ushbu muammoga nisbatan qarashlar tizimini nazarda tutadi. Bu muammoni yaxlit, konsepsual tushunishni buzilishiga olib kelishi mumkin.

6. Konkret vaziyatni asoslash va uning formallashgan modelini tuzish.

Bunday model shaxobchalik grafik yoki maqsadlar daraxti ko’rinishida bo’lishi mumkin.

Qaror qabul qilishning ikkiinchi bosqichi:

- G’oyalar ishlab chiqish –muammoningyechim yo’llarini shakllashtirishdan iborat G’oyalar ishlab chiqishning samarali metodlaridan biri “Aqliy hujum “metodi hisoblanadi.

Qaror qabul qilishning uchinchi bosqichi:

- G’oyalarni baholash –har bir g’oyaning qiymatini /ustunliklarini/ uning samaradorligini va tavakkalchilik darajasini baholashdan iborat. Har bir g’oya (tanlov)ning samaradorligini va tavakkalchiligi (risk)ni boshlangich “yechimlar daraxtini “qurish yordamida baholash mumkin. Bu daraxt mavjud al’ternativlar va ularning ehtimoliy oqibatlar sxemasidan iborat bo’ladi. Bunday sxemalarni tuzish ayniqsa izchil qaror qabul qilishda samarali bo’ladi.

Qaror qabul qilishning to’rtinchi bosqichi:

- Bu yakuniy tanlov (boshqaruvda buyruq shaklda shakllantirish va ifodalash)- bu bosqich qaror bajarilishini rejalashtirishni ta’minlab beradi. Bunda mazkur qarorni bajarish dasturi qabul qilinadi, muddati belgilanadi.

Qaror qabul qilishning beshinchi bosqichi:

- Qaytarma aloqa va qarorni tahlil etish –bunda qabul qilingan qarorni tahlil etish- ya’ni qabul qilingan qarorni amaliy bajarish nazarda tutiladi. Qabul qilingan qarorni bajarishning yakuniy bosqichida qaror natijalari tahlil qilinadi, zarur hollarda o’zgartirishlar kiritiladi. Nazorat e’sa qabul qilingan qarorni o’z vaqtida bajarishini ta’minlash maqsadida zarur bo’ladi.

Qaror qabul qilish insonning maqsadli harakati bilan bevosita bog'liq. Shaxsiy hayotda har bir kishi qaror qabul qiladi kasb tanlash, oilani tashkil qilish, dam olish, bilimlarni tarqatish ushbu qarorlarni shakllantirish va tanlash, qoida tariqasida, empirik tarzda amalga oshiriladi: mantiqiy fikrlash va sezgi orqali. Shu bilan birga, odam o’zining rasmiy faoliyati doirasida turli xil qarorlarni o'ylaydi va qabul qiladi. Bunday faoliyat mehnatni tavsiflaydi, ham shaxsan qaror qabul qiladigan, ham ishni

tashkil qiladigan rahbar muayyan qarorlarni tayyorlash va amalga oshirish bo'yicha xodimlar bilan samarali ishlashi lozim.

Qabul qilingan boshqaruv qarorlariga quyidagi **talablar** qo'yiladi.

1. Ilmiy asoslilik. Texnik, iqtisodiy, tashkiliy, ijtimoiy, siyosiy va boshqa faoliyat sohalarida mavjud bo'lgan ob'ektiv qonuniyat va qonunlarni hisobga olgan holda boshqaruv qarorlarini shakllantirish.

2. Diqqat. Har bir boshqaruv qarori tashkilotning strategik maqsadlariga qat'iy mos keladigan maqsadga ega bo'lish.

3. Miqdoriy va sifat aniqligi. Boshqaruv qarorining boshqaruv ob'ektiga ta'sir qilishi va miqdoriy yoki, miqdoriy ifodalangan ma'lum natijalarni e’lon qilishdan oldin ta'minlanishi kerak bo’lgan sifat ko'rsatkichlarida ko’rinishi.

4. Qonuniylik. Boshqaruv organlari va ayrim rahbarlarning ushbu kodeksga boshqaruv organi faoliyatining maqsadlari sifatida vakolatli va boshqaruv organiga faqat shu maxsus faoliyat bilan shug'ullanishga imkon berilishi.

5. Optimallik. Ushbu talab ehtiyojni keltirib chiqaradi har bir alohida holatda, tashkilot samaradorligining qabul qilingan mezoniga mos keladigan qaror variantini tanlash, masalan: har bir xarajat birligidan maksimal natijalarga erishishi shu bilan birga, siz boshqa faoliyat talablariga javob berishingiz kerak.

6. Qarorlarning o'z vaqtida bajarilishi. Bu, bir tomondan, boshqaruv ob'ektining rivojlanishining ushbu bosqichida turishi bilan, boshqa tomondan, buzilishlarning boshqariladigan ob'ektning faolligiga salbiy ta'sirini, shuningdek, qarorda nazarda tutilgan vaqt va ijrochilar aslida mavjud bo'lgan vaqt o'rtasidagi munosabatni to'xtatib qo'yishi mumkinligi bilan belgilanadi. Muammoni ishlab chiqish bu talab rioya qilishni ham anglatadi.

7. Murakkablilik. Tashkilot faoliyati texnika, texnologiya, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etish, moddiy va boshqa resurslarni, faoliyat natijalarini qamrab oluvchi elementlar to'plami o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'z ichiga oladi. Elementlardan birining miqdoriy va sifat jihatidan o'zgarishi, qoida va boshqalarning o'zgarishiga olib keladi.

8. Yechimning rag'batlantiruvchi funktsiyasini amalga oshirish. Samaradorlik

boshqaruv qarori ijrochining, qarorlar va uning natijalariga qiziqishi va uning rivojlanishdagi ishtiroki bilan belgilanadi.

9. Yechimning moslashuvchanligi. Yechim muayyan shartlarda qattiq bog'lanmasligi kerak. Har qanday echim ichki va tashqi holatlarning ta'siri natijasida tuzatishni talab qilishi mumkin. Shu bilan birga, uning umumiy maqsadga muvofiqligi saqlanishi kerak.

10. Yechimning to'liq dizayni. Qarorni taqdim etish shakli ijrochilarga va nazorat qiluvchi organlarga yuklatilgan vazifalarni talqin qilishda tushunmovchilik va ikkilikni istisno qilishi kerak.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, jamiyatning har qanday bo’g’ini singari oliy ta’lim tizimida ham qarorlar qabul qilish ta’limning barqaror rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. X.A. Muxitdinov, A.A. Sobirov “Boshqaruv nazariyasi” Toshkent 2012 yil.

2. Usmonov, A. (2021). IQTISODIY SAVODXONLIK VA IQTISODIY TA’LIMNING TARBIYAVIY AHAMIYATI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (1).

3. Ablyakimova, R. (2020). VIEW AND THEORIES ON FACTORS INFLUENCING MANAGEMENT DECISION-MAKING. Архив Научных Публикаций JSPI, 11(1).

4. www.arxiv.uz

5. www.ziyonet.uz

MILLIY LIBOSLARNING ZAMONAVIY VA MILLIY BRENDLARNI YARATILISHINI TAHLIL QILISH

Samiyeva Shaxnoz Xikmatovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti
falsafa fanlari nomzodi(PhD), dotsent
Shodmonova Mijgona Salimovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti- tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada O’zbekistonning milliy liboslarini dunyo miqyosida targ’ib qilish va bu kiyimlarni iste’molchilar talabidan kelib chiqqan holda yaratish haqida so’z bordi va dizaynerlarimiz yaratgan bu milliy liboslarimiz madaniy urf-odatlarimizni,o’z uslubimizga xos faol qayta tiklashlari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Annotation. This article talked about the world promotion of National clothes of Uzbekistan and the creation of these clothes based on consumer demand,and provides information about the active restoration of our cultural traditions, characteristic of our own style by these national dresses created by our designers.

Kalit so’zlar: Milliy matolar,atlas, tarixi, naqshlar, kashtachilik, iste’molchilar talabi, dizaynerlik ishi.

Keywords: National fabrics,satin, history, patterns, embroidery, consumer demand, designer work.

O’rta Osiyo xalqlarining kiyim-kechaklari ko’p asrlik tarixga ega. Har bir elat va etnik guruhlarning o’ziga xos xususiyatli bosh-oyoq kiyimlari bo’lsada, mintaqada yashovchi etnoslar umumiy harakteridagi sarpo mavjudligi, ularning tarixiy taqdiri, madaniyati uzoq davr o’zaro yaqin bo’lganligidan dalolat beradi. Arxeologik qazishmalardan topilgan qadimiy katta devoriy rasmlar, har xil buyumlarga tushirilgan tasvirlar, o’rta asrlardagi kitob miniatyuralari ajdodlarimizning o’tmishdagi kiyim-kechaklari to’g’risida boy ma'lumotlar beradi. O’rta asrlarga oid miniatyuralar o‘zbek kiyimlarining tipi shakllanganligi va ular keyingi davrgacha saqlanganligini namoyish qiladi. Eski xalq kiyim-kechaklaridagi o’zgarishlar asosan asrimiz boshlarida sezilarli ravishda namoyon bo’ladi va undagi transformatsiya asosan shaharlarda ochiq oydin bilinadi.

O‘zbek milliy kiyimi — o’zbek xalqining milliy o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi qadimgi davrlarda yaratilgan va hozirgi kunlarda foydalaniladigan, madaniyati va tarixi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan kiyimlar. Har bir mintaqa uchun o‘ziga xos farq va xususiyatlar mavjud.

Hozirgi o‘zbek sarpolari zamonaviy tipda bo’lib, ayniqsa yevropacha kiyim-kechaklarning kirib kelishi bilan tavsiflanadi. Milliy kiyimlar ko’proq qishloqda, alohida ayollar sarposida ancha muntazam saqlangan. Shahar aholisining ko’pchiligi yevropacha kiyinadi.

An'anaviy o‘zbek kiyim-kechagi asosan ustki ko’ylak, chopondan, boshga do’ppi, oyoqda kalish-maxsi va etikdan iborat bo’lgan.Erkak-ayol va katta-kichiklar kiyimlari bichimining deyarli bir xilligi ularning qadimiyligidan darak beradi. Bunday liboslar oddiy usulda, ba'zan qaychisiz va ulgusiz yaxlit matodan yirtib tikilgan. Bir parcha gazlamani ikkiga buklab yelka tomonga ko’ndalangiga ikki yeng bilan bir parcha to’rtburchak xishtak tikib ko’ylak qilishgan.



1-rasm. An’anaviy bayramlarda kiyiladigan milliy liboslar.



2-rasm.

O’zbek milliy libosiga ayollar uchun-zar chopon, doppi va atlas erkaklar uchun-do’ppi, chopon, belbog’ va yaxtak kiradi. O’zbek milliy libosi jahonda o’z o’rniga ega. Masalan dunyoning turli joylaridan kelgan mexmonlar O’zbekistoni milliy libosi va madaniyatiga katta baxo berishyapti. O’zbek milliy libosi va madaniyati o’zgacha jozibadordir. Milliy libosimiz Sovet ittifoqi davrida kasitilgan bo’lsada mustaqillikdan so’ng libosimizga e’tibor kuchaydi va yuksaldi. Hozirda o’zbek tikuvchilari chet mamlakatlarga borib ularga o’zbek libosini o’ziga hos jihatlarini namoyon qilishmoqda. O’zbekistonga mehmon bo’lib kelgan sayohatchilar vatanimizni tarixiy obidalarini, memorchilik san’atini, milliy urf-odatlarimizni va katta qiziqish bilan e’tibor beradilar. Ular mustaqillik bayramini, navro’zni, hosil bayramini va o’zbekona to’ylarni guvohi bo’ladilar. Estalik sifatida atlas, do’ppi, belbog’, chopon va boshqa memorchilik uslubida yasalgan estalik sovg’alarini olib ketadilar.

Bugungi kunda O‘zbekiston bozori turli-tuman ham milliy, ham chet el kiyim-kechak brendlari bilan to‘lib toshmoqda. Shunga qaramay ularning orasida sekin-asta milliy mahsulot o‘zining tegishli o‘rniga ega bo‘lmoqda. Aholini sifatli mollarga bo`lgan talabi tobora ortib bormoqda. Davlatimiz oldida aholini o`zimizda ishlab chiqariladigan tayyor sifatli mahsulotlar bilan ta`minlash masalasi ko`ndalang turibdi.

Xo‘sh bizning milliy liboslarimiz qay darajada zamonga moslasha olayapti?

Agar biz atlas va adras matolaridan milliy libos kiyim tikib kiysak, haqiqatdan ular tabiiy ipak matosidan, ekologik toza hisoblanadi. Lekin masalaning ikkinchi tomoni bor, bu matolar harakatlarga chidamli emas. Bir ikki marta yuvilgach rangi o‘zgaradi, undagi ranglarning bir-biri bilan qo’shilib ketishi va mato o‘z ko‘rinishini tez o‘zgartirish holatlari ham mavjud. Ipaklar orasi yiriklashib, jipsligi yo‘qoladi. Ammo, yuqorida aytganimdek bu mato har kuni tozalashga berish imkoniga ega emasligi uchun faqatgina to’y, marosimlarda, tadbirlarda kiyishga odatlanganmiz.


Xalqimizning milliyligini, uni tarixini, urf-odatlarini, qaysi millatga tegishli ekanligini o’zida namoyon qiluvchi kiyimlarni bugungi kunda ko’plab topishimiz mumkin.

Milliy matolarimiz atlas, adras, shoyi, beqasam bularning barchasi milliy brendlarimizni yaratishning asosiy mato turkumlaridandir. Marg‘ilon atlaslari rang-barang nafis turli-tuman gullarga boy, bu gullar bir-biri bilan uyg‘unlashib, matoni yaxlit go‘zalligini hosil qiladi. Xonatlasning barcha siri uning tuzilishi, tovlanishi va to‘qilish usulidadir. Xonatlash naqshi ornamentlarida arab limonlari ham aks ettirilgan. Matoda bu naqshlar mutanosibligi bir- biriga to’g’ri tanlanganda to’qimada birlashib bir ansablni tashkil etadi va san’at darajasiga ko’tariladi.

Kashtachilik uchun ko‘proq shoyi va baxmal kabi jilovlanib turadigan matolar ishlatilgan. Naqshlar asosan gullar mavzusida kashta tikilgan va ularga yorqin iplardan foydalanishgan. Iplarni bo’yashda faqatgina tabiiy bo’yoqlardan

foydalanishgan. Kashtachilikni hozirda zamonaviylashtirib turli xil ipak lentalar yordamida bir-biridan go‘zal va nafis san’at asarlari yaratilmoqda.

Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki bizning kashta matolarimiz va milliy atlas matolarimiz hechqachon urfdan qolmaydi.



3-rasm. Xonatlas va kashtachilik namunalari.

Respublikamiz dizaynerlari o’zlari yaratayotgan liboslarda milliylikni va sharqona urf-odatlarni o’zida aks ettirishga harakat qilishmoqda. Millatimizga xos milliy kashtachilik, zardo’zlik naqshlari va faqat tabiiy matolardan zamonaviy ko’rinishdagi kiyimlarni dunyo miqyosida talqin qilishmoqda. O`z kolleksiyalari bilan dunyoni lol qoldirayotgan dizynerlarimiz yildan-yilga ko‘payib bormoqda. Yosh dizaynerlar o‘z ishlarini ko‘rsatish uchun hozirda turli xil namoyishlarda qatnashishlari mumkin.

O‘zbek matolaridagi naqshlar, ularning ranglari va sharqonaligi ko‘zga yaqqol tashlanadi. Milliy matolarning ranglar tuzilishi zamirida go’yo qumlarning zarin rangi, vodiylar ko‘kalamzori, ko‘llar zilolligi, botayotgan quyosh shafag‘i, shaftoli va o‘rikzor gullari jilologanday tuyuladi.

Xaridorlar talabidan kelib chiqib kiyim yaratish milliy brend uchun eng muhim jihat sanaladi, chunki o‘z iste'molchisini eshita bilish bu sohada o’z natijasini berishi tayin.

Xo’sh bugungi kunda milliy brenddagi kiyimlarning ommalashib borishiga asosiy sabab nima? Tadbirkorlarimiz xaridorlarning talabidan kelib chiqqan holda ish olib borishmoqda. Demak xalqimizning milliy kiyimlarga bo’lgan munosabati o’zgacha.

Hozirgi paytda ayollarning milliy o’zbekcha ko’ylagida ma’lum o’zgarishlar bo’lmoqda. Ko’ylak gavda qismining silueti, hajmi va uzunligi qisqarmoqda.

An’anaviy milliy ko’ylak gavda qismi to’g’ri siluetli, koketka chizigiI bo’ylab burmali bo’ladi.



4-rasm. Milliyligimizni aks ettiruvchi kiyimlar.

Bunday kiyimlar bizning modani sevuvchi vatandosh ayollarimizning liboslari garderobining bir qismiga aylanib, dunyoning turli burchaklarida yashovchi hamyurtlarimizning do‘st-u, birodarlari uchun tuhfa qilinadigan ajoyib yechimga aylandi.

Yaqindagina milliy brend dizaynerlari tomonidan alohida auditoriya va brendning yangi segmenti uchun bir qator Plus Size – ya’ni katta o‘lcham modellari taklif qilinmoqda. Kofta, futbolka, ko‘ylaklarga naqshlar, milliy mato bo’laklari turli shaklda ularga tikilmoqda. Bu umumiy model qatorining kichik bir qismi bo‘lib, kelajakda albatta kengaytiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Папова В.В. Инновационный текстиль. Принципы формаобразования [Текст]: дис. канд. искусствоведения: 17.00.06: защищена 22.12.2017 / Папова Виолетта Вячеславовна. – М., 2017. - 161 с.

2. Sh.X. Samiyeva – Kashta tikish texnologiyasi va ishlab chiqarish jihozlari. Tosh 2017.

3. Самиева Ш.Х., Джураева Т.С., Асадова С.С. Инновационные технологии в швейной промышленности. Учебник. – Бухара, 2020.

4. www.arxiv.uz

5. www.ziyonet.uz

FANLARARO INTEGRATSIYANING TA’LIM SIFATIGA TA’SIRI

Salimova Mohigul Rustam qizi
Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti talabasi
Salimov Zuxriddin Rustam o‘g‘li
Toshkent Kimyo-texnologiya Instituti talabasi

Annotatsiya: Ta’lim jarayonida maktab o‘quvchilarining o‘quv materiallarini yetarli darajada o‘zlashtira olmasligi ularning intellektual rivojlanish darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Aniqsa boshlang‘ich sinflarda bu masalaga jiddiy e’tibor qaratish lozim. Boshlang‘ich ta’limda dars jarayonida integratsion o‘qitish orqali duch kelish mumkin bo‘lgan muammolarning oldi olinadi.

Kalit so‘zlar: integratsiya, metodika, ta’lim tizimi, sifatli ta’lim, muammo, yechim.

THE IMPACT OF INTERDISCIPLINARY INTEGRATION ON THE QUALITY OF EDUCATION

Salimova Mohigul Rustam qizi
Student of Shahrisabz State Pedagogical Institute
Salimov Zuxriddin Rustam o‘g‘li
Student of theTashkent Institute of Chemistry and technology

Annotation: The inability of schoolchildren to sufficiently Master educational materials in the educational process has a negative impact on the level of their intellectual development. Especially in elementary grades, this issue should be paid serious attention to. In primary education, the problems that can be encountered through integrative training in the course process are prevented.

Key words: integration, methodology, educational system, quality education, problem, solution.

Uzluksiz ta’lim tizimini modernizatsiyalash O‘zbekistonning ham ijtimoiy, ham iqtisodiy tomondan jahonning rivojlangan mamlakatlari qatoriga chiqishi uchun eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Ta’lim jarayonini samarali tashkil qilish, o‘quvchilarning aqliy salohiyatini oshirish bevosita tizimda bo‘layotgan o‘zgarishlarga bog‘liq.

Mamlakatimiz xalq ta’lim tizimining hozirgi zamonaviy bosqichida o‘qituvchilarning izlanish va dars o‘tish tizimini tubdan o‘zgartirish davr talablaridan biriga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan xalq ta’lim tizimiga turli xil yangi

texnologiyalar, dars o‘tish uslublari joriy etilib, o‘quv muassasalarida amaliyotda qo‘llanmoqda. Axborot texnalogiyalaridan foydalanish, qiziqarli metodlar yordamida dars jarayonini tashkil etish bilan bir qatorda integratsiyalashgan darslar ham ta’lim sifatining oshishini ta’minlamoqda.

“Integratsiya” lotincha so‘z bo‘lib “tiklash”, “to‘ldirish” degan ma’nolarni anglatadi. Integratsiya tushunchasi- o‘quvchi atrofdagi olamni bir butunligicha qabul qilishi, bir fanni boshqa bir qancha fanlar bilan bog‘lagan holda o‘rganishini qamrab oladi. Bolalarning tabiat va kundalik turmush tarzidagi barcha voqealarning bir-biriga bog‘liqligini tushunib idrok qilishida ham integratsiya muhim ahamiyat kasb etadi.

Mahalliy va xorijiy pedagogika fanida integratsiya muammolarini o‘ganish bo‘yicha boy tajriba to‘plangan. Turli davrlarda ta’lim jarayonida fanlararo aloqadorlikdan foydalanish vazifasini A.Komenskiy, I.G.Pestalozsi, J.J.Russo, L.N.Tolstoy va K.D.Ushiniskiylar ilgari surdilar.

Axborot hajmining tez sur’atda keskin o‘sishi uni idrok etish va tushunish imkoniyatining kamayishiga olib keladi. Bu masalaning yechimi turli integratsiyalashgan metodlarni ishlab chiqish, barcha fanlarni bog‘lashda ko‘rinadi.

Integratsiyalashgan ta’limning asosiy g‘oyalari quyidagilardan iborat:

- Umumlashtirilgan predmet tuzilmalari va faoliyat usullarini shakllantirish.
- Inson va ta’lim jarayonini tashkil qilish.
- Tabiiy-ilmiy ta’lim tizimida tavsiflanadi.
- Muammoli vaziyatlarni o‘rganish.
- Ta’limda ma’no hosil qiluvchi motivlarning ustuvorligini ta’minlash.
- Ta’lim jarayonidagi faoliyatni aks ettirish.
- O‘qitishning usul va vositalarini puxta tanlash.
- O‘quvchilarning darsdagi yuklamasini aniqlash.
- O‘quvchilarni darsga qiziqisgini oshirish.
- Qisqa vaqt ichida ko‘plab bilimlarni egallash.
- Sodda tushuntirish.
- Ko‘rgazmali mahoratni vujudga keltirish.
- Asosiysi ta’lim sifatini oshirish.

Integratsiya jarayoni muayyan shartlarning bajarilishini talab qiladi:

1. O‘rganilayotgan fanlar bir xil yoki yetarlicha bir-biriga yaqin bo‘lishi.
2. O‘rgatishda qo‘llaniladigan tadqiqot usullarining o‘xshashligi.
3. Umumiy qoidalar nazariy tushunchalar asosida qurilishi.

Bu shartlar izohini quyidagi misol orqali qisqacha tushunib olamiz. Masalan, kichik yoshdagi o‘quvchilarga ona tili va o‘qish savodxonligi fanini o‘rgatish jarayonida rus tili, ingliz tili, musiqa, tabiatshunoslik kabi fanlar o‘rtasida a’loqalarni tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Ya’ni fanlararo integratsiyani tashkil qilishda

fanlarning bir-biriga yaqinligi muhim ahamiyatga ega. Agar bir-biriga aloqador bo‘lmagan fanlar integratsiya qilinsa o‘quvchida yangi ma’lumotni tushunishda chigallik vujudga kelib, o‘zlashtirish darajasi pasayib ketadi. Bu esa ta’lim sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari o‘rgatish usullarini ham fanning nazariy asoslaridan kelib chiqib, fan nuqtai nazaridan tanlash lozim.

Tabiiy fan darsligida “Osmon jismlari” mavzusi o‘tilayotgan bo‘lsa turli xil ko‘rgazma va metodlar yordamida osmon jismlarining soni, kattaliklarini tushuntirish orqali o‘quvchida matematik savodxonlikni, ularning nomlarini to‘g‘ri talaffuz qilish, to‘g‘ri yozish, qanday so‘roqqa javob bo‘lishi to‘g‘risida ma’lumot berish jarayonida ona tili savodxonligini, osmon jismlardan birortasining rasmini chizdirish orqali esa tasviriy san’at fani ko‘nikalarini shakllantirib borish mumkin. Bitta fanni bir nechta fan bilan integratsiya qilib dars o‘tilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Biroq bir darsda turli fanlarning har bir birikmasi avtomatik ravishda yaxlit darsga aylanmaydi. Ushbu darsning yaxlitligini, uzviy bog‘liqligini ta’minlaydigan yetakchi g‘oya bo‘lishi kerak.

Asosiy fanlarni o‘zlashtirish va olamdagi bor narsalar qonuniyatlarini tushunishda predmetlar ichidagi va predmetlararo aloqalarni o‘rnatish ta’limni integratsiyalashga yondashuvning metodik asosi hisoblanadi. Tarkibiga shu o‘quv predmetiga tegishli bo‘lgan tushunchalar guruhi kiritilgan har qanday dars integratsiyaga asos qilib olinishi mumkin.

Hozirgi vaqtda integratsiyalashgan ta’lim muammosi munozarali, chunki T.V.Varenovaning fikricha, integratsiya o‘zining ijobiy va salbiy tomonlariga ega.

Integratsiyalshgan ta’limning ijobiy xususiyatlari:

- Tizimli o‘qitish tamoyilini amalga oshirish imkonini beradi.
- Mantiqiy fikrlashni, moslashuvchanlikni, tanqidiylikni rivojlantirish uchun sharoitlar yaratadi.
- Dunyoqarashni rivojlantirishga, o‘quvchilarning shaxsiyatini uyg‘unlashtirishga hissa qo‘shadi.
- Fanlararo aloqalar kengayadi va chuqurlashadi.
- Ko‘proq ma’lumot olish imkoniyati paydo bo‘ladi.
- Ijodkorlikni rivojlantirishga yordam beradi.
- Dars ijodiy erkinlik, mantiqan ketma-ketlik metadologiyasiga ega bo‘ladi.
- O‘quv mashg‘ulot davomida ko‘rgazmalilik, rang-baranglilik yetakchi o‘rin egallaydi.

Integratsiyalashgan ta’limning ijobiy tomonlari juda ko‘p. Bir qarshda uning salbiy tomonlari ham bordek ko‘rinadi. Masalan, dars zichligining oshishi, tafsilotlarning kamligi, ba’zi hollarda darsga tayyorgarlik ko‘rishda katta vaqt sarflanishi. Lekin yuqori darajada pedagogik mahoratga ega bo‘lgan o‘qituvchi bu

kamchiliklarga ham munosib yechim topa oladi, vaqtni to‘g‘ri taqsimlab, darsni qiziqarli, tushunarli tashkil qiladi.

Integratsiyalashdan tashqari boshqa texnologiyalar yordamida ham hayotga bog‘lab ta’lim olish imkoniyati bor. Ammo integrativ ta’limning afzalligi yuqori.

Integratsiyalshgan ta’limning afzalligi- tor ma’lumotli mutaxassis emas, balki, dunyoni yaxlit idrok etadigan, ijtimoiy va kasbiy sohada faol harakat qila oladigan ijodiy shaxsni shakllantiradi va kamol toptirishdan iborat.

Umumiy talimning eng asosiy qismi va eng asosiy bosqichi hisoblangan boshlang‘ich ta’limdan boshlab fanlardagi umumiy tushunchalar orasidagi bog‘liklar ustida ishlab chiqilib, integratsiyalashgan darslar tizimini yaratish lozim. Shu bilan bir qatorda o‘qituvchilar ham integratsiyalashgan ta’limning metodik asoslarini yaxshi bilishi va amaliyotda qo‘llay olishi kerak. To‘g‘ri tashkil etilgan integratsiyalashgan ta’lim orqali o‘quvchilarda boshlang‘ich sinfdayoq tabiat va jamiyat haqida yaxshi tasavvurlar poydo qilish va ularning rivojlanish qonunlariga o‘z munosabatlarini shakllantirishga erishish mumkin. Ilk ta’lim bosqichidayoq sifat va samaradorlikka erishilsa taraqqiyot uchun mustahkam poydevor yaratiladi va albatta O‘zbekiston ham har sohada jahonning rivojlangan mamlakatlari bilan raqobatga kirisha oladi. Zero, -“Ilmdan boshqa najot yo’q va bo‘lmagay ham!”

Foydalaningan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Hrakatlar strategiyasi” 2017.02.07
2. Matchanov S. “Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarini pedagogic texnologiyalar asosida tashkil etish”, Toshkent, 2008
3. Asqar Zunnunov “Pedagogika nazariyasi”, Toshkent, “Aloqachi” 2006
4. R. Mavlyanova, N. Raxmankulova “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiyasi va integratsiyasi”, Toshkent “Voris nashriyot”, 2013
5. Ziyonet.uz

ENDOFIT BAKTERIYALARNING BIOLOGIK FAOL METABOLITLAR SINTEZ QILISH XUSUSIYATLARI VA ULARNING QO`LLANILISH SOHALARI

Boboqandova Mexriniso
SamDTU, Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya kafedrasi assistenti
Shodiyeva Dildora
SamDTU, Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya kafedrasi stajiyor-assistenti
https://doi.org/10.5281/zenodo.7666093

Annotatsiya: Endofit mikroorganizmlarning eng katta biotexnologik potensiallaridan biri ulartning biologik faol moddalar sintez qilish xususiyati hisoblanadi. Endofit mikroorganizmlar jamoasisintez qiladigan ikkalamchi bioaktiv moddalar ham bir qator muhim farmasivtik xususiyatlarga ega ekanligi bilan o`z ahamiyatiga egadur. Ushbu metabolitlar farmasivtika sohasida, qishloq xo`jaligida, oziq-ovqat sanoatida va boshqa bir qancha sohalarda muhim ahamiyatga egadur. Jumladan, endofit mikroorganizmlar tomonidan bir qancha biologik faol metabolitlar sintez qilinishiga to`xtalib o`tamiz. Jumladan, endofitlar tomonidan o`simlikni o`stiruvchi omillar, toksinlar, fermentlar, biotexnologik qiymatga ega bo`lgan farmakologik faol moddalar, misol sifatida, o`smaga qarshi vositalar antifungal agentlar ishlab chiqarishi aniqlangan.

Kalit so`zlar: Adhatoda vasica, Costus igneus, Coleus aromaticus, Lawsonia inerims, Hyphomitset, Coelomycetes, Xylariales, Cladosporium cladosporioides, Curvularia brachyspora.

Abstract: One of the greatest biotechnological potentials of endophytic microorganisms is their ability to synthesize biologically active substances. The secondary bioactive substances synthesized by the endophyte microorganism community are also important because they have a number of important pharmaceutical properties. These metabolites are important in the field of pharmaceuticals, agriculture, food industry and several other fields. In particular, we will dwell on the synthesis of several biologically active metabolites by endophytic microorganisms. In particular, endophytes have been found to produce plant growth factors, toxins, enzymes, pharmacologically active substances of biotechnological value, for example, antitumor agents, antifungal agents.

Kirish: Olimlar bir qator tadqiqotlar natijasida turli o`simlik xillaridan o`ziga xos bo`lgan metabolitlar ajratishini aniqladilar. Misol tariqasida dorivor o`simlik hisoblangan Adhatoda vasica, Costus igneus, Coleus aromaticus va Lawsonia

inerimslardan bir qancha endofitlar ajratib olindi. To'rtta dorivor o'simlikdan jami 12 xil endofit zamburug'lar qayd etilgan. Ulardan 7 tasi Hyphomitsetlarga, 4 tasi Coelomycetesga va bittasi Xylarialesga tegishli. Ro‘yxatga olingan endofit zamburug‘lardan 11 ta dominant endofitik zamburug‘lar, ya’ni Cladosporium cladosporioides, Curvularia brachyspora, C. verruciformis, Drechslera hawaiiensis, Colletotrichum carssipes, Colletotrichum falctum, Colletotrichum falctum, Colletotrichum falctum, Colletotrichum diasporimae the Sp. va Xylariales turlarining hujayradan tashqari fermentlarni, ya'ni amilaza, tsellyulaz, lakkaza, lipaz, proteazni ishlab chiqarish qobiliyati sifat jihatidan sinovdan o'tkazildi, endofit zamburug'larning aksariyati ijobiy natijalarni ko'rsatdi.

Mavzu yuzasidan adabiyotlar tahlili: O`simliklardagi endofit mikroorganizmlarni o`rganishga talab katta tezlikda oshib bormoqda, sababi ular bioaktiv moddalarni sintizlashda noyob qobiliyatga ega ekanligi hisoblanadi va bu bioaktiv moddalar ko`plab kasalliklarga davo hamdur. Ammo bu endofitlar yashaydigan ko`plab o`simlik jamoalari allaqachon yo`q bo`lib ketish xavfi ostiga kelib qolganligi bu muommolarning yechimi vaqt kutib turmasligi ko`rsatadi. 1993-yilda paklitaksel (PTX)ni sintez qilishda bir qancha muommolar paydo bo`la boshaladi. Paklitasel – saratonning bir qancha turlarinidavolashda ishlatiladigan kimyoterapiya dorisidur, u orqali tuxumdon saratoni, ko`krak saratoni, o`pka saratoni, bachadon bo`yni saratoni va oshqozon osti bezi saratoni davolanadi. Ammo olimlar ushbu moddani sintez qiluvchi endofitni Taxomyces andreaneani Shimoliy Amerikaning Tinch okeani qirg`oqlarida o`suvchi Taxus brevifolia deb nomlanuvchi kichik butasimon daraxtdan topishdi. Hozirgi kunda uning tarkibidan 19 ta endofitlar aniqlangan va ularning hammasi paklitaksel va uning anologlarini sintezlash qobiliyatiga egadur [14]. Bundan tashqari ushbu tadqiqotlar cichorin A deb nomlanuvchi metabolitni sintez qila olish qobiliyati aniqlandi, bu metabolit birinchi marta endofit mikroroganizmlarda aniqlangan va u 10-metoksi 8-metil3-(prop1-en-2-il) -3,4-digidro1H-benzolizoxrom4-ol ekanligi aniqlangan. Unga cichorin A deb nom berilishiga sabab u birinchi marta Cichorium intybus o`simligining ildizidan ajratib olingan [45]. Bu moddani farmasivtik sohada keng doirada foydalanish mumkin.

Metodologiya: Tadqiqot ishini amalga oshirishda mavzu yuzasidan barcha elektron hamda yozma manbalar o‘rganildi ularning yutuq va kamchiliklari tahlil qilindi shu bilan birga tadqiqot amaliy qismida biotexnologik, mikrobiologik, botanik va statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Bu esa urbanizatsiyaning o`sishi va sanoatlashishning jadallashishi bilan oziq-ovqat, ekologiya kabi bir qancha muommolarga oloib keladi. Ekinlarga kimyoviy o`g`itlar bilan ishlov berish oziq-ovqat muommosini hal qilgandek ko`rinsa-da ammo bu holat atrof muhitga katta salbiy ta`sir etishi barchamizga ma`lum. Shu ma`noda bakterial endofitlardan bioo`g`it sifatida foydalanish bu o`simlikni emlash vositasidur va u o`simlik uchun

kerak bo`lgan moddalar bilan ta`minlash bilan bir qatorda, o`simlikni o`sishini tezlashtiradi. Endofit mikroorganizmlardan tuproqda yashaydigan bakteriyalarga qaraganda ustunlikka ega, chunki ular o`simlikning ichki to`qimalarida yashaydi va o`simlikka bevosita ta`sir eta oladi. [49]Endofitlar atmosfera havosidan erkin azotni o`zlashtiradi, tuproq unumdorligini yaxshilaydi, erimaydigan kaliy va fosfat tuzlarini eriydigan holatga keltirib, o`simlik uchun foyda keltiradi. Endofit bakteriyalardan foydalanish qishloq xo`jaligida keng imkoniyatlarga, qulayliklarga olib keladi.

Natija muhokama: Saudiya Arabistonida Jidda, Tuval shahri qirg`oq hududida o`suvchi mangrovlar galofit va sho`r suvlarda yashash, murakkab tuz filtirlash va murakkab ildiz tizimiga ega bo`lgan daraxtlar bo`lib, ularning tarkibidan ham turli endofitlar ajratib olingan va ularning qo`llanilish sohalari o`rganilgan. Jumladan, yetti xil mangrovlar olinib, ulardagi bakteriyalar o`zidan gidrolitik fermentlar ajratishi aniqlangan. Tadqiqotlar shuni ko`rsatdiki, mangrovlarning ildizlari, barglaridan 46-xil rizo va -endobakteriyalar ajratib olindi. Bu bakteriya shtammlari sanoat uchun muhim bo`lgan sellyuloza, proteaza, amilaza, lipaza sintez qilishi aniqlangan. Ularning antifungal xususiyatlari ham o`rganilgan [46]. Dastlab ular identifikatsiya qilinishi natijasida ularning Gammaproteobakteriyalar ekanligi aniqlandi ya`ni y-Proteobakteriyalar 10 xil avlodni o'z ichiga oladi - Erwinia, Vibrio, Psychrobacter, Aidingimonas, Marinobacter, Chromohalobacter, Halomonas, Microbulbifer va Alteromonas. Xuddi shunga o'xshash dominant endofitlardan tashqari, subdominant endofit sifatida Bacillus avlodi endofitlari ko`rsatilgan. Keyinchalik bu ferment ishlab chiqaruvhci bakteriyalarning boshqa biologik faol modddalar sintezlashi, antifungal xususiyati ham aniqlandi. Bu bakteriyalarning biologik aktiv moddalar, golofit fermentlar sintezlash qobiliyatidan sanoat miqyosida dorivor moddalar olishda foydalanish mumkin. Mangrovlar esa bunday endofitlarning tabiiy manbalari bo`lib xizmat qiladi. Endofit mikroorgasnizmlarning metabolitlari farmasivtik ahamiyatidan tashqari, qishloq xo`jaligida, oziq-ovqat sanoatida ham o`z o`rniga ega bo`lib bormoqda.

Xulosa: Endofitlar to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita mexanizmlar orqali o'simliklarning o'sishiga ta`sir etadi. Endofitlar mikroblarga qarshi metabolitlar, insektitsid qo'shimcha mahsulotlar, temir xelatatorlari, fosfat eruvchan birikmalar va azotni biriktirish qobiliyat orqali o'simliklarga bevosita foyda keltirishi mumkin. Bundan tashqari, endofitlar o'simliklarning o'sishiga fitohormonlar, sideroforlar ishlab chiqarish, 1-aminosiklopropan-1-karboksilaza deaminaza ishlab chiqarish orqali tizimli bardoshlik, induksiyalangan tizimli qarshilik va antagonizm orqali ta'sir qiladi. Bundan tashqari, oltingugurtni oksidlovchi bir nechta endofitlar ma'lum bo'lib, ular elementar oltingugurtni o'simliklar tomonidan ishlatish uchun sulfatga oksidlaydi. Bundan tashqari, endofitlar o'simlik patogenlariga to'sqinlik qiluvchi fitokimyoviy moddalarning manbaasidur. Endofitlar biologik faol ikkilamchi

metabolitning yaxshi manbaidir va o'simlik metabolitlarini ishlab chiqarishga hissa qo'shadi. Ba'zi muhim va yaxshi keltirilgan mexanizmlar quyida muhokama qilinadi. Ushbu mexanizmlar o'simlikka bevosita yoki bilvosita foyda keltirishi mumkin.

Adabiyotlar ro`yxati:

1. Annayeva, D. (2022). CICHORIUM INTYBUS LISOLATION OF ENDOPHYTIC MICROORGANISMS FROM PLANTS AND IDENTIFICATION OF BIOTECHNOLOGICAL POTENTIAL. Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences, 2(6), 54–61. извлечено от https://www.in-academy.uz/index.php/EJMNS/article/view/1755

2. Giyosovna, S. D. (2023). ODDIY SACHRATQI (CICHORIUM INTYBUS L) O’SIMLIK QISMLARIDAN ENDOFIT BAKTERIYALARNING SOF KULTURALARINI AJRATISH USULLARI. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(6), 387-393. http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/3573

3. Annayeva, D. G. Y., Azzamov, U. B., & Annayev, M. (2022). ODDIY SACHRATQI (CICHORIUM INTYBUS L) O‘SIMLIGIDAN ENDOFIT MIKROORGANIZMLAR AJRATIB OLISH. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(5-2), 963-972. https://cyberleninka.ru/journal/n/oriental-renaissance-innovative-educational-natural-and-social-sciences

4. Ташкенбаева, Э. Н., Аннаев, М., & Абдиева, Г. А. (2022). ВЛИЯНИЕ ПРИМЕНЕНИЯ ВИРТУАЛЬНОЙ РЕАЛЬНОСТИ НА УСПЕВАЕМОСТЬ СТУДЕНТОВ В ИЗУЧЕНИИ КАРДИОЛОГИИ. Журнал кардиореспираторных исследований, 3(4).

5. Azimovich, A. U. B., G‘iyosovna, S. D., & Zokirovna, M. M. (2022). XLAMIDIYANING INSON SALOMATLIGIGA TA’SIRINI MIKROBIOLOGIK TAHLILLI VA DIOGNOSTIKASI. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 1(11), 153-161. https://doi.org/10.5281/zenodo.7305057

6. Shodiyeva, D. (2023). SANOAT MIKROBIOLOGIYASINING BIOTEXNOLOGIYADAGI AHAMIYATI. GOLDEN BRAIN, 1(2), 116-120.

7. Одилова Гулноза Махсудовна, Рустамова Шахло Абдухакимовна, Мамарасулова Нафиса Исрофиловна, and Болтаев Комил Султонович. "Клинические особенности течения ветряной оспы у взрослых в современных климатических условиях" Вопросы науки и образования, no. 28 (77), 2019, pp.

8. Shodiyeva, D. (2023). BIO-MORPHOLOGICAL CHARACTERISTICS, GEOGRAPHICAL DISTRIBUTION AND USE IN TRADITIONAL MEDICINE OF CICHORIUM INTYBUS. GOLDEN BRAIN, 1(2), 252-256.

9. Sultonovich, B. K., Isrofilovna, M. N., Abdusalomovna, J. F., & Olimovna, O. P. (2022). A COMPARATIVE STUDY OF NEMATODA FACILITIES OF SHORTAGE PLANTS AND TREES IN ZARAFSHAN FOREST BIOTOPES. Academicia Globe: Inderscience Research, 3(05), 101-105.

10.Shodiyeva, D. (2023). INDOLIL SIRKA KISLOTA MIQDORINI ANIQLASH. GOLDEN BRAIN, 1(2), 321-324.

AVSTRALIYA MEZOLIT DAVRI MADANIYATI

Urunov Shoxijahon Jamshidovich
Buxoro davlat pedagogika instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi 2-bosqich talabasi
urunovshoxijahon@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Avstraliya mezolit davri madaniyatiga xos bo’lgan ijtimoiy hayot, bu davrda Aborigenlar qanday ov qilgani, nimalarni tanavvul qilgani va sovuqdan qanday jon saqlagani haqida ma’lumotlar jamlangan.

Kalit so‘zlar: Avstraliya, aborigenlar, ov, kenguru, bumerang, ramkali binolar.

Etnografik ma’lumotlarga tayanib, Avstraliya mezolit davri madaniyati haqida gapiradigan bo’lsak, Aborigenlar kengurulardan tashqari, marsupiallar, tuyaqushlar va qirg’oqlarda yashovchi tyulen, dengiz toshbaqalarini ovlaganlar. Ov qilish ham jamoaviy, ham yakka tartibda olib borilgan. Ba’zi ma’lumotlarga ko’ra ovda Dingo itidan foydalanishgan. Ovda eng muhim jangovar qurol sifatida nayza va tayoq ishlatilgan. Ularning oddiy va murakkab turlari bor edi. Aksariyat jamoalar tosh biriktirilgan yog’och nayzani yaxshi bilishar va undan keng foydalanishardi. U nayzani og’irlashtirdi va uni ko’p funksiyali ov quroliga aylantirdi. Bu qurollardan tashqari, “bumerang” degan degan qurol ham bo’lgan. Bumerang – uzoqdan katta kuch bilan nishonga oladigan qurol bo’lgan. Ushbu qurolning mashhur, ammo unchalik samarali bo’lmagan varianti ham bo’lib, bu qushlarni ovlash uchun ishlatiladigan “qaytib keladigan boomerang” quroli hisoblanadi. Aborigenlar mumkin bo’lgan joylarda baliq tutishardi, dengiz hayvonlarini nayzalar, ilgaklar va turli tuzoqlar yordamida ov qilishardi. Ovqatlanish uchun turli ildiz, don, meva, urug’, suv o’tlari, mollyuskalar, tuxum, hasharotlar, lichinkalar, qisqichbaqasimonlar va boshqalarni yig’ish hamma joyda katta rol o’ynaydi.

Ovchilikning asosiy quroli o’tkir tishli tayoq bo’lgan. Avstriyaliklar faqat kichik vaqtinchalik uylar, kulbalar, shamol to’siqlari qurdilar. Ammo ba’zi joylarda keng tarqalgan mavsumiy aholi punktlari ham paydo bo’lgan. Masalan, ramkali binolar. Bu binolar 120 kv.m gacha bo’lgan. Avstraliyada tungi harorat ba’zida nol darajagacha pasaygan. Bunday sharoitda ular opossum va yosh kengurularning terisidan tikilgan issiq kiyimlarda jon saqlaganlar. Boshqalar esa isinish uchun yog’ va orxa aralashmasidan foydalangan. Sovuqda asosiy himoya usuli ishqalanishdan hosil bo’lgan olov bo’lgan. Ular tuproqlarni chuqur qilib, olov yoqqanlar. Natijada shu olovda hayvonlarning go’shtlarini qovurganlar va pishirganlar.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. В.П.Алексеев, А.И.Першиц. История первобытного общества. Москва «Высшая школа» 1990 – ст,180

2. Kosven. Ibtidoiy madaniyat tarixidan ocherklar. Toshkent. O’zbekiston SSR Fanlar Akademiyasi nashriyoti - 1960

A SYSTEM FOR IMPROVEMENT OF PEDAGOGICAL LITERACY IN FUTURE PEDAGOGUES

Akramova Gulnoza Baxodir qizi
Master's Degree – 1 Year

Annotatsiya. Maqolada bo’lajak pedagog - o’qituvchilarining savodxonligini oshirish, iqtidorli va yuksak salohiyatlarini shakllantirish faoliyati yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: pedagog, kompitensiya, kompitentlik, ijodiy, moslashuvchanlik, o’ziga xoslik, yaratuvchanlik, yondashuv.

Аннотатция. В статье освещается деятельность по повышению грамотности, формированию одаренности и высокого потенциала будущих педагогов-педагогов.

Ключевые слова: педагог, компетентность, компетентность, креативность, гибкость, оригинальность, креативность, подход

Annotation. The article highlights the activities of future teachers and teachers to improve their literacy, to form their talented and high achievements.

Key words: educator, competence, competence, creative, flexibility, originality, creativity, approach.

Yurtimizda faol, intiluvchan, iqtidorli va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, zamonaviy bilim hamda kasblarni chuqur egallagan - bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchi bo‘lgan yoshlarni voyaga yetkazish uchun barcha shart-sharoit va imkoniyatlar yaratilgan. Bugungi kunda fan va texnika rivoji ta’lim va uning natijalariga qo‘yiladigan talablarni tubdan o‘zgartirishni talab etmoqda. Shunga asosan, yangi avlod standartlarini yaratish pedagoglarning oldiga muhim vazifa qilib qo‘yilmoqda.

Hozirgi vaqtgacha yaratilgan davlat ta’lim standartlari tizimli-faoliyatli yondashuvga asoslangan, ya’ni ta’lim maskanlarining maqsadini bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish tarzida aniqlashtirishdan iborat edi. Shu bois yangi davlat ta’lim standartlarini o‘z-o‘zini rivojlantirishga qaratilgan kompetent-faoliyatli yondashuvga asoslanishdan kelib chiqqan holda belgilash talab etilmoqda. Chunki oliy ta’limda tashkil etilayotgan o‘quv-tarbiya jarayonining mohiyati tinglovchilarning ehtiyojlari va qobiliyatlarini rivojlantirish emas, balki bilimlarni axborot-verbal tarzda yetkazish, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat bo‘lib qolmoqda. Bunday reproduktiv tarzda o‘zlashtirilgan ma’lumotlar tinglovchining amaliy faoliyat tajribasini rivojlantirishga yetarlicha imkon bermaydi. Oqibatda, talabalar juda ko‘p axborotni behuda jamg‘arilishi, ta’limning samarasi past ekani va uning real voqelikka mos kelmasligi kabi tafovutlar ko‘zga

tashlanmoqda. Aniqrog‘i, o‘quvchi real hayotdan uzoqlashib qolgandek, uning oldiga faqat ilgaridan to‘plangan axborotlarnigina o‘zlashtirish maqsadi qo‘yilgandek tuyuladi.

Yuqoridagi dolzarb muammolarni bartaraf etish maqsadida, ta’lim jarayonlarini turli yangicha yondashuvlar asosida tashkil qilish maqsadga muvofiq sanaladi. Muxtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev “Yoshlarimiz mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo’lib, dunyo miqiyosida o’z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo’sh kelmaydigan insonlar bo’lib kamol topishi, baxtli bo’lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”, degan fikrlari ham mustaqil o’zbekistonimiz yoshlarini erkin fikrlashni tarkib toptirishga qaratilayotgani ham e’tibordan holi emas. Shunday ekan biz o’qituvchilar hozirgi yangi davr talabi asosida darslarni tashkzamonaviy yondashuvlar asosida tashkil qilishimiz oldimizdagi yuksak vazifalardan biridir. Ushbu muammoli vaziyatdan chiqishning yagona yo‘li - oliy ta’limda yangicha, ya’ni kompetent yondashuvni joriy etishdir. Kompetent yondashuv talabadan bilim va ko‘nikmalarni alohida-alohida emas, balki yaxlitlikda egallashni talab etadi. Mazkur talab bilan bog‘liqlikda, o‘z navbatida, o‘qitish metodlarini tanlash tizimi ham o‘zgarishga uchraydi.

O‘qitish metodlarini tanlash va amaliyotda qo‘llash ta’lim jarayonida qo‘yiladigan talablarga muvofiq keladigan kompetensiya va funksiyalarni takomillashtirishni talab etadi. Ushbu muammoli vaziyatdan chiqishning yagona yo‘li -oliy ta’limda yangicha, ya’ni kompetent yondashuvni joriy etishdir. Kompetent yondashuv tinglovchidan bilim va ko‘nikmalarni alohida-alohida emas, balki yaxlitlikda egallashni talab etadi.

Mazkur talab bilan bog‘liqlikda, o‘z navbatida, o‘qitish metodlarini tanlash tizimi ham o‘zgarishga uchraydi. O‘qitish metodlarini tanlash va amaliyotda qo‘llash ta’lim jarayonida qo‘yiladigan talablarga muvofiq keladigan kompetensiya va funksiyalarni takomillashtirishni talab etadi. Kompetent yondashuv oliy ta’limni modernizatsiyalash nuqtayi nazaridan yangi pedagogik voqelik hisoblanadi.

Mazkur yondashuv doirasida amaliy faoliyat tajribasi, kompetensiya va kompetentlikni didaktik birliklar sifatida ko‘rib chiqish hamda ta’limning an’anaviy uch elementi (triada) - “bilim - ko‘nikma - malaka”ni oltita birlik (sekstet) - “bilim - ko‘nikma - malaka - amaliy faoliyat tajribasi - kompetensiya - kompetentlik” tarzida tahlil qilish talab etiladi. Dastlab “kompetensiya” tushunchasining mohiyatini aniqlashtirib olish zarur.

Kompetensiya (lotincha so‘z bo‘lib, erishaman, to‘g‘ri kelaman ma’nolarini bildiradi) - sub’yektning maqsadni qo‘yish hamda unga erishish uchun tashqi va ichki zaxiralarni samarali amalga oshirishga tayyorgarligi, boshqacha qilib aytganda, bu subyektning muayyan faoliyat obyekti bilan bog‘liq muammolarni muvaffaqiyatli hal

etishga doir shaxsiy qobiliyatidir. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, “kompetensiya” tushunchasiga berilgan aksariyat ta’riflar kasbiy ta’lim, kasbiy faoliyat bilan bog‘liqlikda bayon etilgan. Biroq umumiy o‘rta ta’lim bilan bog‘liqlikda mazkur tushuncha innovatsiya tavsifiga ega bo‘lganligi sababli, uning mohiyatini aniqlashtirishga alohida ehtiyoj mavjud.

Kompetensiya - lotincha «competentia» so’z bo’lib, o’zbek tilidagi lug’aviy ma’nosi «inson yaxshi biladigan», «tajribaga ega bo’lgan» kabi ma’nolarni bildiradi.

Kompetentlik - biron bir ishni samarali qila olish qobiliyati, ishni bajarishda talablarni qondira olish qobiliyati, aniq ishchi funksiyalarni bajarishda talablarni qondira olish qobiliyati.

Kasbiy kompetentlik - mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo’lgan bilim, ko’nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo’llay olinishidir.

U pedagogik kompetentlik tuzilmasida quyidagi uchta tashkil etuvchini ajratgan: faoliyatli, kommunikativ va shaxsiy. L.m.mitina tomonidan taklif etilgan pedagogik kompetentlikni tuzilmalashtirishdan kelib chiqqan holda, biz, bo’lajak mutaxassislar uchun egallanish darajasi pedagogik kompetentlikning rivojlanish darajasini aniqlaydigan quyidagi kompetensiyalar majmuasi yetarli va zarur deb hisoblaymiz:

- faoliyatli yoki maxsus kompetensiya (bilim, ko’nikma, malaka va pedagogik faoliyatni amalga oshirishning individual usullari);
- shaxsiy yoki kasbiy kompetensiya (kasbiy o’z-o’zini takomillashtirish va o’zo’zini amalga oshirishga oid bilim, ko’nikma va malakalar);
- kommunikativ kompetensiya (pedagogik faoliyatni ijodiy amalga oshirishga oid bilim, ko’nikma va malaka) professionallik va kompetentlik tushunchalari umumiy xususiyatlarga ega. Shuni ta’kidlash kerakki, har doim ham belgilangan talablar va standartlarga to‘liq mos keladigan odamlar chinakam professionallar bo‘lavermaydi, sabab, ba’zilari bilimlarni amalda qanday qo‘llashni bilishmaydi, demak, bunday pedagogik faoliyat samarasiz bo‘lib qolaveradi.

Kasbiy pedagogik kompetensiyalarni alohida turlarga ajratish maqsadga muvoqdir:

- maxsus pedagogik kompetensiya;
- pedagogik faoliyatni zarur darajada amalga oshirish uchun yetarli ma’lumotga ega bo‘lish.

Bundan tashqari, pedagogning o‘z kasbiy darajasini munosib baholay olishi va mutaxassis sifatida o‘z rivojlanishini belgilash qobiliyati ushbu turga bog’liq;

- ijtimoiy pedagogik kompetensiya;
- ijtimoiy vakolat darajasi pedagogning hamkasblari bilan munosabatlarni samarali qurishi, birgalikdagi harakatlarni rejalashtirish qobiliyatini belgilaydi.

Samarali aloqa ko‘nikmalari, pedagogik madaniyat va ish natijalari uchun javobgarlik;

- bularning barchasi ijtimoiy pedagogik kompetensiya tushunchasiga kiritilgan;

- shaxsiy pedagogik kompetensiya;

- bu pedagogik ishni oqilona tashkil etish qobiliyati bo‘lib, vaqtni boshqarish, shaxsiy o‘sishga intilish uning asosiy tarkibiy qismlaridir.

Shaxsiy pedagogik kompetensiyaning yuqori darajasi ega bo‘lgan ishchilar charchashga kamroq moyil, vaqt bosimida ishlashga qodir.

Kompetenlik modelini yaratish bo‘yicha quyidagi algoritmni taklif etishimiz mumkin:

1-bosqich: lavozim yo‘riknomasini ishlab chiqish. Ushbu bosqichda lavozim uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalar turlarini aniq ko‘rsatish muhimdir.

2-bosqich: tekshirish sur’atini aniqlash. Bu ta’lim muassasasining o‘ziga xos xususiyatlariga va kadrlar almashinuviga bog’liq.

3-bosqich: har bir o‘rin uchun taqqoslash asosida sinov yoki imtihonni o‘tkazish tartibini tasdiqlash.

4-bosqich: sinov yoki imtihondan o‘tish.

5-bosqich: ma’lumotlarni tahlil qilish va ularni tizimga keltirish.

6-bosqich: baholash natijalari to‘g’risida qaror qabul qilish: qo‘shimcha o‘qishga yuborish, boshqa lavozimga o‘tish, ishdan bo‘shatish.

7-bosqich: hisobot davrida ta’lim muassasasining vakolati va ishini baholash samaradorligini yakuniy tahlilini qilish.

8-bosqich: xavf-xatar va to‘siqlar bo‘yicha ish namunasini to‘liq ishlab chiqish.

Derkach tomonidan kasbiy muloqatdagi kompetentlikning - kommunikativlik yoki muloqotchanlik kompetentligi (kasbdoshlar bilan muloqot qila olish qobiliyati), - ijtimoiy-perseptiv kompetentlik (boshqa kishilarni idrok qilish va baholay olish qobiliyati), differansial va psixologik kompetentlik (insonlar o’rtasidagi individual psixologik tafovutlarni farqlay olish), - diagnostik kompetentlik (boshqa kishilarga xos bo’lgan xususiyatlarni o’rganish qobiliyati), - axloqiy kompetentlik (shu kasb taqozo etadigan odob-axloq normalariga rioya qilish), - empatik kompetentlik (jamoa a’zolariga hamdard bo’la olish, ularni to’g’ri tushunish va boshqa tarkibiy qismlari ajaratib ko’rsatilgan.

Mutaxassisning ijtimoiy-perseptiv kompetentligi xususiyatlarining tuzilishi:

- boshqa kishilarni idrok qilish, tushunish va baholashning aniqliligi;

- ijtimoiy sub’yektlar bilan tizimli munosabat o’rnata olish qobiliyatining mavjudligi;

- idrok qilinayotgan shax sning xulq-atvori va xususiyatlarini fikran adekvat tarzda modellashtira olish;

- shaxslararo baholash jarayonida turli mezonlardan foydalana olish va boshqalar. Bo’lajak mutaxassislarda kasbiy kompetentlikni shakllantirish uchun avvalo kuzatuvchanlik xususiyatining rivojlanishiga, ya’ni perseptiv, kognitiv, refleksiv, empativ, motivatsion va prognostik jihatlarining taraqqiy etishiga e’tibor qaratish lozim. Pedagogik faoliyat va muloqot jarayonida ijtimoiy-perseptiv kompetentlikka ega bo’lib borish uchun mutaxassis o’zida insonparvarlik, ijtimoiy-refleksiv, bilim hamda ko’nikmalar, ijobiy kasbiy “men”- siymosi, ba’zi shaxsga xos sifatlar (intellekt, iroda, empatiya, kuzatuvchanlik, mehribonlik, hissiy bag’rikenglik va boshqalar)ni shakllantirishga oid mashg’ulotlar bilan shug’ullnishi maqsadga muvofiqdir.

Mumkin bo’lgan qulay sharoitlarni yaratib berish orqali unda ijtimoiy-perseptiv kompetentlikni shakllantirish mumkin. Buning uchun nafaqat shu sohaga oid bilim, ko’nikma va malakalarni o’zlashtirishi, balki insonlar bilan muloqot o’rnatish texnikasini egallash, motivatsion sohani rivojlantirish, psixologik bilimdonligini oshirib borish, kasbiy faoliyatga psixologik jihatdan tayyorgarlik ko’rib borish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

(1. Семина Е.А. (2010). Компетентностная модель выпускника педагогического вуза - будущего учителя математики. Альманах современной науки и образования. - № 5 (36). - С. 133-135.

2. Muslimov N.A., Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. (2013). Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. - T.: Fan va texnologiya nashriyoti.

3. Митина Л.М. (2004). Психология труда и профессионального развития учителя. М.: Академия. - 320 с.

4. Rasulova Z.D. (2020). Pedagogical peculiarities of developing socioperceptive competence in learners. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. 8:1, pp. 30-34.

5. Расулова З.Д. (2020). Дидактические основы развития у будущих учителей креативного мышления. European science, vol. 51, no. 2-2, pp. 65-68)

MILLIY VIRTUAL TA’LIM MUHITIDA IQTIDORLI TALABALAR UCHUN KURSLAR TASHKIL ETISH METODIKASI

Delov To‘lqin Erkinovich
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti dotsenti

Anotatsiya: Ushbu maqolada milliy virtual ta’lim muhitida iqtidorli talabalar uchun kurslar tashkil etish, uning ta’limdagi o‘rni va ahamiyati tushuntiriladi. Maqolada loyihada amalga oshirilgan vacademia.uz milliy virtual platformasida kurslar yaratish va darslarni tanishtirish jarayonlari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Masofaviy ta’lim, o‘qitish, virtual o‘qitish, vAcademia.uz, 3D muhiti, virtual dunyolar, kurslar, ta’lim va o‘rganish.

Hozirgi vaqtda virtual reallik texnologiyasi ta’limni rivojlantirishning yangi ta’lim vositasiga aylandi. An’anaviy ta’lim talabalarga faqat bilim beradi, endi virtual haqiqat texnologiyasi talabalarga jonli o‘quv muhitini yaratishga yordam berish uchun ishlatilishi mumkin, shunda talabalar uni real hayotda boshdan kechirishlari mumkin. Passiv infuziya bilan solishtirganda, passiv infuziya bilan solishtirganda, xotirani kuchaytirish hissi, virtual haqiqat texnologiyasidan foydalangan holda, avtonom o‘rganishni amalga oshirish talabani qabul qilish imkonini beradi, talabalarning o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini rag‘batlantirish osonroq. talabalarga virtual haqiqat texnologiyalaridan foydalangan holda yaxshiroq o‘rganishga yordam beradigan mavzular haqidagi virtual dunyo[11].

Xususan, O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida virtual ta’limdan foydalanish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Misol tariqasida IL-4721071198-sonli “3D texnologiyalari asosida milliy virtual axborot texnologiyalari universitetini yaratish” nomli innovatsion loyiha ishini olishimiz mumkin. Mazkur loyiha 2022-2023 yillarga mo‘ljallangan bo‘lib, loyiha doirasida keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirish rejalashtirilgan[12].

Virtual Akademiya virtual olamlarda o‘rganish uchun sifat jihatidan yangi yondashuvni taklif etadi.

Virtual olamlar turli mamlakatlar yoki joylardan mavzu bo‘yicha mutaxassislar, o‘qituvchilar va talabalarni birlashtirgan guruhlar yoki jamoalarni qo‘llab-quvvatlash

[11] Делов Т. Э. Иқтидорли талабаларни бошқаришда ахборот технологияларидан фойдаланиш самарадорлиги //Современное образование (Узбекистан). – 2018. – №. 12. – С. 3-8.
[12] Nuraliyev Faxriddin Murodillayevich, Delov To‘lqin Erkinovich, Ubbiyev Alisher Tairovich Virtual ta’lim muhiti (tizimi) va uni ta’limga joriy qilinishi tahlili// Современное образование (Узбекистан). 2022. №6 (115). URL: h ttps://cyberleninka.ru/article/n/virtual-ta-lim-muhiti-tizimi-va-uni-ta-limga-joriy-qilinishi-tahlili (дата обращения: 04.10.2022).

orqali samarali masofaviy va onlayn ta’lim uchun ajoyib imkoniyatlar yaratadi. Shunday qilib, yangi hamkorlikdagi elektron ta’lim yondashuvlarini ishlab chiqish osonlashtiriladi[13].

Virtual Akademiya - bu uch o‘lchovli ko‘p foydalanuvchili ta’lim platformasi bo‘lib, siz bir vaqtning o‘zida birdan bir necha o‘nlab foydalanuvchilardan iborat guruhlar uchun o‘quv kurslari, uchrashuvlar, taqdimotlar, treninglar o‘tkazishingiz va qatnashishingiz mumkin bo‘lgan xizmatlarni taqdim etadi.


Virtual ta’limni tashkil etishda vAcademia dasturidan foydalanish yaxshi samara beradi. Bu dasturdan ro‘yhatdan o‘tib biror-bir fan yuzasidan yoki ixtiyoriy kurs tashkil qilish orqali butun dunyo olimlari darslarida qatnashish mumkin bo‘ladi.

Loyiha doirasida amalga oshiriladigan ishning asosiy hamkorlaridan biri Multimedia tizimi laboratoriyasi mudiri t.f.n., dotsent Mikhail N. Morozov bilan birgalikda sifatli ishlar tashkil etilmoqda [14] . Ularning vAcademia dasturidan foydalanib tashkil etgan juda ko‘p dars mashg‘ulotlari talabalar va mustaqil foydalanuvchilar uchun yaxshi manba sifatida taqdim etilgan. Biz ham loyiha doirasida o‘zbek tilida vAcademia dasturidan foydalanib virtual darslarni tashkil etishni amalga oshiramiz.

Avvalambor vacademia.uz saytida ro‘yxatdan o‘tamiz va kurs tashkil qilishni amalga oshiramiz. Bu jarayon kurs haqida ma’lumot kiritish bilan davom ettiriladi.


13 Делов Т. Э. ИҚТИДОРЛИ ТАЛАБАЛАРНИ АНИҚЛАШ ТИЗИМИНИ РАҚАМЛАШТИРИШ САМАРАДОРЛИГИ //Современное образование (Узбекистан). – 2021. – №. 12 (109). – С. 12-17.

[14] Morozov M.N., Nuraliev F.M, Hamidov V.S , Giyosov U.E., Placing a custom 3d object in the virtual world environment. // Journal of Advances in information technology engineering technology & engineering geometry №2, Vol.2, page.32-39, 2020, Тошкент. https://dx.doi.org/10.24412/2181-1431-2020-2-3-8




1-rasm. Vacademia.uz saytida ro‘yhatdan o‘tish

Dasturda berilgan menyular satridagi “o‘qitish” bo‘limidan yangi kurs yoki fan yaratiladi.



2-rasm. Kursimiz haqida ma’lumotlarni kiritish

Bu joyda kursimiz haqida ma’lumotlarni kiritamiz, dars jadvalini tuzib chiqamiz va kursimizga talabalar yoki tinglovchilarni taklif qilishni amalga oshiramiz.



3-rasm. Dars jadvalini tayyorlash

Vacademia.uz milliy virtual tizimida kurs yaratishda saytda ro‘yxatdan o‘tgandan keyin vacademia.uz dasturini yuklab olish kerak bo‘ladi. Chunku asosiy darslarni tashkil etishda 3D

ko‘rinishidagi ob’ektlarni kompyuterda o‘rnatilgan dasturda amalga oshiriladi. Vacademia.uz saytida ro‘yxatdan o‘tgan login va parol bilan kompyuterda o‘rnatilgan dasturdagi login parol bir xil bo‘lishi kerak.

Hurmatli xonim(janob) To`lqin Delov!

Sizni darsimga tashrif buyurishga taklif qilaman "**tezis yozish tartibi va qoidalari**", vAcademia virtual olamida bo'lib o'tadigan 10 Jumadis soni 2023 в 10:30 (UTC +3:00:00 Minsk, Baghdad, Kuwait).

Dars tavsifi:
Tezis yozish qonun qoidalari va uni nashr etish tartibi

O'tkazish manzili: Joylashuv joyi «Location Uzbekistan»



Agar taklifni qabul qilishga va kursga yozilishga rozi bo'lsangiz, quyidagi havolaga o'ting:
http://vacademia.uz/teaching/showsinglelesson/id/33
yoki brauzeringizning adress satriga nusxa ko'chiring.
Agar darga kirishni xohlasangiz,quyidagi havolaga o'ting
http://vacademia.uz/site/gotoLesson/id/33
yoki brauzeringizning adress satriga nusxa ko'chiring.
Darsga kirishga ruxsat boshlanishidan 30 daqiqa oldin ochiladi.

Foydali maslahatlar:
- Agar vAcademia kompyuteringizda allaqachon o'rnatilgan bo'lsa, u avtomatik ravishda ishga tushadi.
- Agar vAcademia allaqachon ishlayotgan bo'lsa, siz bir necha soniyadan so'ng allaqachon boshlangan yoki boshlanmoqchi bo'lgan darsda bo'lasiz.
- Agar vAcademia kompyuteringizda o'rnatilmagan bo'lsa, quydagi havolaga o'ting: http://vacademia.uz/site/downloadclient, vAcademia klinet dasturini kompyuteringizga yuklab oling va o'rnating.

Hurmat bilan,
To`lqin Delov
http://vacademia.uz/userprofile/show/id/40

4-rasm. Darsimizda qatnashish uchun elektron taklifnoma



6 rasm. Vacademia muhitida obyekt va predmet bilan ishlash jarayonini sichqoncha orqali amalga oshiramiz.



7 rasm. Interaktiv doskamiz bilan ishlashni ko‘rib chiqamiz.

1. **Asosiy menyu** - ilova sozlamalarini o‘zgartirish, avatarlarning harakatini va aloqasini boshqarish tugmalarini o‘z ichiga oladi.

2. **Asboblar paneli** - ob’ektlarni joylashtirish, avatarning ko‘rinishini sozlash, resurslar to‘plami bilan ishlash, darslarni o‘tkazish va yozuvlarni ko‘rish, boshqa foydalanuvchilarni taklif qilish va testlarni yaratish tugmalaridan iborat.

3. **Bildirishnomalar paneli** - kontekst menyusi orqali ilova bilan ishlashda shakllanadi va kontekst menyusi chaqiriladigan ob’ektga qarab turli xil tugmalar to‘plamini o‘z ichiga olishi mumkin. Rejimlar va ilovalardan chiqish uchun foydalaniladi.

4. **Kontekst menyusi** – ob’ektda sichqonchaning o‘ng tugmachasini bosish orqali chaqiriladi va ushbu ob’ektda mumkin bo‘lgan amallarni bajarish uchun tugmalar to‘plamini o‘z ichiga oladi.



8 rasm. vAcademiada avatar tanlash

vAcademiadagi foydalanuvchi vakili uch o‘lchamli belgi - avatar bo‘lib, u o‘ziga xos sozlanishi ko‘rinishga ega.

Avatarni tanlash saytda ro‘yxatdan o‘tish paytida amalga oshiriladi. Kelajakda avatar muharriri yordamida tashqi ko‘rinishini o‘zgartirishimiz mumkin.



6-rasm. vAcademia'da 3D obyektlar bilan ish jarayoni

3D ob’ektlar bilan ishlash vositalari quyidagi yorliqlarga guruhlangan:

Ob’ektlar - ob’ektlarni joylashtirish uchun

Manzara - joylashuvdagi ob’ektlarni joylashtirishni saqlash va tiklash.

Botlar - kompyuter belgilar-botlarini joylashtirish uchun.

Stsenariylar - vJS tilida uch o‘lchovli ob’ektlarning xatti-harakatlarini dasturlash uchun.

Darsni tashkil etishda auditoriyani jihozlab olish talab etiladi.



9-rasm. Dars jarayonini olib borish

Darsimiz Maqola yozish bosqichlari haqida bo‘lib unda Maqola va tezislar yozishning o‘ziga xos bo‘lgan qonuniyatlardan kelib chiqqan holda, o‘quv jarayonidagi o‘zaro munosabatlar ishtirokchilari o‘rtasida kompetentsiyalarni shakllantirish va rivojlantirish asosan talabalarning turli xil o‘quv-tarbiyaviy ta’lim bilan mustaqil ishlashi natijasida yuzaga kelishi aniqlandi. va uslubiy qo‘llanmalar (elektron darsliklar, interfaol o‘quv dasturlari, elektron bilimlar bazasi), bundan tashqari, aloqa tarmoqlaridan (Internet) foydalanishda, bu ko‘proq darajada ijodiy faoliyat tajribasini doimiy ravishda boyitish, o‘zini o‘zi boshqarish mexanizmini shakllantirishga yordam beradi.

Virtual olamlar ham turli texnologik talablarga ega. Ularga plaginni o‘rnatish orqali standart veb-brauzer orqali kirish mumkin (agar ularda to‘liq 3D grafika bo‘lmasa) yoki to‘liq 3D dunyosi bo‘lsa, foydalanuvchi tegishli kompyuter uskunasi va mustaqil dasturiy ta’minot mijozini (ilova) o‘rnatishi kerak bo‘ladi. Aksariyat ilg‘or virtual olamlar foydalanuvchi tomonida keng polosali internet ulanishini ham talab qiladi.

Ko‘rib chiqilgan ma’lumotlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, tajriba guruh ishtirokchilari dastlab ana’naviy ta’limda foydalanib ko‘rishdi va keyin virtual dunyoda mashg‘ulotlarni olib borishdi. Dars oxiriga kelib talabalarning virtual dunyoda mashg‘ulotlarni tashkil etishga bo‘lgan mavxum savollarei sezilarli darajada kamaydi. Virtual tizimda kurslarni tashkil etish va dars mashg‘ulotlarini rejalashtirish haqiqatan ham aniq, taklif qilingan faoliyatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Morozov M.N., Nuraliev F.M, Hamidov V.S, Giyosov U.E., Placing a custom 3d object in the virtual world environment. // Journal of Advances in information technology engineering technology & engineering geometry №2, Vol.2, page.32-39, 2020, Тошкент. https://dx.doi.org/10.24412/2181-1431-2020-2-3-8

2. Giyosov, Ulugbek; Bhargava, Sandeep; and nuraliev, f m. (2020) "modern technology enhanced adaptive and cognitive learning in the virtual reality environment," Scientific-technical journal: Vol. 24 : Iss. 6, Article 12.(https://uzjournals.edu.uz/ ferpi /vol24/iss6/12/)

3. Nuraliev F.M., Giyosov U.E., Yoshihiro Okada. Enhancing teaching approach with 3D primitives in virtual and augmented reality // 11th Scientific The world Conference Intelligent systems for industrial automation-"WCIS-2020" 26-28 November 2019, Tashkent Uzbekistan.

4. Делов Т. Э. ИҚТИДОРЛИ ТАЛАБАЛАРНИ АНИҚЛАШ ТИЗИМИНИ РАҚАМЛАШТИРИШ САМАРАДОРЛИГИ //Современное образование (Узбекистан). – 2021. – №. 12 (109). – С. 12-17.

5. Делов Т. Э. Иқтидорли талабаларни бошқаришда ахборот

технологияларидан фойдаланиш самарадорлиги //Современное образование (Узбекистан). – 2018. – №. 12. – С. 3-8.

6. Nuraliyev Faxriddin Murodillayevich, Delov To‘lqin Erkinovich, Ubbiyev Alisher Tairovich Virtual ta’lim muhiti (tizimi) va uni ta’limga joriy qilinishi tahlili// Современное образование (Узбекистан). 2022. №6 (115). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/virtual-ta-lim-muhiti-tizimi-va-uni-ta-limga-joriy-qilinishi-tahlili (дата обращения: 04.10.2022).

TO‘G‘RI CHIZIQQA PARALLEL VA UNI KESIB O‘TUVCHI TO‘G‘RI CHIZIQ O‘TKAZISHGA OID MASALALARNI ISHLASH METODIKASI

Okboyev Olti Yusupovich
-TATU Nurafshon filiali
O.Okboyev@bk.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada to‘g‘ri chiziqlarning o‘zaro holatlariga oid masalalarni ishlash metodikasi keltirilgan.

Kalit so‘zlar: ko‘nikma, malaka, parallel chiziqlar, perpendikulyar chiziqlar, proektsiya, nuqta, gorizontal, frontal, profil, tekislik

Аннотация: В статье приведена методика решения задач по теме взаимное положение прямых.


Ключевые слова: умение, навыки, параллельные линии, перпендикулярные линии, проекция, точка, горизонталь, фронталь, профиль, плоскости.

Texnika oliy o‘quv yurtlarida “Chizma geometriya” fanidan masalalar ishlashda talabalarda muammolar mavjud. Bu muammolardan biri talabalarning fazoviy tasavvurni yetarli emasligi va ta’riflarni yod olish hamda uni masalalarni ishlashda qo‘llash ko‘nikmalarini yetarli emasligidir. Bu muammolarni hal etishda talabalar quyidagi ta’riflarni bilishi va shu ta’riflardan kelib chiqib masalalarni ishlashda qo‘llash ko‘nikmasiga ega bo‘lishi lozim:


1. Fazoda ikkita to‘g‘ri chiziq parallel bo‘lsa, ularning proektsiyalari ham parallel bo‘ladi;
2. Fazoda ikkita to‘g‘ri chiziq kesishgan bo‘lsa, ularning proektsiyalari ham kesishgan bo‘ladi va ularning kesishgan nuqtalaring proektsiyalari bitta proektsiyalovchi to‘g‘ri chiziqda yotadi;
3. To‘g‘ri chiziq tekislikdagi biror to‘g‘ri chiziqqa parallel bo‘lsa, to‘g‘ri chiziq tekislikka parallel bo‘ladi;
4. To‘g‘ri chiziq tekislikdagi ikkita kesishgan to‘g‘ri chiziqqa perpendikulyar bo‘lsa, to‘g‘ri chiziq tekislikka perpendikulyar bo‘ladi;
5. Tekis burchakning biror tomoni biror bir proektsiyalar tekisligiga parallel bo‘lsa, tekis burchakning proektsiyasi o‘zgarishsiz qoladi;
6. Bir tekislikdagi ikkita kesishgan to‘g‘ri chiziqlarga ikkinchi tekislikdagi ikkita kesishgan to‘g‘ri chiziqlar parallel bo‘lsa, tekisliklar o‘zaro parallel bo‘ladi.

Yuqoridagi ta’riflardan kelib chiqib masalalarni ishlab ko‘raylik:

1- ***Masala***. M nuqta orqali k to‘g‘ri chiziqqa parallel *l* to‘g‘ri chiziq va to‘g‘ri chiziqni kesib o‘tuvchi gorizontal h to‘g‘ri chiziq o‘tkazing (1 - chizma).



1-chizma




2-chizma

Echish: Masalani ishlashda ikkita ta’rifdan foydalaniladi:


1. Fazodagi ikkita to‘g‘ri chiziq parallel bo‘lsa uning proektsiyalari ham parallel bo‘ladi. Ta’rifdan kelib chiqib, M nuqtadan k to‘g‘ri chiziqqa parallel *l* to‘g‘ri chiziq o‘tkazish uchun, gorizontal proektsiyadagi M_1 nuqtadan k_1 to‘g‘ri chiziqqa parallel l_1 to‘g‘ri chiziq va frontal proektsiyadagi M_2 nuqtadan k_2 to‘g‘ri chiziqqa parallel l_2 to‘g‘ri chiziq o‘tkazish yetarli bo‘ladi (2-chizma).

2. Fazoda ikkita kesishgan to‘g‘ri chiziqlarning proektsiyalari ham kesishgan bo‘ladi va ularning kesishgan nuqtalari bitta proektsiyalovchi to‘g‘ri chiziqda yotadi. Bu ta’rifdan kelib chiqib, frontal proektsiyadagi M_2 nuqtadan o‘tuvchi va k_2 to‘g‘ri chiziqni kesuvchi gorizontal h_2 to‘g‘ri chiziq o‘tkazamiz. h to‘g‘ri chiziq gorizontal proektsiyalar tekisligiga parallel va xususiy vaziyatdagi to‘g‘ri chiziq bo‘lib hisoblanadi. h_2 to‘g‘ri chiziq k_2 to‘g‘ri chiziqni N_2 nuqtada kesib o‘tadi (3-chizma). h to‘g‘ri chiziq bilan k to‘g‘ri chiziqni kesishgan N nuqtasining N_1 gorizontal proektsiyasini qurib olinadi so‘ngra N_1 va M_1 nuqtalar tutashtirilib h gorizontalning gorizontali hosil qilinadi. h to‘g‘ri chiziq bilan k to‘g‘ri chiziqni kesishgan N nuqtasining gorizontal N_1 va frontal N_2 nuqtalari bitta N_1N_2 to‘g‘ri chiziqda yotadi.

z



3-chizma



4-chizma

Birgina bitta masalani yechilishida to‘g‘ri chiziqning xususiy holi, ikkita to‘g‘ri chiziqning parallelligi hamda ikkita to‘g‘ri chiziqning kesishganligi ta’riflaridan foydalanildi.

Yuqoridagi masalalarni ishlash jarayonida ta’riflarni bilish va ularni qo‘llash ko‘nikmalari muhim o‘rin tutadi. Masala ishlash orqali talabada fazoviy tasavvur oshadi. Fazoviy tasavvuri shakllangan talaba chizma geometriya fanidan masalalar yechish ko‘nikmasi tez shakllanadi.. Ta’riflardan o‘z o‘rnida foydalanish masalalarning yechimlarini topishda muhim ahamiyat kasb etishini yuqoridagi masaladan ko‘rish mumkin[1-10].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduganiyev A., Mustafoyeva M. Educational Resources Based On Virtual Reality //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 2035-2042.
2. Abduganiyev, Akhror, and Munojat Mustafoyeva. "Educational Resources Based On Virtual Reality." Academic research in educational sciences 2.4 (2021): 2035-2042.
3. Abduganiyev, A., & Mustafoyeva, M. (2021). Educational Resources Based On Virtual Reality. Academic research in educational sciences, 2(4), 2035-2042.
4. Oltinbekovna M. M. PSYCHOLOGICAL APPROACH TO TEACHING A FUTURE PHYSICS TEACHER //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 86-92.
5. Oltinbekovna, Mustafoyeva Munojat. "PSYCHOLOGICAL APPROACH TO TEACHING A FUTURE PHYSICS TEACHER." Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences 1.5 (2022): 86-92.
6. Oltinbekovna, M. M. (2022). PSYCHOLOGICAL APPROACH TO TEACHING A FUTURE PHYSICS TEACHER. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 1(5), 86-92.
7. Mustafoyeva M. Induvidual ta ‘lim trayektoriyasi-talabaning ta ‘lim sohasidagi shaxsiy imkoniyatlarini amalga oshirishning individual yo‗ nalishi //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 87-88.
8. Mustafoyeva, Munojat. "Induvidual ta ‘lim trayektoriyasi-talabaning ta ‘lim sohasidagi shaxsiy imkoniyatlarini amalga oshirishning individual yo‗ nalishi." Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar 1.1 (2022): 87-88.
9. Mustafoyeva, M. (2022). Induvidual ta ‘lim trayektoriyasi-talabaning ta ‘lim sohasidagi shaxsiy imkoniyatlarini amalga oshirishning individual yo‗ nalishi.

Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar, 1(1), 87-88.

10. Mustafoyeva M. Talabalarni induvidual ta ‘lim trayektoriyasi orqali o_ qitishning samaradorligi //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 88-90.

HISTORY OF TRICHODERMA FUNGUS (TRICHODERMA ZAMBURUĞINING TARIXI)

Shomurodova Marjona Zarif qizi
Qarshi davlat universiteti talabasi

Annotation: Trichoderma – a Treasure house of Structurally diverse Secondary Metabolites with Medical Importance.In this article, we covered the 382 species of the Trichoderma genus formed on the basis of data collected over 220 years, as well as the historical formation, biological activity and unique characteristics of the representatives of the genus.

Key words: Trichoderma, secondary metabolites, chemical diversity, biological activity, bioactive compounds.:

Аннотация: Trichoderma – сокровищница структурно разнообразных вторичных метаболитов, имеющих медицинское значение.В данной статье мы рассмотрели 382 вида рода Trichoderma, сформировавшихся на основе данных, собранных за 220 лет, а также историческое формирование, биологическую активность и уникальные характеристики представителей рода.

Ключевые слова: Trichoderma, вторичные метаболиты, химическое разнообразие, биологическая активность, биологически активные соединения.

Annotatsiya: Trichoderma – dorivor ahamiyatga ega bo’lgan tarkibiy jihatdan xilma-xil, ikkilamchi metabolitlar xazinasi.Ushbu maqolada Trichoderma jinsining 220 yildan ortiq vaqt davomida to‘plangan ma’lumotlari asosida shakllangan 382ta turi bilan birgalikda jins vakillarining tarixiy shakllanishi,biologik faolligini hamda noyob xususiyatlari haqida yoritdik.

Kalit so’zlar: Trichoderma, ikkilamchi metabolitlar, kimyoviy xilma-xillik, biologik faollik bioaktiv birikmalar.

Zamburug’lar insoniyat tarixida dori vositalari va maxsulotlarini kashf etishda ajralmas rol o’ynaydi. Chunki ular muhim dorivor salohiyatga ega bo’lgan turli xil maxsus metabolitlarni sintez qilish uchun noyob qobiliyatga ega. Shu sababli yillar davomida Trichoderma zamburug‘i ustida juda ko‘plab olimlar izlanishlar olib borishdi.Ushbu izlanishlar natijasida to‘plangan barcha ma’lumotlar butun jinsning ulkan tarixini yaratdi.Trichoderma yaxshi o’rganilgan filamentli zamburug’ bo’lib, tabiatda erkin holda uchraydi. Ular bioaktiv moddalar sifatida keng sotiladi.

Trichoderma tomonidan ishlab chiqarilgan ikkilamchi metabolitlar ajoyib biologik faolligi va jozibali kimyoviy tuzilishga ega bo’lganligi sababli katta e’tiborga sazovor bo’ldi. Bundan tashqari, ekologik ta'sirlarga uchrasada, Trichoderma ham ikkilamchi metabolitlarni ishlab chiqarishi mumkin, ular nafaqat

signal uzatishda ishtirok etadilar, balki turli organizmlar bilan aloqa qilish orqali ham o'tadilar (Keswani va boshq., 2014 ; Zeilinger va boshq., 2016). Bundan tashqari, Trichodermaning bionazorar dorilari sifatida muvaffaqiyatlari, hech bo'lmaganda qisman, ularning mo'l-ko'l ikkilamchi metabolitlarni ajratish qobiliyatiga bog'liq.

Trichoderma zamburug‘lari insoniyat tarixi davomida eksklyuziv moddalarni kashf qilishda asosiy vakil sifatida qatnashadi, chunki ular muhim tibbiy salohiyatga ega bo'lgan turli ikkilamchi metabolitlarni sintez qilish uchun noyob qobiliyatga ega. Penitsillinning filamentli qo'ziqorin turlaridan Penicillium kashfiyoti farmatsevtika tadqiqotlarida muhim voqea bo'ldi (Fleming, 1929). O'shandan beri qo'ziqorin ikkilamchi metabolitlari bo'yicha kimyoviy tadqiqotlar tadqiqot nuqtasiga aylandi (Zhang P. va boshq., 2020). Ko'p sonli qo'ziqorin ikkilamchi metabolitlari topildi, ularning ko'pchiligi dori vositasi sifatida potentsialga ega (Newman va Cragg, 2016). Penicilliumga mansub qo'ziqorin turlari vaTalaromitslar vakillik florasi bo'lib, ko'plab ikkilamchi metabolitlar qiziqarli kimyoviy skeletlarga ega va ushbu turlardan tavsiflangan bioaktivliklarga ega (Frisvad, 2014). So'nggi yillarda Trichoderma'dan 1000 dan ortiq metabolitlar ajratilgan (Zeylinger va boshq., 2016). Shunga ko'ra, Trichodermaning turli jihatlari bo'yicha ko'plab sharhlar, nafaqat metabolitlarning kimyoviy xilma-xilligi, balki turli xil bioaktivliklar va ularning potentsial qo'llanilishi uchun ham nashr etilgan. Zeilinger va boshqalar. (2016) tanlangan Trichodermani ko'rib chiqdi-ikkilamchi metabolitlarni hosil qildi va biosintezda ishtirok etadigan genomik tahlil va taxminiy gen klasterlarining har tomonlama xulosasini berdi. Keswani va boshqalar. (2014) Trichodermaning maqsadli metabolitlarini sanab o'tdi va turli sohalarda, ayniqsa qishloq xo'jaligida foydalanish imkoniyatlarini ta'kidladi. Yuqorida aytib o'tilganidek, Trichoderma butun dunyoda qo'llaniladigan taniqli bionazorat agentidir. Trichodermaning ko'plab turlari anti-fitopatogenik ikkilamchi metabolitlarning eng mashhur ishlab chiqaruvchilari bo'lganligi sababli, Xan va boshqalar. (2020) Trichoderma sp ning 45 ta fungitsid ikkilamchi metabolitlarini namoyish etdi. strukturaviy ko'rinish, biosintez yo'li va ta'sir mexanizmi bilan birga.

Trichoderma – sordariomitsetlar sinfi, pezizomycotina bo’limi, Hypocreaceae oilasi, trichoderma jinsiga mansub tur hisoblanadi. Trichodermani birinchi bo’lib 1801-yilda nemis mikologi faoliyat yuritgan, mikologiya va taksonomiya fanlari rivojiga katta hissa qo’shgan olim Christian Hendrik Persoon (1761-1836) fanga kiritgan.

Trichoderma turlari ro’yxatida Trichoderma zamburug’ jinsida qabul qilingan quyidagi **382 ta** tur mavjud.Quyida ularni keltiramiz:

Trichoderma jinsi 1794-yil Kristian Xendrik Persoon tomonidan ilk bor tasvirlangan. Lekin ushbu jins taksonomiyasini hal qilish qiyinligicha qolmoqda. Uzoq vaqt davomida u faqat bitta turdan iborat deb hisoblangan. 1991-yilda Bissett

Rifai tomonidan tasvirlangan agregat turlarga asoslanib, bu jinsni qisman 5 qismga ajratdi.

- **Pachybasium** (20 tur)
- **Longibrachiatum** (10 tur)
- **Trichoderma** (5 tur)
- **Saturnisporum** (2 tur)
- **Gipokreanum** (15 tur)

1995-yildan boshlab molekulyar markerlarning paydo bo’lishi bilan Bissettning sxemasi asosan tasdiqlandi, ammo Saturnisporum Longibrachiatum va Hypocreanum monofiletik bo’lib, uning ko’plab turlari Trichoderma bilan to’plangan.

Drujina va Kubicek 2005-yilda jinsning chegaralangan golomorf (tayyor zamburug’) ekanligini tasdiqladi. Ular 88 turni aniqladilar. Trichodermaning monotipik ekanligi haqidagi e’tiqod 1969-yilda 9 turni tan olgan Rifai ishiga qadar saqlanib qoldi. Bugungi kunga kelib Trichoderma jinsida 382 tur (2020-yil)mavjud. Gipokrea Trichodermaning teleomorflari bo’lib, ularda anamorflar sifatida Hypocrea mavjud.

Trichodermaning madaniy turlari 25-30 ^{0}C da (77-86 ^{0}F) da tez o’sadi,ammo Trichodermaning ayrim turlari 45^{0}C (113 ^{0}F) da o’sadi. Ammo koloniyalar dastlab makkajo’xori unidan olingan Dekstrozli muhitda shaffof bo’ladi yoki kartoshka dekstrosi kabi boyroq muhitda oqroq bo’ladi.

Trichoderma jinsidagi ayrim turlarning tasnifi.

Trichoderma harzianum – qo’ziqorin sifatida ham ishlatiladigan qo’ziqorin. U turli hil qo’ziqorin kasalliklarini keltirib chiqaradigan qo’ziqorin patogenlarini bostirish uchun barglarini qo’llash, urug’larini davolash va tuproqni davolash uchun ishlatiladi.

Ushbu turni 1969-yilda Rifai aniqlagan. Trichoderma Harzianum :

1. Sporotrichum (Tochinai\Shimada - 1930)
2. Trichoderma Ligronum (Tochinai\Shimada - 1953)
3. Trichoderma Narcissi (Tochinai\Shimada)

ga o’xshash tur hisoblanadi. Trichoderma Harzianum jinssiz, sporalar yordamida ko’payadi.

Trichoderma Harzianum turi – mikoparazit va o’simliklarning o’sishini rag’batlantiruvchi tijoriy bionazorat agenti hisoblanadi.

Trichoderma Asperellum – Samuels, Lieckf va Nirenberk tomonidan 1999-yilda aniqlangan, Hypocreaceae oilasiga mansub zamburug’ turi. Trichoderma Viriddan molekulyar fenotipik xususiyatlari bilan farqlanishi mumkin. Eng muhim molekulyar harakteristikalar divergent ITS-1 va 28 S ketma ketliklari va endoxitinaza genining RFLP laridir.

Asosiy fenotipik belgilari konidioforlarning konidial bezaklari, joylashishi va shoxlaninshidir. Ushbu tur tijorat va eksperimental ravishda o’simlik kasalliklarini nazorat qilish uchun biopestitsid sifatida ishlatilgan.

Trichoderma asperellum o’simliklarning biotik va abiotik stresslariga chidamliligini oshirishga qodir bo’lgan o’simlik o’sishini takomillashtiruvchi zamburug’ sifatida ishlatiladi. Trichoderma Asperellumning 3 ta izolati orasida MF-8 ning GC-MS tadqiqotida 49 ta birikma topilgan. Ulardan bir nechtasi yuqori ko’p miqdorda insektitsid tasiriga adabiyot tadqiqotida aniqlangan. Trichoderma Asperellumning ikkilamchi metabolitidan ajralgan ayrim birikmalar:

1. 2-3-di gidrotiopen
2. p – simen
3. α – pinen
4. geksadekanoik kislota
5. 8-metilxinolin
6. (Ƶ,Ƶ) – 9,12-oktadekadienik kislota
7. Metil efir
8. 2-3-digidro-3-5-digidroksi-6-metil-4-puran-4-on

Trichoderma Koningii – juda keng tarqalgan tuproqda yashovchi saprotrof bo’lib dunyo bo’ylab tarqalgan. U samarali biopestitsid sifatida qishloq xo’jaligida foydalanish uchun keng qo’llanilgan, zamburug’lar keltirib chiqaradigan o’simlik kasalliklarini tartibga solishda muqobil biologik nazorat agenti sifatida tez-tez tilga olingan. Ular o’simlik ildiz to’qimalari bilan bog’liq bo’lgan endosimbiontlar bo’lib, mikopa buish qobilyati tufayli o’simliklarni o’sishini rag’batlantiradi. Turni 1902-yilda Oudem aniqlagan. U mikrob florasining turlaridan biri sifatida tasvirlagan. Trichoderma Koningiining ikkilamchi metabolitlaridan turli sohalarda qo’llaniluvchi kimyoviy moddalar olinadi.

Trichoderma jinsining ikkilamchi metabolitlaridan olinadigan moddalar xilma-xildir.


Ushbu jins a’zolari asosan bir necha zamburug’lar avlodi tomonidan ishlab chiqariladigan trixoteksin trisiklik 12,13-epositrikotik-9-ene skeletiga ega bo’lgan seskiterpenga asoslangan birikmalardir. Strukturaviy jihatdan trixotesenlar o’rnini bosish tartibiga ko’ra:

- Nivalenollar
- Neosaloniollar
- Izotrexiderminlar
- Kolonektrinlar
- Trixotesenlar
- Trixobreollar

ning turli oilalariga ajratiladi. Bugungi kunda juda ko’plab Trichoderma hosilalari topilgan.


Trichodermaning ikkilamchi metabolitlarini kashf qilishning yangi strategiyalari.

Oxirgi zamburug’ genomlari ketma ketligi ikkilamchi metabolitlar bilan bog’liq bo’lgan biosintetik gen klasterlarining ko’pchiligi sirli yoki umumiy labaratoriya sharoitida juda past darajada ifodalanganligini ko’rsatdi. Shuning uchun ko’p sonli ikkilamchi metabolitlarga qaramay Trichoderma bilan tavsiflanadi. Trichodermaning ikkilamchi metabolitlarini topishning odatiy misollari keltirilgan.



Trichodermaning ikkilamchi metabolitlarini oshishining yangi strategiyalari.

Dengizdan olingan qo’ziqorin Trichoderma sp TDU199 turli sharoitlarda bir qator diketopiperazinlarni ishlab chiqarishi aniqlandi.



Trichoderma sp tomonidan ishlab chiqarilgan diketopiperazinlar TDU 199 turli sharoitlarda.

Tadqiqotlar shuni ko’rsatdiki transkripsiya nazorati ko’proq ikkilamchi metabolitlarni faollashtirish, Trichoderma turlarining barqaror potensial metabolizmini kuchaytirishda muqum bosqich bo’lishi mumkun.

Xulosa: Trichodema tarixini o‘rganmasdan ushbu jins ustida izlanishlar olib borish mushkul vazifa. Trichoderma tarixini o‘rganish yaqin kelajak uchun juda katta muvaffaqiyatlar kalitidir. Chunki Trichoderma ildizlari hisoblangan ko’pchilik birikmalar o’rtacha va kuchli biologik faollikga ega. Ular orasida antimikrobiyal, antimikroalgal va saratonga qarshi faollik ko‘rsatadigan muhim moddalar mavjud. Ushbu tabiiy mahsulotlarning salohiyatini baholash uchun dominant bioaktivlikni ifodalaydi. Trichodermaning biokimyoviy tadqiqotlari hali qo'llanilmagan. Trichodermadan ko'plab metabolitlar ajratilgan hamturlari bo'lsa, ushbu metabolitlarning keyingi tadqiqot ishlaridan natija kutishga arziydi. Ularning barqaror gen klasterlarini faollashtirish uchun yangi yondashuvlar, jumladan, yetishtirishga asoslangan yondashuvlar, metabolomik profillash va genom qazib olishga asoslangan molekulyar yondashuvlarni qo'llash orqali doimiy ravishda ko'payib borayotgan bioaktiv birikmalar olish mumkin,bu yaqin kelajakda yangi dori-darmonlarni kashf qilish uchun foydali bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Bhardwaj, N., and Kumar, J. (2017). Characterization of volatile secondary metabolites from Trichoderma asperellum. J. Appl. Nat. Sci. 9, 954–959. doi: 10.31018/jans.v9i2.1303

2.Cai, F., Yu, G., Wang, P., Wei, Z., Fu, L., Shen, Q., et al. (2013). Harzianolide, a novel plant growth regulator and systemic resistance elicitor from Trichodermaharzianum. Plant Physiol. Biochem. 73, 106–113. doi: 10.1016/j.plaphy.2013. 08.011

3.Chen, L., Niu, S. B., Li, L., Ding, G., Yu, M., Zhang, G. S., et al. (2017). Trichoderpyrone, a unique polyketide hybrid with a cyclopentenone-pyrone skeleton from the plant endophytic fungus Trichoderma gamsii. J. Nat. Prod. 80, 1944–1947. doi: 10.1021/acs.jnatprod.7b00190

4.Cui, J., Shang, R. Y., Sun, M., Li, Y. X., Liu, H. Y., Lin, H. W., et al. (2020). Trichodermaloids A-C, cadinane sesquiterpenes from a marine sponge symbiotic Trichoderma sp. SM16 fungus. Chem. Biodivers. 17:e2000036. doi: 10.1002/cbdv.202000036

5.Ding, G., Chen, A. J., Lan, J., Zhang, H., Chen, X., Liu, X., et al. (2012a). Sesquiterpenes and cyclopeptides from the endophytic fungus Trichoderma asperellum SAMUELS, LIECKF. & NIRENBERG. Chem. Biodivers. 9, 1205–1212. doi: 10.1002/cbdv.201100185

6.Ding, G., Chen, L., Chen, A., Tian, X., Chen, X., Zhang, H., et al. (2012b). Trichalasins C and D from the plant endophytic fungus Trichoderma gamsii. Fitoterapia 83, 541–544. doi: 10.1016/j.fitote.2011.12.021

7.Ding, G., Wang, H., Li, L., Chen, A. J., Chen, L., Chen, H., et al. (2012c). Trichoderones A and B: two pentacyclic cytochalasans from the plant endophytic fungus Trichoderma gamsii. Eur. J. Org. Chem. 2012, 2516–2519. doi: 10.1002/ejoc.201200053

8.Ding, G., Chen, L., Zhou, C., Hong-Mei, J., Liu, Y. T., Chang, X., et al. (2015). Trichoderamides A and B, a pair of stereoisomers from the plant endophytic fungus Trichoderma gamsii. J. Antibiot. 68, 409–413. doi: 10.1038/ja.2015.1

9.Ding, Z., Tao, T., Wang, L., Zhao, Y., Huang, H., Zhang, D., et al. (2019). Bioprospecting of novel and bioactive metabolites from endophytic fungi isolated from rubber tree ficus elastica leaves. J. Microbiol. Biotechnol. 29, 731–738. doi: 10.4014/jmb.1901.01015

QO’QON SHAHRI TARIXIDAN

Muhammadaminov Shermuhammad Zafarjon o’g’li
Qo’qon DPI Tarix Fakulteti Tarix o’qitish metodikasi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada go’zal va maftunkor Qo’qon shahri,uning tashkil topishi, to’liq tarixi, hozirgi kundagi ko’rinishi va shahrimizda o’tkazilgan Xalqaro hunarmandchilik festivali haqida bilib olishingiz mimkin.

Kalit so’zlar: Qo’qon, Xo’qandi latif, Xudoyorxon saroyi, Qo’qon xonligi, Xalqaro hunarmandchilik festivali.

Rivoyat qilishlaricha, Boborahim Mashrab[1640-1711] hazratlari ko’pincha yerga qarab yurar ekanlar. Bir kuni shogirdlari va muxlislari hamrohligida Xo’qandga tashrif buyurdilar. Bir shahar darvozasidan kiriboq, ko’zlarini yerdan uzib, osmonga boqadilar. Shunda hamrohlari ajablanib:

- Nuqul yerga qarab yurardingiz, nechuk endi osmonga va atrofga qarayapsiz? – deb so’raydilar.

- Ko’rmayapsizmi? – deb javob beradilar Mashrab, - Xo’qandi Latifga osmondan Allohning nuri yog’ilib turibdi…

Xo’qandi latif Markaziy Osiyoning eng yirik siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy markazlaridan biri sifatida mashhur bo’lib kelgan. Garchi hozir rasman ‘‘Qo’qon’’ deb atalsa-da, manbalarda ‘‘Xo’qand’’ hamda ‘‘Xo’qandi Latif’’ shaklida qalamga olib kelingan. Shahar nomining kelib chiqishi borasida turli talqinlar aytilgan. Bu talqinlar ichida eng mo’tabari, tan olingani quyidagichadir: qadimgi turkiy tilda ‘‘Xo’ ’’ – shamol, ‘‘kand,kent’’ – shahar ma’nosini beradi, binobarin, ‘‘Xo’qand’’ shamol shahri deganidir. Shahar iqlimi tahlili natijalaridan ma’lum bo’lishicha, shaharda bir yilda o’rta hisobda 240 kun turli tezlikda shamol esib turadi. Shaharning iqlimi mo’tadil, suvi totli va pokiza, havosi yugurik, aholisi imon-e’tiqodli, odobli, xushmuomala, nozikta’b, hozirjavob, mehmondo’st, she’riyatga moyil, ko’cha va maydonlari orasta bo’lganligi tufayli unga ‘‘Latif’’ sifatini olgan yagona shahardir.

Shaharning vujudga kelishi sanasi borasida hozircha bir to’xtamga kelingani yo’q. Qadimgi Xitoy manbalarini o’rganish asosida chiqarilgan xulosaga ko’ra, shahar miloddan avvalgi II asrda ham mavjud bo’lgan. Mustaqillik yillarida aniqrog’i 2009-2011-yillarda O’zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Arxeologiya institutining Qo’qon arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan olib borilgan qazuv ishlari asnosida shahar zamini qatlamma-qatlam o’rganildi. O’rganishlar natijasida bu yerdan sopol idishlar, uy-ro’zg’or buyumlari, qurollar va shaharning qadimgi qoldiqlari topildi. Mutaxasislar ularni tadqiq qilib, shahar taxminan miloddan avvalgi

I asrda vujudga kelgan degan xulosaga keldilar. Qadimda Farg’ona vodiysida Parkan davlati bo’lib, Qo’qon shahri bu davlat tarkibiga kirgan. Milodiy VI – VII asrlarda esa Turk xoqonligiga bo’ysungan. VIII asrning birinchi yarmida Parkan davlati arab qo’shini tomonidan zabt etilgach, Arab xalifaligi tarkibiga kiradi. ‘‘Parkan’’ atamasi arab tili talaffuziga moslanib, ‘‘Farg’ona’’ shaklini oladi. IX-XII asrlarda yashab o’tgan Sharq tarixchilari, sayyohlari va lug’atshunos olimlari o’z asarlarida Qo’qon shahrini ham qalamga olib o’tadilar. Shahrimizdan yetishib chiqqan buyuk allomalaradan biri Abu Tayyib Tohir ibn Muhammad al-Mahzumiy al-Xo’qandiy XI asrning birinchi choragida tavallud topganlar. Ularning ‘‘ibn Muhammad al-Mahzumiy’’ nisbalari[ota ismlari] ota bobolarining yetuk diniy va dunyoviy bilimga ega bo’lgan allomalar bo’lganligidan dalolat beradi. Abu Tayyib – u kishining kunyalari [mavjud yoki bo’lajak farzand ismi], Tohir – ismlari. Tohir ibn Muhammad Xo’qandda savod chiqarib, otalari, ustozlari erishgan barcha ilmlarni egalladilar. Biroq bu ilmga qanoat qilmay, bilimini takomillashtirish uchun Bag’dod shahriga yo’l oladi. O’sha paytda Bag’dod shahrida Akademiya – Bayt ul-hikma [hikmat uyi, bilimlar uyi] faoliyat ko’rsatayotgan edi. U yerda mashhur kutubxonada xizmat qiladilar va o’qiydilar. Turli fanlarga doir 30 ziyod kitoblarni yozadilar. Bu asarlar ro’yxati Yoqut Hamaviyning ‘‘Mo’jam ul-udabo’’ asarida keltirilgan. Xalifa al-Muqtadi Abu Tayyib al-Xo’qandiyni qozilik lavozimiga tayinlaydi. Bu yerda uzoq vaqt davomida ham lavozimlarini bajarib, ham shogirdlar yetishtiradilar. O’z ona shaharlari Qo’qonga qaytayotganda Samarqand shahrida to’xtab o’tadilar. Hukmdor Tamg’ach Arslonxon Muhammad ularni shaharda qolib, ilm ahliga boshchilik qilishlarini so’raydi. Bu yerda ilm-fan ravnaqiga hissa qo’shgan Abu Tayyib Xo’qandiy milodiy 1107-yilda vafot etadilar. Ular Samarqand shahriga dafn qilinadi va bu marosimga shaxsan hukmdor Arslonxon Muhammad boshchilik qiladi. Qo’qon shahri VIII-XIII asrlarda Arab xalifaligi, so’ngra tohiriylar, somoniylar, qoraxoniylar, xorazmshohlar davlatlari tarkibida bo’ldi. 1222-yili shahar Chingizxon qo’shini tomonidan yakson qilindi. Temuriylar davriga kelib Qo’qon qayta tiklandi. XVI asr boshlarida shahar Shayboniylar davlatiga, XVII asr oxirida Ashtarxoniylar humronligi ostida bo’ladi. Buxoro xonligining zaiflashuvidan foydalangan ming urug’i yo’lboshchisi Shohruhbiy 1709-yilda poytaxti Qo’qon shahri bo’lgan Qo’qon xonligiga asos soladi. Qo’qon xonligi 1709-yildan 1876-yilgacha hukm surgan.[Muhammad Yahyoxon Xo’qandiy. - Xo’qandi latif manoqibi. – T:‘‘Movarounnahr’’. 2018. 12-19-betlar]

Qo’qon xonligi davrida jami 7 ta o’rda[saroy] qurilgan bo’lib, ulardan faqat Xudoyorxon saroyigina bizgacha yetib kelgan. Birinchi saroy Qo’qon xonlgi asoschisi Shohruhbiy tomonidan 1709-1710-yillarda shaharning Ko’k To’nli Ota mavzeyida Eskiqo’rg’on deb atalgan qadimiy qal’a o’rnida qurilgan. Shohruhbiy 1721-yilgacha, ya’ni vafotiga qadar shu saroydan davlatni boshqaradi. O’sha yili

taxtga Shohruhbiyning katta o’g’li Abdurahimbiy o’tiradi. 1723-yilda Abdurahimbiy ham o’ziga yangi saroy qurdiradi. O’rdaga [saroyga] xalq ‘‘Qal’ayi Raimbiy’’ degan nom beradi. U vafot etgach, taxtga ukasi Abdulkarimbiy o’tiradi. Abdulkarimbiy ma’lum vaqt shu o’rdada yashaydi, keyinchalik bu saroy sarbozxona[askarlar yashovchi va mashq qiluvchi joy]ga aylantiriladi. Abdulkarimbiy 1740-yilda o’ziga yangi saroy qurdiradi. Bu xonlik tarixidagi 3-saroy edi. Bu saroy ‘‘Eski O’rda [Saroy]’’ nomini oldi. Bu saroyning atrofi qal’a bilan o’rab olinadi. Bu qal’aning 5 ta darvozasi bo’lgan. Xonlik tarixida eng ko’p hukmronlik qilgan Norbo’tabiy[1763-1798] dastlab ‘‘Eski O’rda[Saroy]’’ da yashaydi. Keyinchalik, 1767-yilda Qo’qonsoyning chap sohilida o’ziga yangi saroyni qurdiradi. Bu saroy ortiqcha bezaklardan holi, oddiygina bo’lgan. Xonlik tarixidagi 5-saroy Norbo’tabiyning kichik o’g’li Amir Umarxon tomonidan 1812-yilda bunyod qilingan. Saroyning chiroyliligi va zar bilan bezatilganligi uchun xalq tilida ‘‘Zarrinsaroy’’ nomini oladi. 1842-yilda Buxoro-Qo’qon urushida bu Saroy Buxoro amiri Nasrulloxon tomonidan vayron etilgan. Xonlik tarixidagi 6-saroy Umarxonning o’g’li Muhammad Alixon tomonidan 1825-1827-yillarda Chorsu maydonining sharq tomonida bunyod etilgan. Xalq tilida bu saroy – ‘‘Jahon oro’’ nomini oladi. Bu saroy oldida har kuni 3-4 ming askar mashq qilgan. Bu saroy dastlabki beshta saroyga nisbatan uzoqroq saqlangan. Xonlik davridan hozirgi kungacha yetib kelgan yagona saroy bu Xudoyorxon saroyi hisoblanadi. Bu Qo’qon xonligida qurilgan oxirgi 7-saroy. Bu saroy hukmdor Xudoyorxonning farmoni bilan 1865-1870-yillar oralig’ida qurib bitkazilgan. Bu saroy to’rt qismga bo’lingan: 1. Tashqi saroy. 2. O’rta saroy. 3.Ichki saroy. 4. Bog’. Hozirgi kunda faqat Ichki saroygina saqlanib qolgan bo’lib, xonalar soni 114 tani tashkil qilgan, bundan maqsad Qur’oni Karimdagi 114 ta surani ifodalash bo’lgan. Qurilgan 7 ta saroyning barchasi Qo’qon shahrida joylashgan, ammo urushlar va boshqa sabablar tufayli, faqatgina Xudoyorxon saroyigina bizgacha yetib kelgan.[Muhammad Yahyoxon Xo’qandiy. – Xudoyorxon O’rdasi. – T:‘‘Namangan’’. 2016. 6-50-betlar] Qo’qon xonligida hukmdorlar ham ilm-fanga homiylik qilganlar. Ular orasida Qo’qon adabiy muhitiga asos solgan Amir Umarxon [hukmdorligi 1810-1822-yillar] bor edi. Umarxon – Amiriy taxallusida she’rlar yozgan. U o’z asarlarini o’zbek va fors tillarida yozgan. Amiriyning she’rlari devonga jamlangan. Bu devon 1882-yilda Istanbulda, 1902-yilda Toshkentda bosilgan. Umarxon buyrug’i bilan fors tilidagi kitoblar o’zbek tiliga tarjima qilinadi. Masjid va madrasalar quriladi. Bu vaqtda Qo’qon shahrida 100 ga yaqin shoirlar to’plangan edi. Umarxon rafiqasi Mohlaroyim[1792, Andijon. – 1842, Qo’qon] – o’zbek shoirasi, ma’rifatparvari. ‘‘Komila’’, ‘‘Maknuna’’ va ‘‘Nodira’’ taxalluslarida she’rlar yozgan. Otasi Rahmonqulbiy - Andijon hokimi bo’lgan. 1808-yilda Mohlaroyim Umarxonga turmushga chiqqan. 1822-yilda Umarxon vafot etgach, Mohlaroyimning 14 yoshli o’g’li Muhammad Alixon taxtga o’tiradi. Muhammad Alixon ham she’rlar yozgan.

Mohlaroyim davlat ishlarida qatnashib, madaniyat va san’atni rivojlantiradi. Madrasalar va yangi binolar qurilishiga homiylik qiladi. Bir qancha kitoblarni o’zbek tiliga tarjima qildirtiradi. U yaxshi ishlagan kotiblarga va shoirlarga tilla qalam, kumush qalamdon berib, ularni ijodini rag’batlantiradi. Mohlaroyim she’riyatining asosini lirika tashkil qiladi. U muhabbat, sadoqat va vafo kuychisidir. Shoira go’zallik va sadoqat timsoli bo’lgan Sharq xotin-qizlarini kuylaydi. Malikani 1842-yilda Qo’qon shahrini bosib olgan Buxoro amiri Nasrullo farzandlari bilan birgalikda qatl ettiradi. Mohlaroyim qatorida o’sha davrning mashhur shoiralari Uvaysiy [1771-1845], Mahzuna[XIX asr], Dilshodi Barno[1801-1905] Qo’qon adabiy muhitida ijod qilishgan. Bundan tashqari Qo’qon adabiy muhitida ijod qilgan Maxmur[asl ismi Mahmud, XVIII asr oxiri – 1844], Muqimiy [1850-1903], Nizomiy Xo’qandiy[XVII asr oxiri – XVIII asr boshi] va Nodir[1743,Qo’qon – vafot etgan yili noma’lum] kabi shoirlarni ham ko’rishimiz mumkin. [Bobobekov Haydarbek Nazirbekovich. – Qo’qon tarixi. – T:‘‘FAN’’. 1996. 149-171-betlar]

Masjid qurish savob amal hisoblanib, xonlik davrida Qo’qonda hukmdorlar, sarkardalar, boylar, savdogarlar tomonidan ko’plab masjid bunyod etildi. Masjidlar soni haqida manbalarda tafovut katta. Manbalarda masjidlar soni 240, 360, 400, 420 kabi raqamlar keltirilgan. Qo’qon shahri uchun bu raqamlar ozlik qiladi. Biz o’zimizning 40 yillik tadqiqotimiz asnosida 600 dan ziyod masjid bo’lganligini aniqladik. Bizning bu da’vomizga quyidagi asos bor: tadqiqotlarimiz asnosida XIX asr oxirida Qo’qonda 360 dan ziyod mahalla bo’lganligini aniqladik. O’sha davrda har bir mahallada kamida ikkitadan, ba’zilarida esa uch-to’rtta masjid bor edi. Masjid barpo etilayotganda azon ovozi yetib borish masofasi hisobga olingan, azon ovozi yetib bormaydigan joyga boshqa masjid qurilgan. Rossiya mustamlakachiligi davrida masjidlarning hammasi yopilib, ombor, ustaxona, savdo do’konlariga va boshqa muassasalarga aylantirilgan. Hozirgi kunda shaharda bor yo’g’i 18 ta masjid saqlanib qolgan. 1876-yilda Qo’qon xonligi Rossiya tomonidan bosib olinadi. Xonlik hududi yangi tashkil topgan Turkiston general-gubernatorligiga kiritildi. Farg’ona vodiysi negizida mazkur general-gubernatorlikning Farg’ona viloyati ta’sis etildi. Qo’qon shahri 1878-yilgacha mazkur viloyatning markazi bo’ladi. Keyinchalik markaz etib yangi qurilgan Yangi Marg’ilon shahri belgilanadi. Qo’qon shahrida ko’plab ishlab chiqarish korxonalari, banklar, birjalar, iqtisodiy va savdo uyushmalari ochildi. XX asr boshlariga kelib Qo’qon savdo ko’lami bo’yicha Turkiston o’lkasida 1-o’ringa, Rossiyaning Osiyodagi shaharlari ichida 4-o’ringa chiqib oladi. 1917-yilda Rossiyada bolsheviklar tomonidan o’tkazilgan Oktyabr to’ntarishidan keyin, Qo’qon shahrida mustaqil davlat Turkiston Muxtoriyati hukumati[ko’pgina manbalarda ‘‘Qo’qon Muxtoriyati’’ tarzida ham keltiriladi.] tashkil topdi. Ammo bu hukumat 72 kun yashaydi, xolos.[Muhammad Yahyoxon Xo’qandiy. – Xo’qandi latif manoqibi. – T:‘‘Movarounnahr’’. 2018. 20-41-betlar.]

Manbalarda keltirilishicha, 1918-yilning 13-fevral kuniyoq Qo’qon shahri hamma tomondan qizil askarlar o’rab olishadi va shaharni o’qqa tutishadi. Qizil askarlarga qo’shimcha kuchlar Toshkent, Samarqand, Farg’ona shaharlaridan yordamga keladi. Albatta, Muxtoriyatni himoya qilish uchun atrofdagi shahar va qishloqlardan ham odamlar kelishdi, ammo ular tayoq, pichoq va bolta bilan qurollangan bo’lib, yaxshi qurollangan qizil askarlarga qarshi ojiz edi. Bu paytda Qo’qondagi Muxtoriyat qo’shinlari soni 2000 kishini tashkil qilgan, ularga yordamga kelgan 10000 qurolsiz tinch aholi bir necha kun davomida bolsheviklar hujumini qaytarishdi. Muxtoriyat qo’shinlari boshlig’i Kichik Ergash[1885-1918] qizil askarlarga qarshi mardonovor jang qiladi. 19-fevralda qizil askarlarga yordamga Y.Perfilyev boshchiligida piyoda, otliq, artilleriya qismlaridan iborat 11 eshelon Qo’qonga kela boshladi. 1918-yil 19-fevralda Qo’qon shahridagi Turkiston Muxtoriyati hukumati bolsheviklarning qonli hujumi natijasida ag’darib tashlandi. Shahar uch kun davomida ya’ni 19-21-fevralda yong’in ichida qoldi va qizil askarlar tomonidan talandi. Faqat Qo’qon shahrining o’zida 10000 nafar tinch aholi o’ldirildi. Shaharning to’rtdan uch qismi butunlay vayronaga aylandi. Shundan so’ng, 1918-yilning bahoridan avval Farg’ona vodiysida, so’ngra butun Turkistonda milliy-ozodlik harakati boshlandi. Bu harakat 1935-yilga qadar davom etdi. Janglarda 1.200000 turkistonliklar o’lgan, yarador bo’lgan va asirga tushgan. Qizil askarlar bu janglarda 400000 askar va ofitseridan ajralgan.[Rajabov Q, Haydarov M. – Turkiston tarixi. – T:‘‘Universitet’’. 2002. 29-31, 162-betlar]

Qo’qon shahrida savdo-sanoat ham yaxshi rivojlangan. Qo’qonda tashkil topgan firma va savdo uylari shaharda 113 ta firma do’koni ochib, tovarlar bilan savdo qilganlar. 1907-yilga kelib shaharda savdo-sanoat furmalarining soni 42 ta bo’lgan. 1912-yili esa Qo’qon-Namangan temir yo’li qurib bitkaziladi. Qo’qonda savdo-sanoatning taraqqiy topishi shu sohaga zarur bo’lgan mutaxassislarga ehtiyoj tug’diradi. Shu tufayli XX asr boshlarida shaharda tijorat bilim yurti ochildi. 1912-yilda Qo’qon shahrida Markaziy Osiyodagi birinchi futbol jamoasi tashkil etildi. Shahardagi futbol jamiyati ‘‘Farg’ona’’ nomini oldi. Hozirgi kunda futbol jamoasi ‘‘Qo’qon – 1912’’ nomi bilan o’ynamoqda. 1921-yilga kelib shahardagi kasalxonalar soni 6 ta yetdi. Aholini emlash va ularga xizmat ko’rsatish yanada yaxshilandi. Sovet hokimiyati davrida shaharning nufuzi tushirilganiga qaramay, u o’z ahamiyatini yo’qotmadi. 1991-yil 31-avgustda O’zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov yurtimiz mustaqilligini tantanali ravishda e’lon qildi. Mustaqillik yillarida Qo’qon shahrida katta obodonchilik ishlari olib borildi. Prezident Islom Karimov 2009-yil 16-oktyabr kuni shahrimizga tashrif buyurib, olib borilayotgan ishlar bilan tanishdi va shaharni yanada rivojlantirish borasida alohida qaror qabul qilindi. Shahardagi tarixiy obidalar: Norbo’tabiy madrasasi, Jome’ majmuasi, Xudoyorxon saroyi, Qo’qon xonlari daxmasi qaytadan ta’mirlandi.[Muhammad

Yahyoxon Xo’qandiy. – Xudoyorxon O’rdasi. – T:‘‘Namangan’’. 2016. 168-176-betlar.]

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirzoyoyevning 2018-yil 1-noyabrdagi 3991-sonli qarori asosida Qo’qon shahrida har 2 yilda,,Xalqaro hunarmandchilik festivali” o’tkaziladigan bo’ldi. [lex.uz] Xalqaro hay’at tomonidan ko’rik-tanlov ishtirokchilarining mahsulotlari ko’rgazmasi va mahorat darslari 5 ta nominatsiya bo’yicha baholanadigan bo’ldi: - ‘‘Eng yaxshi hunarmand’’ nominatsiyasi bo’yicha – 15000 AQSH dollari. - ‘‘Eng yosh hunarmand’’ nominatsiyasi bo’yicha – 10000 AQSH dollari. - ‘‘Eng yaxshi hunarmandchilik maktabi ustasi’’ nominatsiyasi bo’yicha - 10000 AQSH dollari.

-‘‘Qadimiy sulola davomchisi’’ nominatsiyasi bo’yicha – 5000 AQSH dollari.

-‘‘Qadimiy hunarmandchilik turini tiklagan hunarmand’’ nominatsiyasi bo’yicha – 5000 AQSH dollari. [uzreport.news]

2019-yilning 10-15-sentyabr kunlari Qo’qon shahrida Xalqaro hunarmandchilik festivali bo’lib o’tdi. Bu festivalga qiziqishi bo’lganlar handicrafters.uz sayti orqali ro’yxatdan o’tishi mumkin. 5 kun davom etgan mazkur festivalga 80 ga mamlakatdan 180 nafar saralangan hunarmand ishtirok etdi. Ularning festival bilan bog’liq xarajatlari qo’mita tomonidan qoplandi. Respublikamiz bo’yicha 1000 ga yaqin hunarmand ham festival ishtirok etdi. Festival tashkiliy ishlari Xalqaro hunarmandlar kengashi [World Craft Council] bilan hamkorlikda olib borildi.[kun.uz] Jahon Hunarmandlar Kengashi [WCC] ga 2019-yilda Qo’qon shahridan ‘‘Jahon hunarmandlar shahri’’ maqomini olishga ariza yuborilgan edi. Hay’at a’zolarining baholash hisobotlari Jahon Hunarmandlar Kengashining Ijroiya kengashi va Kengash raisi tomonidan tasdiqlangach, Qo’qon shahrini ‘‘Jahon hunarmandlar shahri’’ deb belgilashga qaror qilindi. Xalqaro Hunarmandlar festivali o’tkazilayotgan Xudoyorxon saroyi maydonida Qo’qon shahriga Jahon hunarmandlar kengashining yog’och o’ymakorligi bo’yicha ‘‘Jahon hunarmandlar shahri’’ maqomini beruvchi sertifikat Qo’qon shahar hokimi Ma’rufjon Usmonovga Hunarmandlar kengashining Osiyo-Tinch okeani mintaqasi bo’yicha Prezidenti Gada Kaddumi taqdim etdi. [xs.uz]

Birgina tarixiy ma’lumotlarning va hujjatlar tahlili shuni ko’rsatadiki, shaharda XIX asrda ishlab chiqarish bilan bog’liq 250 dan ortiq kasb-hunar turi mavjud bo’lgan. 40 dan ziyod mahalla kasb-hunar nomi bilan atalgan, zero hunarmandlarning aksariyati alohida mahallalarda istiqomat qilganlar. Hunarmandchilik taraqqiy etib, uning ayrim turlari san’at turi darajasigacha ko’tarilgan. Ayniqsa yog’och o’ymokorligi Qo’qon shahrida rivojlangan. Arxeologik qazishmalar natijasida milodiy IV-V asrlarga oid yog’och buyumlar topilgan.[Muhammad Yahyoxon Xo’qandiy. – Xudoyorxon O’rdasi. – T:‘‘Namangan’’. 2016. 177-178-betlar.] Aynan shu omillar Qo’qon shahrining hunarmandlar shahri sifatida rivoj topishida katta

ahamiyat kasb etdi. Hozirgi kunda Qo’qon shahrida joylashgan 90 ta sanoat korxonalariga 249 million 406 ming AQSH dollari miqdorida, 47 ta xizmat ko’rsatish sohasidagi tadbirkorlik sub’ektlariga 47 million 699 ming AQSH dollari miqdorida, qishloq xo’jaligi sohasida faoliyat yuritayotgan 4 ta korxonaga 1 million 145 ming AQSH dollari miqdorida investisiya kiritilishi rejalashtirilgan. [qoqon.uz]

Qo’qon shahrining aholisi yil boshidan beri 2,7 ming kishiga ko’paydi va 2020-yilning 1-oktyabr holatiga ko’ra 255.4 ming kishini tashkil qildi yoki 1.5 foizga ko’paydi. Bu haqda Qo’qon shahar statistika bo’limi xabar bermoqda. Yanvar-oktyabr oylarida Qo’qon shahrida faoliyat ko’rsatayotgan sanoat korxonalari tomonidan 2 trln 596,8 mlrd so’mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishga erishildi va o’tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 101,1 foizni tashkil etdi. [kun.uz] Hozirgi kunda Qo’qon shahrida 65 ta mahalla va ularga qarashli 535 ta ko’cha mavjud.[Muhammad Yahyoxon Dadaboyev. – Xo’qandi latif mahallalari va ko’chalarining nomlanish tarixi. – T:‘‘Farg’ona’’. 2007. 4-bet.]

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1.Muhammad Yahyoxon Xo’qandiy. – Xo’qandi latif manoqibi. – T:‘‘Movarounnahr’’. 2018.

2.Muhammad Yahyoxon Xo’qandiy. – Xudoyorxon O’rdasi. – T:‘‘Namangan’’. 2016.

3.Bobobekov Haydarbek Nazirbekovich. – Qo’qon tarixi. – T:‘‘FAN’’. 1996.

4.Rajabov Q, Haydarov M. – Turkiston tarixi. – T:‘‘Universitet’’. 2002.b

5.Muhammad Yahyoxon Dadaboyev. – Xo’qandi latif mahalalari va ko’chalarining nomlanish tarixi. – T:‘‘Farg’ona’’. 2007.

6. kun.uz

7. lex.uz

8. uzreport.news

9. xs.uz

10. qoqon.uz

YOSHLAR INNOVATSION QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY HAYOT BILAN UYG‘UNLIGI

Aliyeva Shoira Ruzibanovna
Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti
“Tarix” kafedrasi katta o’qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada yoshlar innovatsion qobiliyatlarini shakllantirishning ijtimoiy hayot bilan uyg‘unligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Ko‘p omilli innovatsiyalar turli ishlab chiqarish jarayonlariga joriy etiladigan va turli aholi ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan yangiliklar sifatida tan olinadi. Ko‘pincha bu innovatsiyalar boshqarish, marketing, madaniy xizmatlar ko‘rsatish kabi jarayonlarga tadbiq etiladi. Bu innovatsiyalarning fazilati shundaki, ular mehnat jamoalarini birlashtirish, ulardagi tashabbusni qo‘llab-quvvatlash, mehnat jarayonlariga yangicha, samarali munosabatlarni shakllantirishni nazarda tutadi.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, yoshlar, qobiliyat, ijtimoiy hayot, iqtisodiy munosabatlar, tadbirkorlik, paradigmal, tub o‘zgarishlar, farovonlik.

Аннотация. В статье научно обосновывается совместимость формирования инновационных способностей молодежи с общественной жизнью. Многофакторными инновациями признаются инновации, внедряемые в различные производственные процессы и направленные на удовлетворение потребностей различных групп населения. Часто эти инновации применяются к таким процессам, как менеджмент, маркетинг и предоставление культурных услуг. Достоинство этих нововведений в том, что они предполагают объединение трудовых коллективов, поддержку в них инициативы, формирование новых, эффективных отношений к трудовым процессам.

Ключевые слова: инновации, молодежь, способности, социальная жизнь, экономические отношения, предпринимательство, парадигма, коренные изменения, благополучие.

Abstract. The article scientifically substantiates the compatibility of the formation of innovative abilities of young people with social life. Multifactorial innovations are recognized as innovations introduced into various production processes and aimed at meeting the needs of various population groups. Often these innovations are applied to processes such as management, marketing and cultural services. The advantage of these innovations is that they involve the unification of labor collectives, support for their initiative, the formation of new, effective attitudes towards labor processes.

Keywords: innovations, youth, abilities, social life, economic relations, entrepreneurship, paradigm, fundamental changes, well-being.

Ijtimoiy taraqqiyotning iqtisodiy munosabatlar bilan bog‘liqligini isbotlashga hojat yo‘q. Biroq innovatsion faoliyatning, innovatsion izlanishlarning iqtisodiy hayotga, iqtisodiy munosabatlarga ta’sirini ochib berish har doim tadqiqotchilar diqqatini tortib kelgan. Bu borada avvalo iqtisodchilar faoldir. Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning bozor iqtisodiyotiga o‘tishi bilan bog‘liq tarzda yangi bosqich va ko‘rinishga o‘tishi, yangi-yangi mehnat qurollarini, boshqarish usullarini va moddiy ne’matlar yaratish texnologiyasini joriy etishga olib keldi. Bozor iqtisodiyotining ayrim ko‘rinishlari insoniyatga avvaldan ma’lum [1]. Biroq XX-XXI asr ushbu ko‘rinishlarga paradigmal, tub o‘zgarishlar olib kirdi. Bu avvalo ilmiy-texnik kashfiyotlar va ularning inson, jamiyat hayotini farovonlik, zavqli qilish, og‘ir qo‘l mehnatidan xalos etish, urbanizatsiya, modernizatsiya kabilar bilan bog‘liqdir. Bular innovatsion faoliyat turlarini yanada kengaytirishga, inson imkoniyatlarini yanada kengaytirishning yanada yangi, samarali va serzavq usullarini topishga undamoqda, chunki inson mavjud shart-sharoitlar bilan chegaralanib, qoniqib qolmaydi. Bugun innovatsion faoliyat jarayonidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bilan ularning xo‘jalik tomonini boshqarish, milliy iqtisodiyotdagi innovatsion jarayonlarning o‘zini yo‘lga qo‘yish o‘rtasida murakkab aloqalar mavjud. Bu innovatsion faoliyatning mohiyatini va rivojlanish xususiyatlarini, nafaqat bevosita ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy faoliyatidagi innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqishda ziddiyatlarni, shuningdek, innovatsion o‘zgarishlar shiddatini ham tahlil qilishga undamoqda. Bunday tahlilning yo‘qligi innovatsion faoliyatni boshqarishning ratsional mexanizmlarini shakllantirishga va iqtisodiy munosabatlarda ba’zan orqada qolishning sabablarini topib, yangi qarorlar, rejalar va usullar qabul qilishga xalaqit bermoqda [2, 18-b.].

SHunday tahlil innovatsion faoliyatning fenomenal hodisa, dolzarb muammo ekanini, mavjud resurslar salohiyatini mavjud ilmiy-texnik imkoniyatlarni, ishlab chiqarish jarayonlarining real holatlarini, ishlab chiqaruvchilar o‘rtasidagi raqobat bozorini, bozor iqtisodiyoti institutlari va xususan, innovatsiya infratuzilmalarining mavjudligi va qanchalik samarali ishlayotganini aniqlash imkonini beradi [2,10-11-bb.]. Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning innovatsion faoliyat bilan bog‘liqligining ayrim jihatlari chet ellik K. Oppenlender, R. Akkof, V. Berens, R. Druker, D. Klark, K. M. Kristensen, G. Mensh, R. Porter, R. Foster, D. Cahal, Y. SHumpeter kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan. Biroq ushbu tadqiqotchilarning diqqati mutlaq boshqa ob’ektga va mavjud iqtisodiy munosabatlarga qaratiladi. YA’ni ular bozor iqtisodiyoti rivojlangan va innovatsion faoliyat iqtisodiy munosabatlar tizimidan barqaror joy olgan, mavjud mehnat jamoalari innovatsiyani har tomonlama qo‘llab-quvvatlashni o‘zining hayot tarziga aylantirgan, iqtisodiy qadriyatlarni mustahkamlab borishdan manfaatdor muhitni tadqiqot ob’ekti qilib oladilar.

Mazkur muhit innovatsion tafakkurga va tajribalarga ega, ular “yorib o‘tuvchi innovatsiya” (“prorьıvnaya innovatsiya”)ni tarafdorlariga istagancha mablag‘ ajratishga tayyor. Korxonasi va ishlab chiqarish texnologiyalarini mudom takomillashtirib borish faqat mulk egasini emas, balki, shu bilan birga, korxona xodimlarini ham boy, badavlat qiladi, ularning moddiy ehtiyojlarini to‘la qondiradi [3]. Bu esa innovatsiyani joriy etishni dolzarblashtiradi, undagi dinamizmni ehtiyojlarga, talablarga muvofiqlikni oshiradi. “Innovatsiya – bu nafaqat yangi texnologiyalarda mujassamlashgan bilimlar, nou-xau, ishlab chiqarishning takomillashgan texnologiyalarni qo‘llash bilan bog‘liq, shuningdek, nisbatan samarali salohiyatga ega bo‘lgan yangi ishlab chiqarishlar g‘amda xizmatlarni ko‘rsata oladigan yoki amalda qo‘llanilayotgan jarayonlarning salbiy oqibatlarini tugatish maqsadida olib borilayotgan faoliyatdir. YA’ni innovatsiyalarni g‘oyalar, izlanishlar, ishlanmalar, yangi yoki nisbatan mukammal ilmiy-texnik yoki ijtimoiy-iqtisodiy qarorlar natijasi sifatida qarash mukmkin. YUqoridagilardan shunday xulosa qilish mumkinki, “innovatsiya faoliyati” bu faoliyat turi ham, sohasi ham bo‘lmay, balki uning xarakteridir” [4, 9-b.]. Demak, professor Z.A.Mukumov fikriga ko‘ra, innovatsiya innovatsion izlanishlar va faoliyatning o‘zi emas, balki ularning “xarakteri”dir. Ming afsuski, tadqiqotchi “xarakter” degan talqinning nimalardan iboratligini ochib bermaydi. Har qanday jihati innovatsiyaning xarakteri sifatida talqin qilinishi mumkin. Bu taqdirda u innovatsion izlanishlar va innovatsion faoliyatning aynan o‘ziga borib taqaladigan hodisaga aylanadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda innovatsiyalar radikal innovatsiyalar, ko‘p omilli innovatsiyalar, moslashtirilgan innovatsiyalarga ajratiladi. Radikal innovatsiyalarning xususiyati shundaki, ular bozor kutmagan tarzda, ilmiy-texnik kashfiyotchining shaxsiy tashabbusi va qiziqishlarining mahsuli sifatida paydo bo‘ladi. Agar ular ma’lum bir naf, foyda va daromad keltiradigan, bozorbop bo‘lsa, menejerlar tomonidan sotib olinadi, ishlab chiqarishga yoki boshqarish jarayonlariga tadbiq etiladi. Masalan, AQSHdagi Sears Roebuck, Digital Eguipment Corporation, Prime, Appolo va Apple kompaniyalari asosan ushbu uslubda ishlab, jahon bozorida baraqaror o‘rinni egallashgan. Ular radikal ahamiyatga ega ilmiy-texnik ishlanmalarni (masalan, minikompyuterlar va disklarga oid) sotib olib jahon bozorini informatsion texnologiyalar bilan ta’minlab keladilar.

Moslashtirilgan (modifikatsiyalashtirilgan) innovatsiya mavjud texnologiyalarni, boshqarish usullari va tajribalarni takomillashtirishga qaratiladi. Bu o‘zgarishlar mehnat samarasini oshirishni nazarda tutsa-da, jahon tajribasi ko‘rsatadiki, ular tom ma’nodagi yangilanishga olib kelmaydi. Ular an’anaviy faoliyat tarzining qandaydir bir yo‘nalishini, xususiyatini va boshqarish usullarini yangilik bilan to‘ldirishni nazarda tutadi. SHuning uchun unda stagnatsiyaga, mavjud an’anaviy ish usullarini,

eski texnik moslamalarni, quvvatni saqlab qolishga intilish mavjud, degan fikr bildiriladi [2,18-b.].

YUqoridagi uchta innovatsiya iqtisodiy munosabatlarga oiddir. Ammo innovatsiyalarning ko‘rinishlari, turlari ular bilan tugamaydi. Ularning ko‘rinishlari, turlari ijtimoiy sohalar qancha bo‘lsa, shunchadir. Har bir sohaning o‘ziga xos yangilanishni taqozo etadigan talablari, ehtiyojlari bo‘ladi. Masalan, siyosiy sohadagi innovatsiyalar siyosiy faoliyatning fundamental qonunlaridan, xususiyatlaridan kelib chiqadi va ushbu faoliyatning zamonaviylashishiga, samarali ishlashiga yordam beradi. Madaniyat sohasidagi innovatsiyalar esa, ushbu sohaning fundamental qonuni, ya’ni aholining madaniyatini yuksaltirish, uni moddiy va ma’naviy boyliklar yaratishga da’vat etishga xizmat qiladi. Demak, innovatsiya vosita, birlamchi esa sohaning fundamental qonunlari va xususiyatlaridir. Biroq ilmiy-texnik kashfiyotchilar, innovatorlar uchun innovatsion faoliyat birlamchi, chunki ular klassifikatsiyasi va bosh funksiyasi nuqtai-nazaridan yangilik, innovatsion ishlanmalar va ixtirolar izlovchi, ularni amaliyotga, ishlab chiqarishga joriy etuvchi sub’ektlardir.

Iqtisodiy nuqtai-nazardan innovatsiyaga ijtimoiy-falsafiy kategoriya bo‘lgan “xarakter” so‘zini qo‘llash chalkashliklar keltirib chiqarishi mumkin. SHunday chalkashliklardan biri kitoblarni supermarketlar oldidagi rastalarda shou tarzida sotish bo‘lishi mumkin. Odatda kitoblar maxsus kitob do‘konlarida sotiladi, bu o‘rinda savdo maskani o‘zgartirilib, odamlar ko‘p bozorlar oldiga ko‘chirilayapti. Bu madaniyat sohasiga oid savdo-sotiqdagi innovatsiya. Ammo ushbu makondagi o‘zgarishni biz innovatsiyaning xarakteri deya olamizmi? Bunga biz bir tomondan, “ha”, ikkinchi tomondan, “yo‘q” deb javob berishimiz mumkin. Kitob savdosini odamlar gavjum joyga ko‘chirilishi ma’lum bir yangilik, ammo marketing prinsipi o‘zgarayotgani yo‘q, ya’ni kitobni realizatsiya qilish maqsadi, xarakteri saqlanib qolgan. Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin. Demak, innovatsiyani ham, barcha ijtimoiy hodisalar kabi, turlicha, dualistik talqin qilish mumkin.

Ilmiy adabiyotlarda innovatsiyalarning iqtisodiy tomonlariga e’tibor berilishi ularni iqtisodiy hayotga tadbiq etish zarurati bilan izohlanadi. Masalan, shunday yondashuvga duch kelamiz. “Innovatsiya insonning aql zakovati, ishlab chiqarish tajribasi negizida yaratilgan, ishlab chiqarishga tadbiq etilgan, ayni vaqtda iqtisodiy-ijtimoiy samara keltirayotgan intellektual mulk ko‘rinishidagi yangiliklar, ixtirolar, kashfiyotlar, g‘oyalar va yangicha yondashuvlar majmuasidir. Agar innovatsion g‘oya yaratilib, ishlab chiqarishga tadbiq etilmasa va o‘zining iqtisodiy nafligini isbotlamasa, innovatsiya hisoblanmaydi. YAratilgan innovatsiyalar tijoratlashib, amaltiyotga tadbiq etilib, iqtisodiy-ijtimoiy samara bergandagina ularni innovatsiyalar deb hisoblash mumkin. Innovatsion g‘oyalar, ishlanma va kashfiyotlardan iborat bo‘lmay, balki innovatsiyalar tarkibiga umumtaraqqiyotga

xizmat qiluvchi ishlab chiqarishni tashkil etish, boshqarish va mulk ob’ektlarini samarali amalga oshirishga oid tashkiliy boshqaruv tavsifidagi mutlaqo yangicha innovatsion yondashuv va tamoyillarni o‘zida mujassam etadi” [5,11-b.]. Ko‘rinib turibdiki, mualliflar innovatsiyaning iqtisodiy samarasi va amaliyotga joriy etilishini asosiy ko‘rsatkich sifatida qayd etadilar. Bu ta’rifdan ma’lum bo‘ladiki, mualliflar G‘arb ilmiy innovatsion tafakkurida shakllangan mezondan kelib chiqadilar, yangilik sotilishi va amaliyotga, ishlab chiqarishga joriy etilishi darkor. Ha, agar shunday yondashuvda tursak, har qanday innovatsion g‘oya ijtimoiy amaliy foyda, naf keltirishi bilangina e’tiborli. Ilmiy ishlanmalarning amaliyotga integratsiyalashuvi har qanday innovatsion g‘oyaga dolzarblik baxsh etadi, uni ijtimoiy hayot muammolari bilan bog‘laydi. Bu juda muhim mezon. Ammo barcha ilmiy ishlanmalar, g‘oyalar ham amaliyotga tadbiq etilaveradimi? Jamiyat barcha innovatsion g‘oyalar va ishlanmalarni ham qabul qilishga tayyormi? Ijodiy jarayonlardagi mavhumlik, noratsionallik, intuitsiyaga tayanish natijasida yaratilgan ishlanmalar nima bo‘ladi? YOki biz innovatsiya deganda ilmiy-texnik ishlanmalarni nazarda tutayapmizmi? U taqdirda siyosiy boshqaruv, madaniyat sohalaridagi ishlanmalar nima bo‘ladi? Bu ishlanmalarni har doim ham amaliyotga joriy etish imkoni bo‘lavermaydi. SHunday ekan, ushbu savollarga qanday javob berish kerak? Innnovatsiya falsafasi hozirgi bosqichida ularga to‘la javob berolmasligi mumkin, biroq undagi ilmiy, badiiy estetik, ijtimoiy ijodga oid ma’lum bir xulosalar, tavsiyalar mavjud. Biz ularning barchasini keltirish va tahlil qilish imkoniga ega emasmiz, bu borada ko‘plab adabiyotlar chop etilgan [6-13].

SHuni ta’kidlashimiz mumkin, G‘arb talqinidagi innovatsiya asosan ilmiy-texnik ishlanmalar va ularning iqtisodiy hayotga joriy etish bilan bog‘liq. Bizda uni keng, ya’ni butun jamiyatdagi jarayonlar, o‘zgarishlar bilan bog‘lab qarash shakllanmoqda.

G‘arb kompaniyalarida radikal innovatsiyalarga ehtiyoj mudom sezilsa-da, tadbirkorlar, biznesmenlar unga ko‘p ham pul tikishavermaydi. Faqat yirik kompaniyalar o‘zini o‘nglab olish yoki iqtisodiyotda “yorib kiruvchi innovatsiya” usulidan foydalanishga jur’at etadi. Buning sabablari turlicha. Birinchidan, mulk egasining tavakkal qilishga, innovatsiyalar uchun pul tikishga, investitsiyalar kiritishga shay emasligi bilan izohlanadi. Tavakkal qilish, pul tikish har boim ham daromad keltiravermaydi. Buni o‘z boshidan kechirgan, pul tikishdan maqsad nimaligini yaxshi anglagan R. Kiyosaki quyidagicha ta’riflaydi: “Pul yo‘qotish borasidagi qo‘rquvni yo‘qotish kerak. To‘g‘ri, pul yo‘qotish hech kimga yoqmaydi. Lekin umrim davomida biron marta pul yo‘qotmagan odamni ham ko‘rmaganman. Lekin kambag‘allar hech qachon pul yo‘qotmaydilar, chunki investitsiya qilmaydilar. Pul yo‘qotish qo‘rquvi bor narsa. U har bir kishida bor. Hatto boyda ham. Lekin muammo qo‘rquvda emas. Muammo qo‘rquvni, yo‘qotishlarni qanday

boshqarayotganingizda. Hamma gap omadsizliklarni qanday qarshi olasiz, birgina omadsizlik tufayli cho‘kib qolasizmi yoki bu sizga aksincha kuch bo‘lib, oldinga qarab yurishda davom etasizmi? Boy bilan kambag‘alning o‘rtasidagi farq qo‘rquvning bor yoki yo‘qligida emas, balki ular buni qanday boshqara olishlarida” [14, 112-113-bb.]. “Hayotda aqldan ko‘ra dangalchilik, dadillik ustun turadi” [14, 87-b.]. Mashhur tadbirkorning bu shiori innovatsiyaga investitsiyalar tikish borasida o‘zining dadil maqsadlariga ega bo‘lmagan kishilarga qarata aytilgan. Investitsiya innovatsiyaning boshi va uni siljitishning kafolatidir. Iqtisodiy munosabatlar marketing prinsiplariga tayanayotgani bois keyingi yillarda innovatsiyani ham marketing talablariga muvofiqlashtirish alohida e’toborni jalb qilmoqda. Ilmiy adabiyotlarda hatto “innovatsiya marketengi” real voqelik sifatida o‘rganiladi va ochib beriladi. “Innovatsion rivojlanish konsepsiyasiga ko‘ra, – deb yozadi iqtisod fanlari nomzodi, dotsent SH.D.Ergashxodjaeva – texnika va texnologiyalardagi innovatsiyalarning har bir yangi avlodi ijtimoiy hayotdagi o‘z ta’sir doirasini kengaytiradi. Agar XX asrning o‘rtalarida hukmronlik qilgan texnokratik tendensiyalar va texnologik determinizm nazariyalari “texnologik oqilonalik”, texnologiyalarning shubhasiz foydali ekanligi va ularni amalga oshirish uchun tadbirkorlik erkinligi zarurligi haqidagi tasavvurlarga asoslangan bo‘lsa, innovatsion rivojlanishning zamonaviy nazariyalari ijtimoiy va tashkiliy o‘zgarishlar konsepsiyalari bilan juda bog‘liqdir. Texnologik o‘zgarishlar ilmiy tadqiqot yo‘nalishlarida, mahsulot ishlab chiqarish va sotishda o‘zgarishlarga olib keladi, ko‘plab ijtimoiy va tashkiliy boshqaruv innovatsiyalari yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Barcha darajadagi innovatsion tizimlar uchinchi mingyillikda iqtisodiy o‘sishning yangi modeli shakllanishida hukmron g‘oyaga aylanadi” [19. 7-b.]. Tadqiqotchining fikrlariga ko‘ra, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, jamiyat taraqqiyoti endi innovatsion marketing bilan bog‘liq bo‘ladi, innovatsiya ijtimoiy hayotning barcha sohalariga kirib boradi. Biz yuqorida ta’kidlab o‘tgan ijtimoiy va madaniyat sohalarida yuzaga keladigan innovatsiyalar ham shular jumlasidandir. Innovatsiya jamiyat hayotining barcha sohalariga kirib borsa-da, u ushbu sohalarning immanent qonunlarini, belgilari va xususiyatlarini o‘ziga bo‘ysundirmaydi, balki ularga xizmat qiladi. SHuning uchun ham innovatsiyaning imkoniyatlari va ta’sirini mutlaqlashtirmaslik kerak, uni ijtimoiy munosabatlarni dolzarblashuvini ta’minlash vositasi sifatida qarash o‘rinlidir.

Jamiyat taraqqiyotining umuminsoniy (global), umumiy (makrotaraqqiyot) va ichki, xususiy (mikrotaraqqiyot) qonunlari mavjud. Jamiyatning yangilanishi, uning sohalariga innovatsiyalarning tadbiq etilishi ushbu qonunlarni hisobga olmay qolmaydi.

Global qonunlarni hisobga olish jamiyat strategik maqsadlariga xizmat qilish orqali kechadi. Ammo dunyoda kechayotgan yangilanish va modernizatsiya

innovatsiyalarga o‘z talabini qo‘yadi, albatta. Bu talab umuminsoniy taraqqiyotga muvofiq rivojlanishni ifoda etadi. Masalan, innovatsion ishlanmalar insoniyat va davlatlar o‘rtasida konfrontatsiyani, urushlarni keltirib chiqarmasligi, militaristik qarashlarni targ‘ib etmasligi, terrroristik va ekstremistik oqimlarning qirg‘in quroliga aylanmasligi lozim. Gumanistik mohiyatga ega innovatsion ishlanmalar qo‘llab-quvvatlanishi, ularga innovatsiyalar kiritilishi zarur. Makroumumiy qonunlar ma’lum bir jamiyatning ichki xususiyatlari, ijtimoiy-madaniy tajribalarini ifoda etadi va innovatsion ishlanmalar ham ularga asoslanadi. Makroqonunlarni hisobga olmaslik innovatsion ishlanmalarning ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida kelishiga xalaqit beradi.

Xulosa sifatidja aytish joizki, innovatsiyalar ko‘pincha mikro qonunlarga itoat etadi, ularning aniq talablarini bajaradi. Mikro qonunlar mehnat jamoalari, korporatsiyalar, firmalar, innovatsiya markazlari ehtiyojlari bilan chambarchasdir. Mazkur jamoalarning faoliyatlari va ehtiyojlari innovatsiyaning tadbiq ob’ektlari hisoblanadi. Ijtimoiy falsafiy nuqtai-nazardan qaraganda, innovatsiya ana shu uch yo‘nalishdagi qonunlar bilan, ratsional tarzda, uyg‘undir. Jamiyat taraqqiyotining ushbu qonunlari innovatsiyalarga buyurtma beradi, demak, yangilik shunchaki oddiy voqelik emas, u ijtimoiy taraqqiyot qonunlariga muvofiq kelishi bilan ijobiy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar:

1. Razzaqov A. Iqtisodiy tafakkur sarchashmalari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011.
2. Kokurin D.I. Innovatsionnaya deyatelnost. – Moskva: Ekzamen, 2001.
3. Finansovo kreditnыy mexanizm stimulirovaniya innovatsionnoy deyatelnosti. Uchebnoe posobie. Moskva: INITS, 1998; Porter M.Competitive Advantage. N.Y. The Press, 1985; Sahal D. Pattens of Nexnological Innovation. London: Addison Wesley, 1981.
4. Muqumov Z.A. Innovatsion faoliyat xarajatlari hisobi va auditini takomillashtirish masalalari (“O‘zneftegazmash” AK korxonalari misolida). Monografiya. – Toshkent: TDIU, 2013.
5. Shodieva G.M., Shakirova F.B. Rol investitsiy i innovatsiy v razvitiii natsionalnoy innovatsionnoy sistemы. Ilm fan va innovatsion rivojlanish, 2020, №4. – S. 11.
6. Aristotel. Poetika. - Toshkent: Ad. va san’at nashr, 1972.
7. Gegel. Estetika. Tom 1-3. - Moskva: Iskusstvo, 1971.
8. Xogart U. Analiz krasotы. - Moskva: Iskusstvo, 1987; Berdyaev N.A. Filosofiya tvorchestvo. - Moskva: Pravda, 1990;

9. Xose Ortega i Gasset. Estetika. Filosofiya kulturы. - Moskva: Iskusstvo, 1991.

10. Azizkulov A.A. Ilmiy ijodiyotda ratsionallik va noratsionallik: konseptual tahlil va yondashuvlar (falsafiy tahlil). Falsafa fan. nomzodi diss. Avtoreferati, - Toshkent: 2006.

11. Axmedov A.D. Innovatsion faoliyatni huquqiy regulyasiya qilishning xususiyatlari. Huquqshunoslik bo‘yicha falsafa doktori (RhD). diss... avtoreferati. - Toshkent: 2017.

12. Ivanyuk T.I. Tvorchestvo i lichnost. Moskva: Tor, 2006; Eshonqul N. Ijod falsafasi. - Toshkent: Akadem nashr, 2018.

13. Eshonqul N. Ijod falsafasi. - Toshkent: Akadem nashr, 2018.

14. Kiyosaki R. Eng sara asarlari. – Toshkent: “Adabiyot uchqunlari”, 2018.

15. Masharipova G.K. Xorazm Ma’mun akademiyasi allomalari tabiiy-ilmiy merosining ijtimoiy-falsafiy tafakkur taraqqiyotiga ta’siri. – Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent. 2021.

16. Машарипова Г.К. Методология научного исследования. Учебное пособие. Ташкент, “Fan ziyosi”, 2021. - 373 стр.

17. Masharipova G.K. “Tabiiy fanlarning zamonaviy konsepsiyasi” fanidan 5150900 - Dizayn (kostyum, poyabzal va aksessuarlar dizayni) ta’lim yo’nalishi 1 kurslar uchun o‘quv darsligi (to’ldirilgan qayta nashr). - Tashkent, “Fan ziyosi”, 2022. - 251 b.

18. Masharipova G.K. “Tabiiy fanlarning zamonaviy konsepsiyasi” fanidan 5150900 - Dizayn (kostyum, poyabzal va aksessuarlar dizayni) ta’lim yo’nalishi 2 kurslar uchun o‘quv darsligi - Tashkent, “Fan ziyosi”, 2022. - 322 b.

19. Ergashxodjaeva Sh.D. Innovatsion marketing: O‘quv qo‘llanma. –Toshkent: Iqtisodiyot, 2013.

MALIK NABIEV IJODIDA «BERUNIY» PORTRETI

Alimov Umudjon Jasurdinovich
Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomlik va dizayn instituti San’atshunoslik va muzeyshunoslik fakulteti Muzeyshunoslik kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola xalq rassomi, akademik, professori Malik Nabiyvning o‘zbek buyuk qaxramonlari, ziyoli insonlarining gavdalantirishda tutgan o‘rni, beqiyos ijodiga to‘xtalib o‘tilgan. Ijodkor xar bir buyuk allomani gavdalantirishda o‘sha davr tarixi, madaniyati va muxitini o‘rganib chiqib, faoliyat yuritgan. Ijodkorning bosib o‘tgan yo‘li, yaratilgan betakror asrlari hali ham o‘z qimmatiga egadir.

Kalit so‘zlar: kompozitsiya, tarixiy obraz, Zahiriddin Muxammad Bobur, Amir Temur, Beruniy, Ibn Sino, Jomiy, Navoiy, Al Roziy, Rudakiy, Al Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy.

Malik Nabiev (1916-2008) xalq rassomi, akademik, professor, Davlat mukofotlari laureati, o‘ziga hos iste’dod egasi, buyuk ajdodlarimiz va zamondoshlarimizning ajoyib obrazlarini qayta yaratishda o‘ziga hos yuksak hissa qo‘shgan, qator yirk asarlar muallifi.

Malik Nabiev 1916 yil Toshkent shahrida tug‘ilgan. Tasviriy san’atning ilk saboqlarini rassom Bahrom Hamdamiydan o‘rgangach, ustoz maslahatiga binoan rassomlik bilim yurtiga o‘qishga kiradi. 1937 yilda bilim yurtini imtiyozli diplom bilan muvaffaqiyatli tugatgandan so‘ng, o‘zining ijodiy faoliyatini shu yildan P.Benkov nomidagi Respublika rassomchilik o‘quv yurtining o‘qituvchisi sifatida faoliyat olib boradi. 1958 yildan to umrining so‘ngi kunlarigacha esa Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida yosh ijodkorlarga ta’lim beradi.

Rassom 1940 yillardan, san’at borasidagi mustaqil ijodiy yo‘li boshlangan edi. Yoshligidan tarixiy mavzularga bo‘lgan qiziqish va harakatlari zoe ketmadi. Vaqtlar o‘tishi bilan rassomning tarixdan hikoya qiluvchi kichik eskiz va qoralamalari, mukammal kompozitsiya sifatida katta-katta polotnolarga ko‘cha boshladi. Bizga ma’lumki, ijodkor rassom mukammal asarni taqdim etar ekan uning negizida yillar davomida olib borgan faoliyati, o‘ylari va mavzu bo‘yicha to‘plagan ma’lumotlarga tayanadi. Shundagini asar bir necha yillar davomida ishlangan qoralamalar negizida mukammallashib, o‘z yutug‘ini ko‘rsatadi. Bizning qahramonimiz talabalik chog‘idan tarixiy mavzularga qiziqishi bo‘lib, ularning hayoti, faoliyati, erishgan yutuqlar-yu, ulardan bizgacha yetib kelgan me’ros haqida ma’lumotlarni to‘plab o‘rganadi. Olingan ma’lumotlar asosida o‘zining tarixiy obrazlarida ularning ko‘rinishi, yuz qiyofasi, xarakteri, qomati, o‘ziga xosligi va boshqalardan ajralib

turuvchi jihatlarini ko‘ra boshlaydi. Bu holatning xar birini o‘z qoralamalarida aks ettirish bilan birga ularni jamlab borishga xarakat qiladi.

Ijodkor bu eskizlari yordamida qator tarixiy qahramonlar siymolarini yaratishga erishadi, ulardan Zahiriddin Muxammad Bobur obrazidir. Bobur obrazini yaratish uchun rassom Afg‘oniston, Hindiston va boshqa bir qancha xorijiy mamlakatlarda ham bo‘ldi. Bobur yashagan, ijod qilgan, jang qilgap joylarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rdi. Malik Nabievning Bobur she’riyati bilan batafsil tanishgani, uning achchiq va sermazmun hayotini mukammal o‘rganganligini, Boburning navqiron va to‘laqonli gavdalantirgan portreti misolida ko‘rishimiz mumkin. Bobur portretidagi turli xil bo‘yoqlarda aks ettirilgan tuyg‘ular uyg‘unligi butun borlig‘ingizni ranglar sehri bilan qamrab oladi.

Malik Nabievning yana bir yutuqli asarlaridan sohibqiron Amir Temur obrazidir. Bu asar ham o‘ziga hos tarxga ega bo‘lib, 1941 yildan beri ulug‘ sarkarda siymosini yaratish niyatida, musavvir ko‘plab ma’lumotlarni to‘play boshlaydi. Amir Temur haqida ko‘plab asarlar bilan tanishib, mavjud miniatyuralarni, qaerda bo‘lmasin, imkoniyat darajasida qidirib topadi. Bundan tashqari Hindistonning Kalkutta, Bombay shaharlaridagi muzeylarda, Eronning Tehron, Isfahon, Turkiyaning Istambul, Ko‘nyo, Izmir va boshqa shaharlarida, Angliyaning mashhur Britaniya muzeyida, Fransiya, Ispaniya kabi mamlakatlar muzeylarida saqlanayotgan miniatyuralarning asl nusxalarini ko‘rishga muvaffaq bo‘lib, ulardan Amir Temur turlicha tasvirlanganligini kuzatadi. Hindistonda shakllangan Bobur va boburiylar davri miniatyura maktabi, Behzod (Hirot) miniatyura maktabi vakillari chizgan Amir Temur qiyofasi, bir-biridan tubdan farq qilgani, musavvir uchun yana murakkab jumboqqa olib keladi.

Buyuk sarkarda siymosini yaratish uchun bir emas, bir necha miniatyura maktabini o‘rganib chiqqan Nabiev, o‘zining tarixiy asarlarni yaratishda endilikda tarixiy adabiyotlarga murojaat qiladi va buning natijasida rassom Amir Temur portret asarini yaratish borasida astoydil izlanishlar olib borgani, o‘zining yuksak mahorati, mo‘yqalamining kuchi tufayli erishganini e’tirof etish zarur.

Rassomning ko‘plab portretlarida buyuk siymolar obrazi zamonaga hamohang darajada gavdalanganligini ko‘ramiz va beixtiyor hayratlanamiz. Amir Temur, Beruniy, Bobur, Ibn Sino, Jomiy va Navoiy, Al Roziy, Rudakiy, Al Xorazmiy kabi bir qancha yirik arboblar, olim, shoir, mutafakkirlar portretlarining har biri jonli tasvirlangan.

Malik Nabievning yana bir yutuqli asarlaridan biri “Beruniy portreti”dir. Bu asar ommaga 1973 yil taqdim etilgan bo‘lsada asar ustidagi ishlar 1940 yillar boshlangan bo‘lib, bunga sabab alloma tomonidan qoldirilgan benazir manbaalar bo‘lgan. Bundan tashqari A.Nabiev yuqorida aytib o‘tilganidak ko‘plab mamlakatlarda olimning ilmiy izlanishlar va ularning xali ham qo‘llanilishi ajablantirgan. Bu benazir

tarixiy allomaning siymosini gavdalantirishga bo‘lgan extiyoj ortib bordi. Uzoq davrlar mobaynida Abu Rayhon Beruniyning musavvir hayolotidagi tasviri bir necha bor va xar xil ko‘rinishda eskizlarida shakllanib bordi.

Bizga ma’lumki buyuk vatandoshimiz, Xorazmning aziz farzandi, ulug‘ olim Abu Rayhon Beruniyning hayoti va faoliyati avlodlarga shunday ta’sir qiladiki, uning asarlarini o‘qigan kitobxon asarning ichiga tushib qolgandek his qilib, asarlar ichidagi ilm sadaflaridan unumli foydalanishga harakat qiladi.

Abu Rayhon Beruniy 973 yil 4 sentyabrda qadimgi Xorazmning Kot shahrida (hozirgi Beruniy shahri) tug‘ilgan. Uning siymosida o‘rta asrlar Sharqining qomus ul-ilimi, astronomi, geografi, ma’danshunosi, etnografi, tarixchisi, shoiri mujassamlashgan. Beruniy qalamidan fanning turli sohalariga oid juda ko‘p yirik asarlar chiqqan bo‘lib, bu asarlarida uning ana shu sohalarni nihoyatda yaxshi bilgan tadqiqotchi, fanda yangidan yangi yo‘llar ochgan donishmand bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin. Beruniy yoshligidan ilmga tashna bo‘lgan.

Beruniyshunos olim P.G.Bulgakovning ma’lumotiga qaraganda, Beruniy Abu Nasr Iroq rahbarligida yoshligidan riyoziyot va falakiyotni o‘rganib, 16-17 yoshlaridayoq Quyoshning choshgohdagi balandligini armila bilan o‘lchagan. Oradan 30 yil o‘tgach, Beruniy yoshligida o‘zi o‘lchab olgan natijalarni tahlil qilar ekan, ular anchagina ishonchli bo‘lganligini ta’kidlaydi.

998 yilda Jurjon hokimi Qobus ibn Vushmagir uni o‘z shahriga keltirib, Beruniyga oliy lavozim, ya’ni vazirlikni taklif qiladi. Ammo ilmga tashna Beruniy bu taklifni rad qiladi va ilm bilan shug‘ullanadi. Bundan tashqari u Jurjoniyadaligida o‘zining “Osorul boqiya” (“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”) asarini yaratdi.[15]

1004 yilda u Xorazmshoh Ma’mun II ning taklifiga binoan Gurganchga qaytib keladi va Gurganchda shoh nomidagi “Ma’mun akademiyasi”ni barpo etadi.

Beruniyning ustozi Abu Nasr ibn Iroq o‘z davrining o‘ta bilimdon olimi edi. U tirikligidayoq “o‘z davrining Ptolemeyi” degan laqab olgandi. Undan tashqari Abu Nasr, Beruniyni o‘z xonadonida tarbiyalab voyaga yetkazgan. Ibn Iroq va Beruniyning takliflari bilan 1004 yildan boshlab Nishopur, Balx va Buxorodan va hatto arab Iroqidan ham olimlar Gurganchga kela boshladilar. Shu tariqa Gurganchda “Dorul hikma” nomini olgan ilmiy muassasa to‘la shakllanadi. Bu ilmiy muassasada xuddi Bag‘doddagi “Baytul hikma”dagi kabi ilmning barcha sohalarida tadqikot va izlanishlar olib boriladi. Beruniy keltirgan ma’lumotlarga ko‘ra, bu yerda suryon va yunon tillaridan ba’zi tarjimalar ham bajarilgan. Ali ibn Ma’mun vafotidan keyin (1009) uning ukasi Abul Abbos Ma’mun ibn Ma’mun Xorazmshohlar taxtini egallaydi.

[15] Д.Бобожонов, М.Абдурасулов “Абадият фарзандлари” 2009.

U Beruniyni saroyga taklif qiladi va o‘ziga eng yaqin maslahatchi qilib oladi. Buning oqibatida Ma’mun akademiyasi faoliyati uchun yanada kattaroq imkoniyatlar ochiladi.

Qirqdan oshiq olimlar ishlab faoliyat ko‘rsatgan ilmiy markazda o‘z davrining yetuk insonlari matematika, astronomiya, ruhiyat, ximiya, mantiq, tibbiyot, falsafa, tarix, tilshunoslik, ta’lim-tarbiya, adabiyot, musiqa, geografiya, geodeziya, topografiya, mexanika singari turli fan sohalari bilan shug‘ullanib, ularning kelajakda jahon miqyosidagi rivojiga zamin yaratganlar.

Buyuk bobokalonimiz 1048 yilda G‘azna shahrida vafot etadi. Buyuk olim haqidagi ushbu ma’lumotlar musavvir M. Nabievni ilhom cho‘qqisi sari yetaklaydi.

1949 yili Al Beruniy vafotniing 900 yilligi munosabati bilan olim portretini yaratish uchun tanlov e’lon qilinadi. Ushbu tanlovda o‘ttiz nafardan ortiq o‘zbekistonlik va boshqa yurtlarning yirik musavvirlari qatori Malik Nabiev ham qatnashadi. Musavvirning asarlaridagi buyuk olim obrazi boshqa rassomlar tomonidan ishlangan namunalarga nisbatan to‘laqonli, deb e’tirof etiladi.

1973 yilda esa Bsruniy tavalludiga 1000 yil to‘lishi munosabati bilan, ikkinchi marotaba tanlov e’lon qilinadi. Rassom Malik Nabiev Beruniy obrazi ustida izlanishni davom ettirib, ikkinchi marotaba ham tanlov g‘olibi bo‘ldi. Bu portrst tanlovdan so‘ng YuNESKOnnng “Kurer” jurnali muqovasida va xorijiy mamlakatlarniig ko‘pgina jurnal va gazetalarida, hamda otkritka, marka, plakat tarzida bir necha bor nashrdan chiqarildi. Beruniy portretida ijodkor boshqa asarlarining qahramonlariga qaraganda uning siymosini gavdalantirishda, Beruniyni jismonan baquvat, salobatli, o‘zining terang va mazmunli qarashini aks ettira olgan. Ranglar alohida uyg‘unlik garmoniyasiga ega. O‘sha davr muxitini berish uchun liboslarning to‘g‘ri tanlanganligi, murakkab naqshlar elementlarning yog‘och o‘ymakorligiga xos bo‘lgan xontaxtada aks ettirilishi, qog‘ozga tushirilgan arab yozuvlarining maxorat bilan tasvirlanganligini ko‘rish mumkin. Asarda o‘ng qo‘lining tekislikda turishi va oyoqlarining joylashishida kamchiliklarni ko‘rishimiz mumkin, ammo bu xolat ikkinchi planda bo‘lgani uchun ko‘p xam ko‘zga tashlanavermaydi. Asosiy e’tibor portret, ko‘qrak qismi va o‘ng qo‘lga qaratilgan va asar o‘z mazmunini ochib bera olgan. Portrerdagi siymoda jiddiylik, teran nigoh va vazminlik, qarashi olisni ko‘zlayotgan alloma, shu bilan birga donishmandlikni aks ettirgan. Rassom ilm sirlarini yechish uchun butun vujudi bilan kirishgan insonparvar olim Abu Rayhon Beruniyning butun salobatini tasvirda gavdalantiradi. Asarning keyingi etaplaridagi kitoblar ilm-fanga bog‘liq bo‘lgan buyumlar, Beruniyning qomusiy olim va mutafakkir ekanini yanada bo‘rttirib ko‘rsatilishiga xizmat qilgan.

Nabievning Beruniy portretiga chizgilari bilan tanishganda 1972 yilgi asari[16] 1973 yilgi asarga nisbatan bir muncha o‘zining mukammalligi, to‘laqonli ifoda

[16] М. Аҳмедов. М.Набиев ҳаёти ва ижоди.Т., Адабиёт ва санъат нашриёти 2000 йил.

etilgani bilan e’tiborni tortdi. Unda Beruniyning navqironligi, qomatining tik tutilganligi va uslub jihatdan ancha mukammal ishlanganligini ko‘zatamiz.

Malik Nabievning asarlari o‘ziga xos kaloritga ega bo‘lib, akademik maktabga tayanib ishlaydi va bu kalaritlarda milliylikning uyg‘unligini ko‘ramiz. Nabievning o‘ziga hos ijod maktabi hozirgi kunda ham shogirdlari tomonidan davom ettirilib kelinmoqda. Rassom asarlarini kuzatar emanmiz, shunday buyuk allomalar, sarkatda-yu, ziyolilar avlodi ekanimizdan faxr va g‘urur tuyg‘ullari jo‘sh uradi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Д.Бобожонов, М.Абдурасулов “Абадият фарзандлари” 2009.
2. М. Аҳмедов. М.Набиев ҳаёти ва ижоди.Т., Адабиёт ва санъат нашриёти 2000 йил.
3. Nabiyev M. Rangshunoslik. —T.: 0 ‘qituvchi, 1985. 40-Ь.
4. T.N.Tursunaliyev. Rangshunoslikka oid terminlarlug‘ati. —T.: Nizomiy nomidagi TDPU. 2002. 20-b.
5. U.Nurtayev. Rangshunoslik asoslari. — T.: «Ilm ziyo», 2008.

XIVA XONLIGIDA SHAYBONIYLAR SULOLASI DAVRIDAGI HARBIY QUROL-YAROQLAR TUZILISHI

Raximberganov Jo’rabek
Urganch davlat universiteti Tarix yo’nalishi magistranti

Annatatsiya: Ushbu maqolada Xiva xonligidagi Shayboniylar sulolasi davridagi qurol – yarog’lar va ularning ishlatilishi uslubi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: taxshandoz,suyak (dandon), oyboltalar, jiba, farangiy, o’q, kamon, nayza.

Xiva xonligi tarixidan ma’lumki Xorazmning mo’tabar zotlari mamlakat taxtiga Shayboniyxon avlodlaridan bo’lgan Berka Sultonning o’g’li Elbarsxonni o’tqazishga qaror qildilar. Shu tariqa Xiva xonligiga asos solindi. Xiva xonligi o’z hududini mustahkamlash va uni kengaytirish maqsadida harbiy qo’shinga va uning qurollariga alohida ahamiyat bergan.Bu sulola davrida xiva xonligi qurol aslahalari juda zamonaviy bo’lmasada ularni yasash,undan foydalanish o’ziga xos bilim va tajriba talab qilgan. Yozma manbalarda qayd etilishicha, bu davrda eng asosiy jang qurollari o’q va kamon bo’lgan[17]. Oddiy kamon yoy shaklida egilgan qattiq yog’ochning ikkala uchini mustahkam ip bilan tarang qilib bog’lash orqali yasalgan. Bu davrda kamonning asosi tashqi tomondan chandir, ichki tomondan silliq muguz bilan yopishtirilgan yog’ochdan iborat bo’lgan. Ba’zida tutqichning o’rtasi va oxiri suyak (dandon) bilan qoplangan. Bu kamonning o’qi uzoqqa otiladigan alohida, murakkab turi edi. Shu bilan birga, murakkab tuzilishga ega kamonlarning turlari ham turlicha bo’lgan. Kamondan o’q uzish nafaqat o’t ochish qurollari paydo bo’lgunga qadar, balki undan keyin ham O’rta Osiyoda muayyan masofadan turib nishonga urishning asosiy usuli bo’lib kelgan. Siyosiy qudrati ko’p jihatdan qurolli kuchlarga bog’liq bo’lgan Xiva xonligining poytaxti hisoblangan Urganchda XVIII asrning birinchi yarmida qurolyarog’ yasash ishlari sezilarli darajada rivojlangan.Shu tufayli davlat juda ko’p joylarni harbiy kuch yordamida bosib olgan.Murakkab sharoitlarda xar bir qurol aslahalarning o’rni mavjud va muxim ro’l o’ynagan. Qo’shin va harbiylashgan qismlar uchun qilichlar, xanjarlar, oyboltalar, jangovor boltalar, sovutlar, dubulg’alar, qalqonlar va turli hildagi qurol-yarog’lar tayyorlangan. Qilich va o’qlangan kamondan hujum vaqtida otliqlar keng foydalanganlar. Kamondan qamal qilingan shaharliklar ham qal’a devorlarida turib, unumli foydalanganlar. Binobarin, kamon va o’qlar turli shakl va o’lchovda tayyorlangan. Tadqiq qilingan tarixiy manba va adabiyotlarda kamonning o’lchovi o’qining uzunligiga muvofiq kelishi haqida fikr

[17] Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан (қадимга даврдан ҳозиргача) / Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси; маъсул муҳаррир Д.Х.Зияева / - Т.: Шарқ. 2012, 11-б.

bildirilgan[18]. Shuningdek, o’q otar qurollar – taxshanlar ham qo’llanilgan. Lekin taxshandozlar XVI-XVIII asrlardagi harbiy to’qnashuvlarning ishtirokchilari sifatida kamdan kam hollarda tilga olinadi. Kamon va o’qlarni olib yurish uchun ustalar sadoq yasaganlar. Aslzodalarga mo’ljallangan sadoqlar qimmatbaho charmdan tayyorlangan. Ma’lumki, kamondan otish uchun o’q uyacha (chuqurcha) vositasida ipga mustahkamlangan. O’qlar turli shaklda bo’lishi mumkin edi. Yog’och, poynak va qush patidan yasalgan o’qlar keng tarqalgan. Ba’zida o’qlarni yasash ham juda muxim bo’lgan.O’qlar ba’zi hollarda qush patidan tayyorlangan. Yog’och o’qlar turli turdagi daraxtlardan tayyorlangan, jumladan, qayindan yasalgan o’qlar tilga olinadi.

Paykonlar belgilangan vazifasiga ko’ra turli tuman bo’lgan. O’qning uzunligi kabi unga suqulgan patlar ham turli shaklda edi. Neftga shimdirilgan matoni o’qqa o’rash orqali yondiruvchi o’qlar ham tayyorlangan. Qamal qilinganlar qal’a devorlaridan turib qamal qiluvchilarni o’qqa tutish uchun ulardan foydalanganlar. Qamal qilayotganlar esa qamal qilinayotgan shaharda yong’in chiqarish maqsadida yondiruvchi o’qlar otganlar. O’qning o’rtacha qancha masofaga otilishidan amalda jang oldidan qo’shinning joylashgan o’rnini, ba’zida esa umuman masofani aniqlash uchun foydalanilgan. O’qlarning uchi suyak (dandon) yoki metalldan yasalgan. Metall uchlar turli shakllarda tayyorlangan va shakldan kelib chiqib, turli maqsadlarga, masalan, ayrimlari sovutlarni teshib o’tishga mo’ljallangan. O’qlar va ularning uchlari hunarmandlar tomonidan maxsus yasalgan. Shu bilan birga, mutaxassis bo’lmagan ba’zi kishilar ham o’z bilganlaricha kamon va o’q yasaganlar. Sovut va zirhlar (jiba, sovut, javshan) jangchi tanasini sovuq va o’t ochar qurollardan himoya qilgan[19]. Hunarmandlar tomonidan tayyorlangan qalqonlar ham turli-tuman ko’rinishda bo’lgan. Yog’och qalqonlar qal’alar qamali vaqtida qo’shin huzurida bo’lgan hunarmandlar tomonidan tayyorlanishi mumkin edi. Metall bilan ziynatlangan, nisbatan ishonchli qalqonlar ham tayyorlangan. Lekin, xususan zamondoshlarining e’tirofiga ko’ra, yaxshi merganlar bo’lgan “Xorazm yigitlari tomonidan otilgan o’qlar” bunday qalqonlarni ham ba’zida teshib o’tgan. “Ular shunaqangi yaxshi otar edilarki, - deb yozadi Bobur, - ularning o’qlari bir necha marta qalqon va sovutni, ba’zida hatto ikki qat sovutni ham teshib o’tgan edi”[3].

Harbiylarning boshini dubulg’a himoya qilgan. Dubulg’a turli shaklda, kigizdan tikilgan, shuningdek, sovut to’ri osilgan yoki osilmagan metalldan yasalgan bo’lishi mumkin. Lashkar yo’lboshchilari jangovor otlarining tanasi zirh bilan himoya qilingan. Ularning bir qismi xonlikka Yevropadan keltirilib, “farangiy” – “yevropalik” deb yuritilgan. Metallga o’ralib, yevropacha zirh yopilgan otga askar

[18] Курилев В.П. Оружие казахов //Материальная культура и хозяйство народов Кавказа, Средней Азии и Казахстана. Сборник МАЭЛ. 1978, С.19.

[19] Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан (қадимга даврдан ҳозиргача) / Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси; маъсул муҳаррир Д.Х.Зияева / - Т.: Шарқ. 2012, 13-б. [2] Заҳириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. Тошкент. 1989, 156-б.

viqor bilan o’tirgan. Qurol-aslaha ustasining otiga yasaydigan qurol turidan kelib chiqib, kasbining nomi ham qo’shib aytilgan. Chunonchi, qalqonsoz usta, sadoqsoz usta, o’qchi usta va hakozo. “Maktubod va asnod” qo’lyozma to’plamiga kiritilgan insholardan birida Shayxim Qo’rchi degan kishining qo’rxona boshlig’i lavozimiga tayinlanishi haqidagi buyruq saqlangan. Bu hujjatda qayd etilishicha, o’qchi, kamonsoz, qilichsoz ustalar qo’rchining qo’l ostida qurol yasaganlar. O’tochar qurollarning keng yoyilishi va takomillashuvi bilan chopadigan va otadigan qurollarning xususiyati ham o’zgarib bordi. O’q kiyim boshni nisbatan nisbatan oson teshib o’tganligi tufayli uning shakli bir necha marta o’zgargan. Lekin XVI asrda ham oldingi asrlarda ma’lum bo’lgan qurol va qalqonlardan foydalanishda davom etganlar. Yoy-andozlar esa, miltiq qo’llana boshlangandan keyin ham qo’shinning asosiy tayanchi bo’lib qolavergan. Jangda shuningdek, zarba berish uchun qo’llaniladigan qadimiy qurol-cho’qmordan ham foydalanilgan. U bir uchida tasma yoki zanjir bilan osilgan metall soqqa, ikkinchi uchida qo’lga taqiladigan ilmoq bo’lgan qisqa tayoq shaklida edi. Nayza-yog’ochdan yasalgan uchlik uzun qurol, tarqoq va zich hujum vaqtida qo’llanilgan. Nayzalar uzun va qisqa dastali bo’lgan. Otliq nayzabardorning harakati ko’p jihatdan otning kuchiga bog’liq edi. Harbiy janglarda, yurishlarda otlar va otliq qo’shin muhim rol o’ynagan. Qimmatbaho zeb berilgan qurollar kabi otlar ham hadya vositasi hisoblangan. Bundan tashqari janglarda qilichning ahamiyati ham katta edi. Shu bilan birga yaqin masofadagi jangda jangovar boltadan ham foydalanilgan.

Yozma manbalardan ma’lum bo’lishicha, jangchilarning deyarli hammasi qurol-aslaha va harbiy kiyim-bosh bilan ta’minlangan. Muhammad Solihning guvohlik berishicha, o’zbek sultonlari lashkari safidagi sovutsiz jangchilar o’z tanasini kigiz bilan o’ralib himoya qilganlar. Oliy hukmdorga mo’ljallangan urush qurol-yarog’lari qimmatbaho toshlar va nafis naqshlar bilan ziynatlangan. Xorazm hududidagi safari taassurotlarini tasvirlagan ingliz Antoniy Jenkinson shunday yozadi: “26 dekabrda menga xon huzuriga kirish amr qilindi. Men unga rus podshohining maktubini topshirdim. Xon a’yonlari oldida mendan bizningmiltig’imizdan otishga majbur etdi va o’zi ham ulardan otib, mashq qildi.[20]” Ushbu xabardan ma’lum bo’ladiki, mahalliy to’fanglar Antoniy Jenkinson qo’lidagi miltiqdan farq qilgan. XVI-asrning ikkinchi yarmidan e’tiboran qo’lda olib yuriladigan o’q otish qurollarini texnik jihatdan takomillashtirish qo’shinni, shu jumladan, yollanma lashkarlarni ham qurollantirishda muayyan rol o’ynay boshladi. O’rta Osiyo xonliklari qurolli kuchlari tarkibida kamonchilar mavqei ham samoqli bo’lgan. XVII-asrda ham kamon yengil otliqlarning ot ustida turib nishonga uruvchi tezotar qulay qurol bo’lib qolavergan. XVI asrning oxirlariga kelib, artilleriya to’plarini yasash nisbatan takomillasha

[20] Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан (қадимга даврдан ҳозиргача) / Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси; маъсул муҳаррир Д.Х.Зияева / - Т.: Шарқ. 2012, 116-б. [2] Шу асар, 120-б.

boshladi va harbiy xarakatlarda ham mahalliy ustalar tomonidan yasalgan to’plardan keng foydalanila boshladi. To’plar mustahkam, ular o’lchovi esa ko’p yoki kam darajada birxillasha bordi. Asr oxirlariga kelib, harbiy xarakatlarda asosan mahalliy ustalar yasagan to’plardan foydalanilgan. Yevropacha to’p-faranglar kamdan-kam hollarda ishlatilardi. Bu artilleriya to’plari ishlab chiqarishda muayyan siljishlar sodir bo’lganidan guvohlik beradi. Shu bilan birga, zarbzan, ra’d, zambarak, manjaniq, toshotar va boshqa avvalgi asrlarga mansub qurollar ham baravar ishlatilgan devor teshadigan hamda otadigan texnika va artilleriyalardan foydalanilgan. Harbiy texnikada yoqilg’i sifatida neftdan foydalanilgan. Qal’a devorlaridan turib urishganda dushmanga neft shimdirilgan latta o’ralgan yonuvchi o’qlarni yog’dirganlar, bu o’sha davr uchun “daxshatga soluvchi qurol” hisoblangan.

Ma’lumotlarga ko’ra, bo’lg’usi taxt sohiblari – valiahd shahzodalarga umumiy ta’lim berish bilan birga, yoshlikdan harbiy mashqlarga o’rgatish, jumladan, kamonlan o’q otish va otda yurishga o’rgatilgan. Xiva xonlari saroyida xonning voyaga yetmagan farzandlari tarbiyasi bilan shug’ullanuvchi mahsus otaliq lavozimi bo’lgan. Odatda, otaliqi bilan uning ustidan hukmronlik qilgan. Bu esa qadimgi davrdagi xiva xonligining mudofaa va harbiy sohasida muxim ro’l o’ynagan.

MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

1.	THE NEED FOR STRENGTHENING THE FOOD ORIENTATION OF THE AGRICULTURAL SECTOR Botirova Rahima Abdujabborovna Sirojiddinov Ikromiiddin Qutbiddinovich	4
2.	INSON KAPITALINI RIVOJLANIShIGA DOIR MULOHAZALAR Aripov Oybek Abdullaevich	13
3.	XALQARO QOIDALAR ASOSIDA QIMMATLI QOG’OZLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH Xolmirzayev Ulug’bek Abdulazizovich	21
4.	KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVASION MARKETINGDAN SAMARALI FOYDALANISH Nasirova Nargiza Tursunpo'latovna	28
5.	МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ «ОСНОВЫ ВАЛЕОЛОГИИ» В НЕМЕДИЦИНСКИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ Арипов Адулла Насритдинович	35
6.	GAAP ASOSIGA QO‘YILGAN MOLIYAVIY HISOB KONTSEPTSIYALARI Sirojiddinov Ikromiiddin Qutbiddinovich Xolmirzayev Ulug’bek Abdulazizovich	42
7.	EKSKURSIYA XIZMATLARINI SHAKLLANTIRISHDA EKSKURSOVODNING O‘RNI Jabbarova Latofat Tulkinjonovna Irgasheva Sojida G‘olib qizi	51
8.	DRAMATIK ASARNING LINGVISTIK EKSPERTIZASI LINGUISTIC EXAMINATION OF A DRAMATIC WORK Suvonov Zavqiddin	54
9.	GIPRID ENERGIYA OLISH TEXNALOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH HAMDA SAMARALI ISHLASH USULLARINI TAKLIF ETISH Xurmatillo Izzatillayev, Nurmirza Abduhalilov, Sodiqjon G’ofurov	60
10.	УЛУЧШЕНИЕ КАЧЕСТВА ЭЛЕКТРОЭНЕРГИИ В ВОПРОСАХ ЭНЕРГОСБЕРЕЖЕНИЯ. МОДЕЛИРОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ ИСКАЖАЮЩИХ ВОЗДЕЙСТВИЙ Бахромов Боходиржон Мирзаабдулла ўғли Шамшитдинов Мақсудбек Элмурод ўғли Ғофуров Содиқжон Тўхтасин ўғли	64
11.	QUYOSH ISSIQLIK NASOS STANSIYALARIDAN FOYDALANISH Behzod Kuchkarov Xoshimjanovich Fazliddinov Saloxiddin Baxriddinovich Ergashev Murodjon A’zamjon o‘g‘li	70
12.	OLIY TA`LIM TIZIMINI BOSHQARISHDA SAMARALI QAROR QABUL QILISH SAN’ATI Samiyeva Shaxnoz Xikmatovna Narzulloyeva Feruza Fatulloyevna	74
13.	MILLIY LIBOSLARNING ZAMONAVIY VA MILLIY BRENDLARNI YARATILISHINI TAHLIL QILISH Samiyeva Shaxnoz Xikmatovna Shodmonova Mijgona Salimovna	83
14.	FANLARARO INTEGRATSIYANING TA’LIM SIFATIGA TA’SIRI Salimova Mohigul Rustam qizi Salimov Zuxriddin Rustam o‘g‘li	88

15.	ENDOFIT BAKTERIYALARNING BIOLOGIK FAOL METABOLITLAR SINTEZ QILISH XUSUSIYATLARI VA ULARNING QO`LLANILISH SOHALARI Boboqandova Mexriniso Shodiyeva Dildora	92
16.	AVSTRALIYA MEZOLIT DAVRI MADANIYATI Urunov Shoxijahon Jamshidovich	97
17.	A SYSTEM FOR IMPROVEMENT OF PEDAGOGICAL LITERACY IN FUTURE PEDAGOGUES Akramova Gulnoza Baxodir qizi	99
18.	MILLIY VIRTUAL TA’LIM MUHITIDA IQTIDORLI TALABALAR UCHUN KURSLAR TASHKIL ETISH METODIKASI Delov To‘lqin Erkinovich	104
19.	TO‘G‘RI CHIZIQQA PARALLEL VA UNI KESIB O‘TUVCHI TO‘G‘RI CHIZIQ O‘TKAZISHGA OID MASALALARNI ISHLASH METODIKASI Okboyev Olti Yusupovich	113
20.	HISTORY OF TRICHODERMA FUNGUS (TRICHODERMA ZAMBURUĞINING TARIXI) Shomurodova Marjona Zarif qizi	117
21.	QO’QON SHAHRI TARIXIDAN Muhammadaminov Shermuhammad Zafarjon o’g’li	124
22.	YOSHLAR INNOVATSION QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY HAYOT BILAN UYG‘UNLIGI Aliyeva Shoira Ruzibanovna	131
23.	MALIK NABIEV IJODIDA «BERUNIY» PORTRETI Alimov Umudjon Jasurdinovich	139
24.	XIVA XONLIGIDA SHAYBONIYLAR SULOLASI DAVRIDAGI HARBIY QUROL-YAROQLAR TUZILISHI Raximberganov Jo’rabek	144

Eslatma! **“Interpretation and researches”** xalqaro ilmiy jurnaliga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma’lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to‘g‘riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

International scientific journal

“Interpretation and researches”

xalqaro ilmiy jurnal

2023-yil 3-son

© Mualliflar jamoasi, 28.02.2023. 150 bet.
© O‘zbekiston Respublikasi, Farg‘ona viloyati
© interpretationandresearches.uz